

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**A.NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH  
VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH MINTAQAVIY  
MARKAZI**

**XOLMATOV NORMAXAMMAD O'RAZOVICH**

**«O'ZBEK DAVLATCHILIGI TARIXINING DOLZARB  
MASALALARI» modul birligidan**

**O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

**SAMARQAND 2015**

## MUNDARIJA

<b>I. ISHCHI O'QUV DASTUR .....</b>	<b>3</b>
<b>II. MA'RUZALAR MATNI.....</b>	<b>11</b>
<b>1-mavzu:</b> O'zbek davlatchiligi tarixining manbashunosligi va tarixshunosligi ... .....	<b>11</b>
<b>2-mavzu:</b> O'rta Osiyoda ilk shaharsozlik madaniyati, davlatchilik tarixi shakllanishining tarixiy shart-sharoitlari, omillari va ularning o'ziga xos ususiyatlari.....	<b>19</b>
<b>3-mavzu.</b> Vatanimizda IX-XII asrlarda o'zbek davlatchiligi tarixi.....	<b>30</b>
<b>4 - mavzu.</b> Amir Temur va temuriylar davrida o'zbek davlatchiligining yuksalishi.....	<b>44</b>
<b>5-Mavzu.</b> Mustaqillik yillarida o'zbek davlatchiligining mustahkmalanishi va yuksalishi .....	
<b>Test topshiriklari .....</b>	
<b>III. Glossariy.....</b>	<b>54</b>
<b>IV.Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati .....</b>	<b>61</b>

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH  
VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL ETISH  
BOSH ILMIIY - METODIK MARKAZI**

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARINI  
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH MINTAQAVIY  
MARKAZI**

**“Tasdiqlayman”**

**Mintaqaviy markaz direktori**

\_\_\_\_\_ **N.N.Indiaminov**

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ **2015 yil**

**«O'ZBEK DAVLATCHILIGI TARIXINING DOLZARB MASALALARI»  
modul birligi**

**ISHCHI O'QUV DASTURI**

**Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishi:** Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar

**Qayta tayyorlash va malaka oshirish mutaxassisligi:** O'zbekiston tarixi

**Tinglovchilar kontingenti:** Oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari

**Samarqand – 2015**

Modulning ishchi o'quv dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv-metodik birlashmalari faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2015 yil 16 iyuldagi 4-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan o'quv dasturi va o'quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchi:**

Xolmatov N. – tarix fanlari nomzodi, dosent.

**Taqrizchilar:**

M.Jo'raqulov - tarix fanlari doktori, professor, SamDU.

G'oyibov B. – tarix fanlari nomzodi, dosent, SamDU.

Modulining ishchi dasturi A.Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti Ilmiy kengashining 2015 yil 27 avgustdagi 1 - sonli qarori bilan ma'qullangan o'quv dasturi asosida ishlab chiqildi.

## **I.Modulning maqsadi va vazifalari**

«O'zbek davlatchiligi tarixining dolzarb masalalari» **modulining maqsadi:** pedagog kadrlarining tarix fani bo'yicha malaka oshirish kursi tinglovchilarining O'zbek davlatchiligi tarixining dolzarb masalalari tushunchasi, O'zbekistonda antropogenez jarayoni va vatanimiz odamzod ilk bor paydo bo'lgan mintaqalardan biri ekanligi, Vatanimiz sarhadlari Sharq dunyosida qadimgi sivilizasiya beshiklaridan biri ekanligi, O'rta Osiyoda ilk shahar madaniyatining paydo bo'lishi: O'rta Osiyo shaharlarining jahon shaharsozlik madaniyatida tutgan o'rnini. Davlat tuzilmalarining shakllanish shart-sharoitlari va omillari. Ilk davlatchilik taraqqiyoti, antik, ilk o'rta asrlarda o'zbek davlatchiligi. IX-XII asrlarda o'zbek davlatchiligi. Ijtimoiy-siyosiy hayot. Amir Temur davrida o'zbek davlatchiligining yuksalishi. "Temur tuzuklari" – davlat boshqaruvi to'g'risida muhim manba ekanligi, XVI-XIX asr birinchi yarmida o'zbek davlatchiligi to'g'risidagi bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

«O'zbek davlatchiligi tarixining dolzarb masalalari»**modulining vazifalari:**

- O'zbek davlatchiligi tarixining dolzarb masalalari to'g'risida ma'lumotlar berish;
- O'zbekistonda antropogenez jarayoni va vatanimiz odamzod ilk bor paydo bo'lgan mintaqalardan biri ekanligi to'g'risida ma'lumotlar berish;
- Vatanimiz sarhadlari Sharq dunyosida qadimgi sivilizasiya beshiklaridan biri ekanligi to'g'risida ma'lumotlar berish;
- O'rta Osiyoda ilk shahar madaniyatining paydo bo'lishi to'g'risida ma'lumot berish;
- Davlat tuzilmalarining shakllanish shart-sharoitlari, omillari va ilk davlatchilik taraqqiyoti to'g'risida ma'lumot berish;
- Antik, ilk o'rta asrlarda o'zbek davlatchiligi to'g'risida tushuncha berish;
- IX-XII asrlarda o'zbek davlatchiligi. Ijtimoiy-siyosiy hayoti to'g'risida tushuncha berish;
- Amir Temur davrida o'zbek davlatchiligining yuksalishi. "Temur tuzuklari" – davlat boshqaruvi to'g'risida muhim manba ekanligi tushuntirib berish;
- XVI-XIX asr birinchi yarmida o'zbek davlatchiligi bo'yicha nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

### **Modulni o'zlashtirishga qo'yiladigan talablar**

«O'zbek davlatchiligi tarixining dolzarb masalalari» modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida tinglovchilar:

- O'zbek davlatchiligi tarixining dolzarb masalalari;
- Kishilik tarixida antropogenez jarayoni va vatanimiz odamzod ilk bor paydo bo'lgan mintaqalardan biri ekanligi;

- Jahon sivilizasiyalari. O'rta Osiyoning qadimgi sivilizasiyalari;
- O'rta Osiyoda ilk shaharsozlik madaniyati, davlatchilik tarixi shakllanishi tarixiy shart-sharoitlari, omillari va ularning o'ziga xos xususiyatlari;
- Vatanimizning antik, ilk o'rta asrlarda davlatchiligi taraqqiyoti;
- IX-XII asrlarda o'zbek davlatchiligi;
- Amir Temur davrida o'zbek davlatchiligining yuksalishi. "Temur tuzuklari" – davlat boshqaruvi;
- XVI-XIX asr birinchi yarmida o'zbek davlatchiligini biladilar va ilmiy-pedagogik faoliyatida qo'llay oladilar.

### **Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi**

Modul birligining mazmuni o'quv rejadagi barcha fanlar bilan uzviy bog'liq holda O'zbek davlatchiligi tarixining dolzarb masalalaribo'yicha bilimlarini yangilash va takomillashtirish orqali kasbiy maxorati va ko'nikmalarini oshirishga, O'zbek davlatchiligi tarixining dolzarb masalalari bo'yicha pedagogik tajriba va ko'nikmalarini rivojlantirish orqali tinglovchilarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

### **Modulning oliy ta'limdagi o'rni**

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar O'zbek davlatchiligi tarixining dolzarb masalalari bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarga egallash orqali kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

**Modul bo'yicha soatlar taqsimoti:**

№	Modul tarkibi	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat				
		Hammasi	Auditoriya o'quv yuklamasi			Mustaqil ta'lim
			Jami	jumladan:		
				Nazariy	Amaliy mashg'ulot	
1.	O'zbek davlatchiligi tarixining manbahunosligi va tarixshunosligi.	4	2	2		
2.	O'zbekistonda antropogenez jarayoni va vatanimiz odamzod ilk bor paydo bo'lgan mintaqalardan biri ekanligi masalasi.	2		2		
3.	Vatanimiz sarhadlari Sharq dunyosida qadimgi sivilizasiya beshiklaridan biri ekanligi.	2		2		
4.	O'rta Osiyoda ilk shaharsozlik madaniyati, davlatchilik tarixi shakllanishining tarixiy shart-sharoitlari, omillari va ularning o'ziga xos xususiyatlari	4	2	2		
5.	Vatanimizning antik, ilk o'rta asrlarda davlatchiligi taraqqiyoti	2		2		
6.	Vatanimizda IX-XII asrlarda o'zbek davlatchiligi tarixi	2	2			
7.	Amir Temur va temuriylar davrida o'zbek davlatchiligining yuksalishi.	6	2	2		2
8.	"Temur tuzuklari" – manbasida davlat boshqaruvi mazmun, mohiyoti.	2		2		
9.	XVI-XIX asr birinchi yarmida o'zbek davlatchiligi tarixi	2		2		
10.	Mustaqillik yillarida o'zbek davlatchiligining mustahkamlanishi va yuksalishi	4	2			2
	<b>Jami:</b>	<b>30</b>	<b>26</b>	<b>10</b>	<b>16</b>	<b>4</b>

## **NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

### **1-mavzu: O'zbek davlatchiligi tarixining manbashunosligi va tarixshunosligi. (Nazariy 2 soat)**

1. O'zbek davlatchiligi tarixining manbashunosligi va tarixshunosligi.
2. Respublikamiz mustaqilligi yillarida O'zbek davlatchiligi tarixining manbashunosligi va tarixshunosligi.

O'zbek davlatchiligi tarixining manbashunosligi va tarixshunosligining o'ziga xos xususiyatlari. O'zbek davlatchiligi tarixining yozma manbalarda aks etishi (Avesto, Bexustun bitiklari, "Temur tuzuklari" va h.k.). Respublikamiz mustaqilligi yillarida davlatchiligimiz tarixiga yangicha yondoshuvlar, konsepsiyasining yaratilishi. Davlatchiligimiz tarixining arxeologik manblarda aks etishi masalasi.

### **2-mavzu: O'rta Osiyoda ilk shaharsozlik madaniyati, davlatchilik tarixi shakllanishi tarixiy shart-sharoitlari, omillari va ularning o'ziga xos xususiyatlari (nazariy 2 soat)**

#### **REJA:**

1. O'rta Osiyoda ilk shaharsozlik madaniyati, davlatchilik tarixi shakllanishi tarixiy shart-sharoitlari, omillari va ularning o'ziga xos xususiyatlari
2. Vatanimiz sarhadlarida shaharsozlik madaniyatining tarixiy ildizlari masalasi va ularning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Vatanimiz sarhadlarida ilk davlat birikmalari va ularning o'ziga xos xususiyatlari.

O'rta Osiyoda dastlabki sug'orma dehqonchilik madaniyatiga asoslangan madaniy markazlar masalasi, Qadimgi Xorazm, So'g'd, Baqtriya, Shosh va Farg'ona, Baqtriya sivilizasiyalarining tarixiy ildizlari masalasi, Davlat tuzilmalarining shakllanish shart-sharoitlari va omillari. Dastlabki davlat uyushmalarining ko'rinishlari: "Voha davlat", "Shahar davlat" va h.k. Ilk shaharlar va davlatchilik taraqqiyoti o'rtasidagi dialektik bog'liqlik.

### **3-mavzu: Vatanimizda IX-XII asrlarda o'zbek davlatchiligi tarixi (Nazariy 2 soat)**

#### **REJA:**

1. Vatanimizda IX-XII asrlarda o'zbek davlatchiligi tarixining o'ziga xos xususiyatlari
2. Somoniylar, Qoraxoniylarning o'zbek davlatchiligi tarixida tutgan o'rni.
3. Buyuk Xorazm davlatining o'ziga xos xususiyatlari



Vatanimizda IX-XII asrlarda o'zbek davlatchiligi tarixio'ziga xos xususiyatlari, Somoniylar davri davlat boshqariluv va uning o'ziga xos xususiyatlari, Qorxoniyalar davri davlat boshqariluv va uning o'ziga xos xususiyatlari, Buyuk Xorazm davlati davlat boshqariluv va uning o'ziga xos xususiyatlari,

#### **4-mavzu: Amir Temur davrida o'zbek davlatchiligining yuksalishi.**

**(Nazariy 2 soat)**

##### **REJA:**

1. Amir Temur va temuriylar davrining o'zbek davlatchiligi tarixida tutgan o'rni.
2. Amir Temur va temuriylar davri davlatchiligining asosiy tamoyillari.
3. "Temur tuzuklari" – manbasida davlat boshqaruvi mazmun, mohiyoti,

Amir Temur va temuriylar davrining o'zbek davlatchiligi tarixida tutgan o'rni. Amir Temur davrida o'zbek davlatchiligining yuksalishi, Amir Temur va temuriylar davri davlatchiligining asosiy tamoyillari. "Temur tuzuklari" – manbasida davlat boshqaruvi mazmun, mohiyoti,

#### **5-mavzu: Mustaqillik yillarida o'zbek davlatchiligining mustahkamlanishi va yuksalishi (Nazariy 2 soat)**

##### **REJA:**

1. Mustaqil O'zbekiston davlatining tashkil topishi
2. Yangi jamiyaga o'tish davrida siyosiy islohatlar
3. O'zbekistonda huquqiy, demokratik davlat qurilishi, fuqoralik jamiyatining makllanishi
4. O'zbekiston mustaqilligi yillarida Qoraqolpog'iston davlatchiligining taraqqiyoti

O'zbekiston davlat suverenitetining e'lon qilinishi, O'zbekiston mustaqilligi huquqiy asosining yaratilishi, yangi Konstitusiyani qabul qilinishi. O'zbekistonda Oliy davlat vakillik organi-qonun chiqaruvchi hokimiyatning shakllanishi, Milliy davlat tizimining barpo qilinishi, boshqaruvda yangi usullarning qaror topishi,, mahalliy davlat hokimiyati tizimida tub o'zgarishlar yasalishi. Demokratiyani yanada chuqurlashtirish, O'zbekistonda inson huquqlari va erkinliklari kafolatining yaratilishi. O'zbekiston mustaqilligi yillarida Qoraqolpog'iston davlatchiligining taraqqiyoti

#### **AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

#### **1-mavzu: O'zbek davlatchiligi tarixining manbashunosligi va tarixshunosligi.. (amaliy 2 soat)**

1. O'zbek davlatchiligi tarixining manbashunosligi va tarixshunosligi.
2. Respublikamiz mustaqilligi yillarida O'zbek davlatchiligi tarixining manbashunosligi va tarixshunosligi.

O'zbek davlatchiligi tarixining manbashunosligi va tarixshunosligining o'ziga xos xususiyatlari. O'zbek davlatchiligi tarixining yozma manbalarda aks etishi (Avesto, Bexustun bitiklari, "Temur tuzuklari" va h.k.). Respublikamiz mustaqilligi yillarida davlatchiligimiz tarixiga yangicha yondoshuvlar, konsepsiyasining yaratilishi. Davlatchiligimiz tarixining arxeologik manblarda aks etishi masalasi.

## **2-mavzu: O'zbekistonda antropogenez jarayoni va vatanimiz odamzod ilk bor paydo bo'lgan mintaqalardan biri ekanligi masalasi.**

**(Amaliy 2 soat)**

### **REJA:**

1. Umum tarix fanida antropogenez masalasi, nazariyalar
2. Vatanimiz sarhadlari Dunyo miqyosida antropogenez jarayoni sodir bo'lgan mintaqalardan biri ekanligi masalasi.
3. "Farg'ona odami", "Obirahmat odami", "neondertal bolasi".

Hozirgi kunda umum tarix fanida antropogenez masalasi borasida yangi antropologik topilmalar, antropogenez masalasi monosentrizm, polisentrizm nazariyalari, "Farg'ona odami", "Obirahmat odami", "neondertal bolasi".

## **3-mavzu: Vatanimiz sarhadlari Sharq dunyosida qadimgi sivilizasiya beshiklaridan biri ekanligi (amaliy 2 soat)**

### **REJA:**

1. Vatanimiz sarhadlari Sharq dunyosida qadimgi sivilizasiya beshiklaridan biri ekanligi masalasi.
2. O'rta Osiyo qadimgi sivilizasiyalari: Qadimgi Xorazm, Qadimgi So'g'd, Qadimgi Baqtriya, Shosh va Farg'ona sivilizasiyalari.
3. Vatanimiz sarhadlarida ilk davlat birikmalari ularning o'ziga xos xususiyatlari.

O'rta Osiyoda dastlabki sug'orma dehqonchilik madaniyatiga asoslangan madaniy markazlar masalasi, Vatanimiz sarhadlari Sharq dunyosida qadimgi sivilizasiya beshiklaridan biri ekanligi. Qadimgi Xorazm, So'g'd, Baqtriya, Shosh va Farg'ona, Baqtriya sivilizasiyalari va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Katta Xorazm, Baqtriya. O'zbekistondagi tarixiy yodgorliklar: osori-atiqalar, ilk shahar xarobalari hamda buyuk fan va davlat arboblari, qadimgi davrlardan boshlab taraqqiy etgan ilm-fan rivojlangan sivilizasiya beshigi ekanligi.

O'rta Osiyoda ilk shahar madaniyatining paydo bo'lishi: Oltintepa, Sopollitepa, Jarqo'ton va boshqalar. Zardushtiylik ta'limoti, uning jahon sivilizasiyasidagi o'rni. Yozuv madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi. Dastlabki diniy qarashlar. O'rta

Osiyo shaharlarining jahon shaharsozlik madaniyatida tutgan o'rnini. Davlat tuzilmalarining shakllanish shart-sharoitlari va omillari. Ilk shaharlar va davlatchilik taraqqiyoti o'rtasidagi dialektik bog'liqlik.

**4-mavzu: O'rta Osiyoda ilk shaharsozlik madaniyati, davlatchilik tarixi shakllanishi tarixiy shart-sharoitlari, omillari va ularning o'ziga xos xususiyatlari (amaliy 2 soat)**

**REJA:**

1. O'rta Osiyoda ilk shaharsozlik madaniyati, davlatchilik tarixi shakllanishi tarixiy shart-sharoitlari, omillari va ularning o'ziga xos xususiyatlari
2. Vatanimiz sarhadlarida shaharsozlik madaniyatining tarixiy ildizlari va ularning arxeologik manbalarda aks etishi masalasi.
3. Vatanimiz sarhadlarida ilk davlat birikmalari va ularning arxeologik manbalarda aks etishi masalasi.

O'rta Osiyoda dastlabki sug'orma dehqonchilik madaniyatiga asoslangan madaniy markazlar masalasi, Qadimgi Xorazm, So'g'd, Baqtriya, Shosh va Farg'ona, Baqtriya sivilizasiyalarining tarixiy ildizlari masalasi, Davlat tuzilmalarining shakllanish shart-sharoitlari va omillari. Dastlabki davlat uyushmalarining ko'rinishlari: "Voha davlat", "Shahar davlat" va h.k. Ilk shaharlar va davlatchilik taraqqiyoti o'rtasidagi dialektik bog'liqlik.

**5-mavzu: Vatanimizning antik, ilk o'rta asrlarda davlatchiligi taraqqiyoti (amaliy 2 soat)**

**REJA:**

1. Kushonlar saltanatining o'zbek davlatchiligi tarixida tutgan o'rnini.
2. Buyuk ipak yo'lining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari.
3. Ilk o'rta asrlarda o'zbek davlatchiligi. Eftaliylar davlati. Turkiy hoqonlik davrida O'rta Osiyo.

Kushonlar saltanatining o'zbek davlatchiligi tarixida tutgan o'rnini. Qadimiy yozuv madaniyati. Oromiy yozuvi. Baqtriya, Xorazm, Sug'd yozuvlarining Oromiy yozuvi tarkibidan ajralib chiqishi. Yunon-Baxtar yozuvi. Buyuk ipak yo'lining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. Ilk o'rta asrlarda o'zbek davlatchiligi. Eftaliylar davlati. Turkiy hoqonlik davrida O'rta Osiyo. Vatanimiz sarhadlari Sharq dunyosida qadimgi sivilizasiya beshiklaridan biri ekanligi.

**6-mavzu: Amir Temur davrida o'zbek davlatchiligining yuksalishi. (amaliy 2 soat)**

### **REJA:**

1. Amir Temur va temuriylar davriningo'zbek davlatchiligi tarixida tutgan o'rni.
2. Amir Temur va temuriylar davri davlatchiligining asosiy tamoyillari.
3. "Temur tuzuklari" – manbasida davlat boshqaruvi mazmun, mohiyoti.

Amir Temur va temuriylar davriningo'zbek davlatchiligi tarixida tutgan o'rni. Amir Temur davrida o'zbek davlatchiligining yuksalishi, Amir Temur va temuriylar davri davlatchiligining asosiy tamoyillari. "Temur tuzuklari" – manbasida davlat boshqaruvi mazmun, mohiyoti,

### **7-mavzu: "Temur tuzuklari" – manbasida davlat boshqaruvi mazmun, mohiyoti (amaliy 2 soat)**

#### **REJA:**

1. Amir Temur va temuriylar davriningo'zbek davlatchiligi tarixida tutgan o'rni.
2. Amir Temur va temuriylar davri davlatchiligining asosiy tamoyillari.
3. "Temur tuzuklari" – manbasida davlat boshqaruvi mazmun, mohiyoti,

Amir Temur va temuriylar davriningo'zbek davlatchiligi tarixida tutgan o'rni. Amir Temur davrida o'zbek davlatchiligining yuksalishi, Amir Temur va temuriylar davri davlatchiligining asosiy tamoyillari. "Temur tuzuklari" – manbasida davlat boshqaruvi mazmun, mohiyoti,

### **8-mavzu: XVI-XIX asr birinchi yarmida o'zbek davlatchiligi tarixi (amaliy 2 soat)**

#### **REJA:**

1. XVI-XIX asr birinchi yarmi o'zbek davlatchiligi tarixining o'ziga xos xususiyatlari.
2. Buxor xonligi davlat boshqariluvini asosiy tamoyillari.
3. Xiva xonligi davlat boshqariluvini asosiy tamoyillari.
4. Qo'qon xonligi davlat boshqariluvini asosiy tamoyillari.

Shayboniylar, Ashtarxoniylar davri hamda Buxoro amirligi davlat boshqariluvining o'ziga xos xususiyatlari, tamoyillari. Xiva xonligi davlat boshqariluvining o'ziga xos xususiyatlari, tamoyillari. Qo'qon xonligi davlat boshqariluvining o'ziga xos xususiyatlari, tamoyillari.

### **Mustaqil ta'lim mazmuni**

Oliy ta'lim tizimida "O'zbekiston tarixi" fanidan dars beruvchi professor-o'qituvchilar shu moduldan o'zlari tanlagan mavzular yoki bob misolida o'quv modularini shakllantiradilar. Unga modulning sillabusi, ta'lim texnologiyalarini

rejalashtirish maqsadida ta'lim texnologiyalari moduli va texnologik xaritasini keltiradilar, ilg'or ta'lim texnologiyalarini qo'llash uchun didaktik materiallar, dars ishlanmasi, nazorat savollari hamda ko'rsatmali prezentasiyalarni tayyorlaydilar va ulardan shu yo'nalishda bajargan bitiruv loyixa ishini bajarishda qo'llashlari nazarda tutiladi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

### I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

1. Karimov I.A. Asarlar to'plami. 1-22 jildlar. –T.:“O'zbekiston”, 1996-2014.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.:“Ma'naviyat”, 2008.
3. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. –T.:“O'zbekiston”, 2010.
4. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.–T.: “O'zbekiston”, 2011.
5. Karimov I.A. O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizasiya taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati. –T.: “O'zbekiston”, 2014.
6. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi, 2015 yil 24 yanvar.

### Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O'zbekiston, 2014.
2. Ta'lim to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 1997 yil 29 avgust. // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.:«Sharq», 1997. – B. 20-29.
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.:«Sharq», 1997. –B. 30-52.
4. “Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” fani bo'yicha o'quv dasturini tayyorlash va ta'lim tizimiga joriy etish to'g'risida”. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 18 yanvardagi Farmoyishi.
5. Respublika “Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazini tuzish to'g'risida”. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 23 apreldagi Farmoni.
6. «Ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to'g'risida». O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 6 oktyabrdagi Farmoni.
7. “Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida”. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 9 sentyabrdagi Farmoni.
8. “Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashini qo'llab-quvvatlash to'g'risida”. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 yil 3 oktyabrdagi Farmoni.
9. “Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida”. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 25 avgustdagi Qarori.
10. “Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi Farmoni.

11. Milliy g'oya va ma'naviyat targ'iboti samaradorligini oshirish konsepsiyasi. – T.:“Sano-standart” nashriyoti, 2014.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 20 maydagi “Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risidagi” PQ-1533-son Qarori.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi PF-4732-son Farmoni.
14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16-fevraldagi “Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi 25-sonli Qarori.
15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 26 sentyabrdagi “Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 278-sonli Qarori.
16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining O'zFA tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida”gi 1998 yil 27 iyul qarori.

### **III. Maxsus adabiyotlar**

1. O'zbekistonda mustaqil davlatning tug'ilishi. Toshkent, "O'zbekiston", 1992.
2. Asqarov A. Mustaqillik yillarida tarix, arxeologiya va etnologiya. “O'zIF” jurnali. № 6, Toshkent, 1996, 71-bet
3. Azamat Ziyo O'zbek davlatchiligi tarixi: (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar). T., 2000.
4. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. T. Sharq, 2001 .
5. Sagdullayev.A. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda . T.1997.
6. Eshov B. O'zbek davlatchilik tarixi. T. 2009 y.
7. Eshov B. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi.Toshkent, Yangi asr avlodi, 2012.
8. Ilhomov Z.Otajonov Sh, Ishquvvatov V, Allayev N. O'rta Osiyo tarixshunosligi. Toshent, 2011
9. Sagdullayev va boshqalar. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. T., 2000.
10. Sagdullayev A.S. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. T., 2004.
11. Sagdullayev A.S., Mavlonov O'. O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi.-T., 2006.
12. O'zbekiston tarixi. T., «Universitet» 1997
13. O'zbek xalqi davlatchiligi tarixi konsepsiyasi. Loyiha. «O'zbekiston tarixi», 1999, № 1.
14. O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. T. 2001.

15. O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. Mas'ul muharrirlar D.A.Alimova., E.V.Rtveladze. T., 2001.
16. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 13-jildlik. T., «O'zME», 2000-2006 y.

### **Elektron ta'lim resurslari**

1. [www.gov.uz](http://www.gov.uz),
2. [www.press-servis.uz](http://www.press-servis.uz)
3. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
5. Infocom.uz elektron jurnali: [www.infocom.uz](http://www.infocom.uz)
6. [www.nuuz.uz](http://www.nuuz.uz)
7. [www.bimm.uz](http://www.bimm.uz)
8. [www.bilimdon.uz](http://www.bilimdon.uz)
9. [www.lugat.uz](http://www.lugat.uz)
10. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)



## II. MA'RUZALAR MATNI

### 1-mavzu: O'zbek davlatchiligi tarixining manbashunosligi va tarixshunosligi (Nazariy 2 soat)

3. O'zbek davlatchiligi tarixining manbashunosligi va tarixshunosligi.
4. Respublikamiz mustaqilligi yillarida O'zbek davlatchiligi tarixining manbashunosligi va tarixshunosligi.

#### O'zbek davlatchiligi tarixining manbaviy asoslari.

Eng ko'hna davr davlatchilik bilan bog'liq tarixiy jarayonlarni o'rganishda arxeologik tadqiqotlar natijalari ahamiyatlidir. Lekin hanuzgacha bu borada tizimli arxeologik tadqiqotlar natijalari ma'lum emas. O'zbek davlatchiligining antic va o'rta asrlardagi taraqqiyoti va ahvolini o'rganishda asosiy manba bo'lib yozma yodgorliklar xizmat qiladi.

O'zbek davlatchiligi tarixining manbashunosligi va tarixshunosligining o'ziga xos xususiyatlari. O'zbek davlatchiligi tarixining yozma manbalarda aks etishi (Avesto, Bexustun bitiklari, "Temur tuzuklari" va h.k.).Respublikamiz mustaqilligi yillarida davlatchiligimiz tarixiga yangicha yondoshuvlar, konsepsiyasining yaratilishi. Davlatchiligimiz tarixining arxeologik manblarda aks etishi masalasi.

Miloddan avvalgi 1-mingyillikning birinchi choraklariga to'g'ri keladigan «Avesto» kitobi o'zbek davlatchiligini o'rganishda o'ziga xos birlamchi yozma manba hisoblanadi. Mazkur nodir manbaning miloddan avvalgi VIII— VII asrlarga oid qismida ijtimoiy-iktisodiy munosabatlarga bog'liq ma'lumotlarning mujassamlashgani malum. Ular orqali o'sha zamonlarda kechgan ijtimoiy jarayonda davlatchilik ko'rtaklari qanday o'nib borganini ko'rish mumkin.

Gerodot, Ksenofont, Ktesiy, Polibiy, Diodor, Arrian, Strabon, Pliniy, Plutarx, Kursiy Ruf, Pompey Trog va boshqa yunonlik hamda rimlik mualliflar qoldirgan yozma guvohlardan miloddan avvalgi 1-mingyillikning birinchi yarmidan boshlab o'tgan bir necha asrlik davrga oid ko'plab qimmatli ma'lumotlarni uchratdik va ulardan foydalandik.

O'zbek davlatchiligi tarixining dastlabki bir yarim ming yilini yoritishda xitoy manbalarining o'rni katta. Biz bu yerda «Tarixiy guvohliklar» (miloddan avvalgi I asr), «Ulug' Xan xonadoni tarixi» (I asr), «Kichik Xan xonadoni tarixi» (V asr), «Vey xonadoni tarixi» (VI asr), «Shimoliy podsholiklar (Beyshi) tarixi» (VII asr), «Suy xonadoni tarixi» (VII asr), «Txan xonadoni tarixi» (X asr) kabi xitoy tilidagi birlamchi manbalarni nazarda tutyapmiz.

Tadqiqot mavzusi manbalariga biz shuningdek arman, suriyalik, rumlik (Vizantiya) mualliflar asarlarini ham kiritamiz. Ammo davlatchilik tarixini, ayniqsa, o'rta asrlar davrini keng va har tomonlama o'rganish va yoritib borishda turkiy, fors, arab manbalarining o'rni beqiyosdir. Albatta, biz hozir ularning barchasiga birma-bir,

batafsil to'xtalib o'taolmaymiz. Chunki siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy hayot, elchilik aloqalariga oid malumotlarni o'zida jamlagan tarixiy asarlarning soni juda ham ko'p.

Boshqa so'z bilan aytganda, tarixnavislikning rivojlanib borishi va ularda jamiyat hayotining turli yunalishlari bo'yicha ma'lumotlarning aks topishining o'zi yosh o'zbek davlatchiligi boy taraqqiyot yo'liga ega bo'lib kelganini ko'rsatadi. Buning ustiga tadqiqotchining vazifasini ma'lum ma'noda yengilashtiradigan jihatlar ham yo'q emas. Biz, bu yerda o'rta asrlar tarixnavisligidagi sulolaviy tarixlarga bag'ishlangan asarlar silsilasini nazarda tutmoqhamiz. Bu borada Abul Fazl Bayhaqiyning «Tarixi Bayhaqiy», Muhammad ibn Sulaymon Rovandiyning «Rohat as-sudur», Sadriddin Ali Husayniyning «Zubdat at-tavorix», Muhammad ibn Ahmad Nisoviyning «Sirat as-sulton Jaloliddin Mankburni», Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma», Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma», Tojiddin Salmoniyning «Tarixi Toji Salmoniy», Abdurazzoq Samarqandiyning «Matlai sa'dayn va majmai baxrain», Fazlulloh Ro'zbexonning «Mehmonnomayi Buxoro», Xofiz Tanish Buxoriyning «Abdullanoma», Muhammadyor ibn Arab qatag'onning «Musaxxir al-bilod», Maxmud ibn Valining «Bahr al-asror fi manoqib al-axyor», Muhammad Yusuf Munshiyning «Tarixi Muqimxoniy», Muhammad Amin Buxoriyning «Ubaydullanoma», Abdurahmon Davlatning «Tarixi Abul Fayzxoniy», Mulla Vafo Karmanagiy va Olimbekning «Tuxfat al-xoniy», Niyoz Muhammad Ho'qandiyning «Tarixi Shoxruxiy», Axmad Donishning «Risola yo muxtasari az torixi saltanati xonadoni Mang'itiya» kabi asarlari ayniqsa diqqatga sazovordir. Mazkur asarlar orqali muayyan sulola faoliyat ko'rsatgan zamonlardagi ijtimoiy-siyosiy hayot, davlat boshqaruvi, tashqi siyosat masalalari to'g'risidagi tasavvurlarni ixchamlashtirib olish mumkin. Ammo bu mintaqaviy (masalan, «Tarixi Buxoro», «Tarixi Seyiston»), umumtarix (masalan, «Tarixi Tabariy», «Tarixi Ya'qubiy», «Muruj az-zahab», «Tajorib alumam», «Tarixi komil», Majma al-ansob», Zayn al-axbor», «Jome at-tavorix», «Muntaxab at-tavorix», «Xabib as-siyar» va boshqalar) uslubida bitilgan asarlarni kamsitmaydi, albatta. Xar birining o'z o'rne bor. Masalan, sulolaviy tarixlardan Shomiy «Zafarnoma»sida Amir Temur taxt uchun kurash boshlagan yillardan to 1404-yilgacha bo'lgan voqyealar bayoni to'liq berilgan. Ham ichki, ham tashqi siyosat. Unda biz mamlakat, mintaq va dunyodagi jarayonni Amir Temur va temuriylar faoliyati orqali ko'ramiz. Umumtarix uslubidagi «Xabib as-siyar»da esa umuman temuriylar, xususan u Amir Temur faoliyatidan tashqari, misol uchun, kurtlar, sarbadorlarning tarixi va o'z o'rnida ularning, aytaylik, yana o'sha temuriylar xonadoni bilan munosabatini ko'rish mumkin. Natijada bir asar orqali ularni taqqoslash, jarayonni yaxlit ko'rish imqoni tug'iladi.

Ma'lumki, o'rta asrlar tarixnavisligi an'analarga ko'ra siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayot, tashqi aloqalarga oid ma'lumotlar aloxida bir asarda yoki muayyan bir tartibda berilmay, asar uzra sochilgan bo'ladi. Bayon yilma-yil, davrma-davr, yo biron katta voqeya ustida ketarkan, bir yil yoki biron sulola namoyandasi faoliyati bilan bog'liq sharoitda tilga olingan mavzularning barchasi, yo faqat bir-ikkitasi buyicha ma'lumotlar uchrashi mumkin. Bu, albatta, tadqiqotchi ishini mushkullashtiradi. Masalan, saljuqiylar davrini olsak, Rovandiy Sulton Alp Arslonga bag'ishlangan bayonida asosan siyosiy munosabatlarga to'xtaladi. Aksincha, Xusayniy esa Sulton Alp Arslon bobida boshqaruv (vazir, devon, oxur, salor, amil, amid va boshqalar), harbiy tizim (maymana, maysara, lashkarboshi, qalb va boshqalar), etnik, tarixiy geografiya, tashki siyosatga oid ko'plab ma'lumotlar bergan. Bir so'z bilan aytganda, xar bir muallif va asarning imqoniyati har xil. Shuning uchun ham tegishli tasavvurga ega bo'lish uchun har bir manbani boshdan oyoq o'qib, tahlil etish talab qilinadi. Chunonchi, Shohobiddin Nisoviyning asaridagi boblardan birida (85-bob) nafaqa (idror) xaqida shunchaki so'z boradi. Biroq boshqa bir yerda (103-bob) xorazmshoxlarning (anushteginiylar) nafaqa to'lash bilan o'ziga xos an'anasiga ishora qilinadi. U ham bo'lsa, xorazmshoxlarning o'zlarigacha bo'lgan va tayinlangan nafaqalarni bekor qilmasliklari, bu tartibni hatto nafaqani dushmanlari tayinlagan holda ham buzmasliklari to'g'risidagi qimmatli guvohliklardir.

Yuqorida biz bosh mavzuning manbaviy asoslarini iloji boricha kengroq olishga intilganimizni ta'kidlagan edik. Buning sabablaridan biri shundaki, yurtimizda kechgan siyosiy jarayonlar hamma vaqt ham mahalliy manbalarda to'liq aks ettirilmagan. Masalan, XVII asr o'rtalaridagi siyosiy vaziyat Turkistonda bitilgan asarlarda sust sharxlangan. Ular asosida kalava uchini topib olish qiyin. Ayni shu davrda o'zbek davlatchiligida markaz va viloyatlar o'rtasida ziddiyatlar, yirik amirlarning rasmiy sulola ichki ishlariga ta'siri nihoyatda kuchayib, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida ular tutgan mavqye mustaxkamlana boshlagan edi. Biroq, mazkur yillar voqyealari maxalliy manbalarda juda sayoz berilgan. Odatda, tadqiqotchilar bu borada, asosan, Muhammad Yusuf Munshiyning «Muqimxon tarixi»ga suyanib keladilar. Vaxolanki, 1645—1651 yillardagi siyosiy ziddiyat manzarasi Hindistonda boburiylar saroyida bitilgan «Amali Solix», «Silsilot as-salotin» asarlarida batafsil beriladi. Boshqacha qilib aytganda, Hindiston va Eronda yozilgan manbalarni ham sinchiklab urganish davlatchiligimiz taraqqiyot yo'lining u yoki bu bosqichlari, masalalarini yoritishda qo'l kelishi mumkin. Chunonchi, temuriylar siyosiy faoliyatini Xindistonda davom ettirgan boburiylar davrida dunyoga kelgan ko'plab tarixiy asarlarda Turkiston xayotining turli yo'nalishlariga (siyosiy, iqtisodiy, madaniy, elchilik aloqalari va hokazo) tegishli qimmatli ma'lumotlar ko'plab uchraydi. Masalan, Turkiston — Xindiston, Turkiston— Eron elchilik, siyosiy aloqalarini yoritishda Hindiston manbalarining ahamiyati juda katta. Birgina «Silsilot as-salotin» asarida Turkiston podshohlarining Rum (usmoniylar), Eron, Xindiston davlatlari xukmdorlari bilan olib borgan yoziishalarining yigirmata namunasi keltirilgan. Ular orqali biz XVI—XVII asrlarda mintaqadagi geosiyosiy ahvolni

tasavvur qilishimiz, unga baho berishimiz qiyinmas. Yo bo'lmasa, 1206 yili Lohurda yozilgan «Tarixi Muborakshohiy» asarida Turkistondagi boshqaruv, madaniy hayot, e'tiqod masalasiga doir qimmatli ma'lumotlarni uchratamiz.

Ixtiyorimizda to'g'ridan-to'g'ri markaziy va mahalliy boshqaruv, davlat muassasalari, hukmdorlar, hokimlar, umuman, davlat amaldorlariga qo'yiladigan talablar, ularning axloqiy jihatlari ustida so'z yuritadigan tarixiy asarlar mavjudligi quvonchli holdir. Zero, shunday yunalishdagi maxsus adabiyotlarning o'z paytida dunyoga kelgani bizdagi davlatchilik an'analari, ularning muayyan tartiblar asosida qurib kelinganidan dalolat beradi. Masalan, Sharafiddin Ali Yazdiy «Zafarnoma»sida boshqaruv masalalariga alohida to'xtalinmasa-da, ammo asardan bu boradagi guvohliklarni topish mumkin. Chunonchi, Amir Temur davri davlat boshqaruvidagi adliya vazirligi (devoni mazolim) to'g'risidagi ma'lumotni biz aynan **Yazdiydan** topdik. Ammo ijroiya tizimiga aloqador guvohliklarning asosiy qismini esa shu yunalishdagi maxsus asar «Temur tuzuklari»dan oldik. Biroq bu boshqaruv masalalarini tadqiq etishda **sulolaviy, umumtarix, mintaqaviy tarix** uslubidagi asarlarning ahamiyatini kamsitmaydi. Masalan, somoniylar davri boshqaruvidagi devonlar tizimi haqida birdan-bir to'liq ma'lumot faqat Narshaxiyda bor. Davlat ishlari, boshqaruv tizimi bilan borliq qarashlar mujassamlashgan asarlarning bizga ma'lumlaridan eng qadimgilari IX—X asrlarga borib taqaldi. Biz bu yerda Abu Nasr Forobiyning (873—950) «Fozil shahar, joxil shahar, buzuq shahar (adashgan shahar) haqida kitob», «Fozil shahar ahlining boshlang'ich qarashlari Xaqida», «Shaharni o'rganish xaqida kitob», «Mimat (xalq) va shaharni boshqarish huquqlari to'g'risida so'z», «Askarlarni boshqarish haqida so'z», «Shahar jamoalari haqida kitob», «Umumiy boshqarish (siyosat) kitobi» kabi asarlarni nazarda tutmoqhamiz. Chunonchi, Abu Nasr Forobiy shahar xokimiga talablarni shunday belgilagan: «hokim sog'-salomat, farosatli, o'tkir xotirali, zukko, notiq, bilimga chanqoq, barcha narsada nafsini tiya oladigan, xaqiqatparvar, nafsoniyatli, molparast bo'lmaslik, adolatparvar, qat'iy va jasur bo'lishi lozim».

Koraxoniylar saroyida xizmat qilgan Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarida ham amaldorlarga shunday talablar qo'yilganini ko'ramiz. Chunonchi, muallif vazir aql, ilmi, dovyurak, imonli, ko'zi to'q, hisob kitobni puxta egallagan bo'lishi kerak, shundagina undan elga naf tegadi, deb xisoblagan. Yusuf Xos Xojib shuningdek, podshoxlar, lashkarboshilar, elchilar, olimlar, dehonlar, savdo ahli to'g'risida, ularning jamiyatdagi o'rni xususida ham qimmatli fikrlarni qoldirgan.

Mazkur yunalishdagi asarlar sirasiga Unsur Maoliyning «Qobusnoma» (XI asr), Nizomul mulkning «Siyosatnoma», «Dastur al-vo'zaro», «Qonun al-muluk» (XI), G'azzaloyning «Nasihah al-muluk» (XI), Amir Temurning «Temur tuzuklari» (XIV), Hamdullox Mustavfiyning «No'z'at al-qulub» (XIV), Ro'zboxon Buxoriyning «Suluk al-muluk», Xonhamirning «Dastur al-vuzaro», «Qonuni Xumoyuniy», Qozi Ixtiyoriddin Turbatiyning «Axloqi Xumoyuniy», Hasan munshiy Xoqiniyning «Axloqi Hakimiy», Abul Fazl Allomiyning «Oyini Akbariy» (XVI), *Muhammad Boqirxonning «Muavaziy Jahongiriy»* (XVI | *Mirza* Badi devonning «Majma' al-arqom» (XVIII), Axmad

Donishning «Navodir al-vaqoye» (XIX) asarlarini ham kiritamiz. Mazkur manbalar bilan tanishish jarayonida davlat, davlatchilik, jamiyat boshqaruvi to'g'risida qarashlar bizda aytaylik, hammaning og'ziga tushgan Nikkolo Makiavellining (1469—1527) bu boradagi qarashlaridan ancha oldin ilmiy-nazariy shakl olganining guvohi bo'lamiz. To'g'ri, ularda ham xuddi o'sha yevropaliklarda bo'lganidek, o'z zamonasi tartiblari, taraqqiyot darajasi, tafakkurining xos ko'rinishlari, ta'siri bor. Busiz mumkin emas. Ammo, eng muhimi, shunday qarashlar an'anasi bo'lgan, ijtimoiy fikrning boshqa sohalari qatori o'z yo'nalishiga ega tarzda rivojlanib borgan. Shu ma'noda davlat va uning timsoli bo'lmish xukmdorga quyilgan talablar, hukumatning jamiyat oldidagi majburiyatlari xususidagi tasavvur va qarashlar diqqatni tortmay qolmaydi. Masalan, Nizomul mulk bunday yozgan: «Xukmdor dunyoni obod etish bilan mashg'ul bo'lmoq lozimki, korizlar chiqarish, barcha foydalanishi uchun ariqlar qazdirishdan (tortib), katta daryolar ustiga ko'priklar qurish, qishloqlar va ekinzorlarni obod kilish, qal'alar tiklash, yangi shaharlar bunyod etish, oliy imoratlar ko'tarish va uy-joylar barpo qilishgacha (ishlarni) o'rniga qo'ysin. Katta yo'llar uzra rabotlar qurdirsin, ilm talabgorlari uchun madrasalar soldirsinkim, (ular) uning nomini abadiy qilgusidir va bu ezgu ishlarning savobi narigi dunyoda unga, (albatta), teggusidir, xayr duosi (uning nomiga) hyech to'xtamagay». Boshqacha qilib aytganda, jamiyatdagi tartiblar, ijtimoiy adolat masalasi xukmdor, davlat faoliyati orqali o'rnatilishi fikri oldinga surilgan. Zero, «Xudoyi taolo har bir zamonda xalq orasidan bir kishini tanlab, uni podshohlik xunarleri ila orasta kilib, mazhur etgay... toat yo'lidan yuruvchi raiyyat ersa o'z yumushlari bilan mashg'ul bo'lg'ay. Podshox, (ularni) zulmdan osuda saqlagaykim, to ularning adolat soyasida rahotda hayot kechirsinar». Ko'rinib turganidek, o'rta asrlarga xos ravishda adolatni podshohdan kutish, adolatli hukmdor siymosi mavzusi Nizomul mulk qarashlarida o'z aksini topgan, amalda ham shunday bo'lib kelgan. Demokratik, ya'ni xalq, xokimiyati shakllangan davrda yashab turib salkam ming yil burungi qarashlarni tanqid va tahlil qilish oson. Ularga tabiiylik ko'zi bilan qarash kerak. Davlatchiligimizdagi demokratik bosqichga yetib kelgunimizga qadar kechgan taraqqiyot yulimiz bosqichlari o'rnida qabul qilishimiz lozim.

Xukmdorlik Yaratgan tomonidan yuqtirilishi fikrini biz «Temur tuzuklari»dan ham topamiz. Chunonchi, unda shunday deyiladi: «Tangri taolo har yuz yilda Muhammad, unga tangrining marhamatlari va salomlari bo'lsin, diniga rivoj berish va (uni) yangilash uchun bir kishini islom dinining yoyuvchisi va yangilovchisi sifatida ixtiyor etadi. Bu sakkizinchi yuz yilliqaa (ya'ni XIV asrda — A. 3.) Amir Sohirqiron islom dinini jahon ahliga tarqatdi». Ammo «Temur Tuzuklari»ning davlat va jamiyat boshqaruvi to'g'risidagi qarashlarning sifatiiy rivojida tutgan alohida o'rni bor. U ham bo'lsa, asarda davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni huquqiy asosda qurish rejasi keng targ'ib qilinishidan bilinadi. «Bu Tuzuklarni, — deb yozadi muallif, — saltanat ishlarini boshqarishda qo'llanma sifatida foydalangaylar... ular ham ushbu tuzukka amal qilsinar». Diqqatga sazovor tomoni shundaki, davlatchiligimiz tarixida davlat boshqaruvi haqida asar yozib qoldirgan yagona

hukmdor Amir Temur hisoblanadi. Umuman olganda, bu dunyo xalqlari o'tmish tarixida kamdan-kam uchraydigan xoldir. O'zbek davlatchiligining Amir Temur va temuriylar boshqargan davrini tashkil qilishda, davlat boshqaruv tizimining tarixiy taraqqiyot yo'lining o'ziga xos tomonlarini aniqlashda «Temur tuzuklari» bizga nihoyat qo'l keldi. Masalan, Nizomul mulkning yuqorida keltirilgan «toat yo'lidan yuruvchi raiyyat» tushunchasiga qarshi ularoq, Amir Temur jamiyatning biron tabaqasini ajratmaydi. Garchi o'z zamonasi tartiblariga mos ravishda u jamiyatni o'n ikki toifaga taqsimlasada ammo mohiyat e'tibori bilan mazkur o'n ikki toifaga barcha ijtimoiy guruhlar kirgan. «Saltanatim martabasi bo'lmish turo-tuzuklar va qonun-qoidalami ham shu» o'n ikki toifaga bog'lab tuzdim, — deb ta'kidlagandi Amir Temur. Etibor bering, Tuzuklar, qonunlar toifalarga moslashtirilgan, aksincha emas. Umuman olganda, jamiyatni qonunlar asosida boshqarish madaniyati bizda eng qadimgi davrlardan shakllanib kelgani haqida tarixiy guvohliklar yetarli. Chunonchi, xitoy tilida bitilgan tarixiy asarlardan «Beyshi»da (VI asrga tegishli) yurtimizdagi bu boradagi simvol xaqida shunday malumotlar bor: «Ularda ibodatxonada saqlanadigan turkiy tuzuklar to'plami bor. (Biron jinoyatchiga) jazoni belgilashda mazkur tuzuklar (to'plamini) olib, (unga suyangan holda) hukm chiqaradilar». Ya'ni qilingan jinoyat uchun jazoni biron-bir shaxs emas, balki muayyan xuquqiy me'yorlar belgilagan va u hamma uchun barobar kuchga ega bo'lgan. Ulkamizga islom dini kirib kelishi munosabati bilan jamiyat xuquqiy xayotida yangi hukmron mafkura asoslari bilan bog'liq muayyan o'zgarishlar ruy bergani shubhasiz. Ammo dastlabki yillardanoq, usuliy ziddiyatlar bo'lmagan hollarda islom mahalliy xuquqiy me'yorlarga qarshi chiqmagan, ular saqlangan. Shu o'rinda bir gapni aytmasdan iloj yuq. Mamlakatimizda islom dini qaror topgandan keyingi davrlardagi taraqqiyotning ba'zi yunalishlarini islom tushunchasi bilan bog'lash odati bor. Masalan, islom madaniyati, musulmon qonunchiligi, degan gaplar. Mazkur tushunchalarga e'tiqodi islom bo'lgan xalq madaniyati, jamiyat qonunchiligi nuqtai nazaridan yondashish mumkun, albatta. Ammo ba'zan uchrab turadigan xolatlar, chunonchi, madaniy rivoj belgisi sifatida dinni asos qilib olish xaqiqatga to'g'ri kelmaydi. Zero, Turkistonda madaniyat, qonunchilik islomga qadar o'z yulida rivoj topib kelgan va bu o'ziga xoslik VII asrdan keyin ham moxiyatan o'zgarish topgani yo'q. Qonunchilik borasida Turkistonda qadimiy tarixiy an'analar bo'lgan. Islom davriga kelib bu ananalar yangi mafkuraviy rivoj bosqichida kechib bordi, *xolos*. Mustahkam tarixiy ildizga ega bo'lgani uchun ham Turkistonlik qonunshunoslar (faqixlar) *faoliyati tamomila musulmon dunyosida tan olingan*. X—XI asrlardan yuksalish yo'liga kirgan «Movarounnahr fiqh (*qonunshunoslik*) maktabi ta'sirida Suriya, Misr, *Kichik Osiyo va boshqa musulmon mamlakatlarida shu maktab tarafdorlari markazlari yuzaga kelgani*» ma'lum. Shu ma'noda davlatchilik mavzusini tadqiq etishda turkistonlik qonunshunos olimlarning o'tmishda yaratgan qator asarlari qimmatli manba bo'lishini alohida ta'kidlagan bo'lardik. Birgina Burhoniddin Marg'inoniyning (vafoti 1197 yil) «*Xidoya*» asarida jamiyatning o'sha kezlardagi huquqiy kafolotlari ko'z o'ngimizda gavdalantiradigan qanchadan-qancha ma'lumotlar bor. Chunonchi, bu asarda xuquqiy.



axloqiy me'yorlar, oila va nikohning huquqiy asoslari, davlat va huquq qurilishi, jinoiy javobgarlik, mulkchilikning xuquqiy kafolatlari doiralariga oid qarorlar, ajrimlar, sharhlar (zakot, nikoh, talon;, o'g'irlik, jazo, vaqf, sudxo'rlik, qozilarning vazifalari, guvohik berish, da'vogarlik, mulkchilik, meros, ijara, shaxs daxlsizligi va hokazo) aniq va lo'nda bayon qilingan. Shuning uchun ham mazkur asar musulmon dunyosida, ayniqsa, Xindiston va Kichik Osiyoda o'z vaqtida katta obro'-e'tibor qozonib, amaliy istifodada bo'lgan. Qonunshunos olimlarimiz faoliyati keyingi asrlarda ham hech bir susaymagani aniq. Bunga xozirda o'zimizda va chet el kutubxonalari, jamg'armalarida saqlanayotgan fiqhga oid yuzlab asarlar dalildir<sup>3</sup>. Biz tanlagan mavzu uchun ularning ahamiyati shundaki, xuquqiy davlat, xuquqiy jamiyat tushunchasi O'zbekistonga chetdan kirib kelmaganini, hayotni huquqiy asoslarda tashkil qilish bizga ajdodlardan qolgan madaniy meros ekanligini amalda ko'rsata olamiz.

Xullas, ko'rib o'tganimizdek, mavzuning manbaviy asoslari keng. Davlatchiligimiz tarixini yoritish uchun turli tillarda bitilgan tarixiy asarlarning soni ko'p. Ularda jamlangan xujjatlar, materiallar o'zbek davlatchiligi qadimiy tarix va o'zoq taraqqiyot yuliga ega ekanligini ilmiy ravishda isbotlaydi. Yuqorida sovet tarixshunosligi nima bo'lganda *ham* umuman mintaqamizda davlatchilik an'analari bo'lganini baribir inkor qilolmaganini aytib o'tgan edik. Xaqiqatdan ham shunday. Chunki bor narsani butunlay yashirish qiyin. Shuning uchun ham sovet tarixchilari mavzuni bir butun jarayon, o'zbek *xalqi nomi bilan* bog'lagan holda emas, sinfiylik nuqtai *nazaridan* yoritishga uringanlar. Jamiyatning *qonunlar asosida, muayyan* tizimlar doirasida boshqarilgani masalasi *umuman* ochib berilmagan. Davlatimizni u yoki bu *davrda boshqarganlarga* «zolim, xukmron sinf manfaatlarining *himoyachisi, bosqinchi*», degan tamg'alar urilgan. *Asrlar* davomida olib borilgan bunyodkorlik ishlarida *davlatning o'rni beqiyos* bo'lganligini bilib turib, *davlatchiligimiz* an'analari yerga urish, o'tmish xukmdorlarini kamsitish yo'li tutilgan, tarixiy haqiqat *ochilmagan*. Maqsad bitta — socialistik tuzum va *davlatchilikning* afzalligini ko'rsatish, tarixni kommunistik mafkura targ'ibotchisiga aylantirish. Shu *sababdan ham* biz sovet ilmiy adabiyoti namunalari<sup>1</sup> *tanqidiy* ko'z bilan qarab, ayni chog'da ilmiy xolislikni *saqlashga harakat* qilmog'imiz lozim.

1991 yili O'zbekistonda davlat mustaqilligining qayta tiklanishi va uning keyingi yillarda mustahkamlanib, zamonga mos ravishda shakllanib borishi jarayonini yoritishga kelsak, bu yerda manbaviy ta'minlanganlik, voqyealarni shaxsan mushohada qilishda biron-bir jiddiy qiyinchilik yo'q. Zero, bir tomondan, bugungi tadqiqotchi mazkur yillarning jonli guvohi bo'lsa, ikkinchi tomondan, davlatchiligimizning qayta shakllanishi jarayoni ommaviy axborot vositalari, Oliy Majlis axborotnomlari, turli rasmiy hujjatlar to'plamlari, bir qator ilmiy, ilmiy-ommabop ishlarda o'z aksini topgan. Uchinchidan esa, XX asrning 90-yillaridagi o'zbek davlatchiligining ahvoli, uning oldida turgan vazifalar, davlatning jamiyatdagi rolini to'laqonli tasavvur qilishda *katta qimmatga ega* bo'lgan yana bir manba bor. U ham bo'lsa, mustaqil O'zbekiston davlatining birinchi Prezidenti Islom Karimovning ijtimoiy-siyosiy karashlarini o'z ichiga olgan ma'ruzalar, suhbatlar, risolalar, asar<sup>lardir</sup>.

Tadqiqotchi uchun Islom Karimovning ijtimoiy-siyosiy qarashlari uch jihatdan qiziq va muximki, **birinchidan**, Islom Karimov O'zbekistonni mustaqillikka olib keldi, keyingi taraqqiyot yo'lining asosiy yunalishlarini belgilab berdi. **Ikkinchidan**, hohlaymizmi yo yo'qmi, bundan qat'i nazar, ming yillar davomida birinchi raxbar, davlat boshlig'ining roli katta bo'lib kelgan jamiyatimizning ushbu yillardagi taqdiri ko'p jihatdan Prezidentning dunyoqarashi, salohiyati va faoliyatiga bog'liq edi. **Uchinchidan** esa, faqat «sovet» tuzumigina tarixdagi shaxsning rolini inkor qilib keldi. Qolgan barcha davrlarda bu omil hech qachon nazardan chetda qolmagan. Shu ma'noda bir tuzumdan ikkinchisiga o'tish bosqichida har qanday jamiyat uchun tarixiy shaxs, milliy yetakchining ahamiyati, uning ijtimoiy-siyosiy qarashlari benazir bo'lishi shubhasiz.

Islom Karimov faoliyatining o'zbek davlatchiligi uchun yana bir muhim tomoni bor. U ham bo'lsa, uning o'zbek davlatining tarixi, bugungi xolati, kelajagi to'g'risida qarashlaridir. Bu borada, ayniqsa, Islom Karimovning «**O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari**» asari diqqatga sazovordir. Asarning o'zbek davlatchiligi bilan bog'liq uchta eng asosiy jihatiga e'tiborni jalb qilsak. **Birinchidan**, asar o'zbek davlatchiligining 2700 yil bo'lib kelgan qonuniyatlar, omillarni, ularning ijobiy yo salbiy ahamiyat kasb etganligidan qat'i nazar, bir tizimga solingan taxlilidir. Chunonchi, mintaqaviy mojarolar, din va davlat, millatlararo munosabatlar, jinoyatchilik, mahalliychilik, ypyg'-aymoqchilik kabi omillar o'z zamonasiga qarab shaklan o'zgarib turgan bo'lsa-da, ammo mohiyat e'tibori bilan olganda davlat qurilishini jamiyat xayotida o'z o'rniga ega bo'lib kelgan. Ammo ajdodlarimizning ijtimoiy-siyosiy qarashlarida mazkur omillarning davlat va jamiyat qurilishidagi ta'siri tadqiq qilinmagan. Natijada muammo muammoligicha qolavergan. Har bir yangi avlod unga to'qnash kelavergan. Masalan, mahalliychilik va mintaqaviy mojarolar. Mohiyatan ayni shu ikki omil XVII—XVIII asrlarda davlatimizning uchga (Buxoro amirligi, Xiva va Kuqon xonliklari) bo'linib, XIX asrda esa Rossiya mustamlakasiga aylanishiga sabablardan biri bo'lganligi sir emas. Yo bo'lmasa, yana bir tarixiy muammo—davlat qudratini oshirib borish, erishilgan marralarni saqlash an'anasining shakllanmaganligi. Tan olish kerak, o'tmishda bir necha martalab ulkan saltanatlarga asos solingani, ilm-fan, madaniyat sohalarida tarixiy va o'z davri uchun olamshumul yutuqlarni qo'lga kiritishimizga karamay pirovardida yuksalishni yana boshdan boshlashimizga to'g'ri kelgan. Islom Karimov asarining ikkinchi bobi esa to'laligicha aynan ushbu tarixiy masala tahliliga qaratilgan. Unda ilk bor davlatchilikni shakllantirish, mustahkamlash va mazkur jarayonda mafkura, ma'naviyat, davlat institutlari, iqtisodiyot, insoniy, tabiiy resurslarning o'rnini, xalqaro munosabatlarning ta'siri, tashqi dunyo bilan hamkorlik kabi omillar muayyan bir ketma-ketliqqa va, demak, o'zaro bog'liqlikda tahlil qilingan. **Ikkinchidan**, o'tmishda amalda bo'lgan ijtimoiy qarashlarga ko'ra davlat qudrati, jamiyat holati, asosan, hukmron sulola, yakka hukmdor faoliyatiga bog'liq bo'lgan. Chunonchi, ohamlarning ongida davlat—taxt xukmdorga Yaratgan tomonidan ato qilingandir, degan fikr qat'iy o'rnashgan edi. Yakka xukmdorlik



asosida kurilgan ijtimoiy-siyosiy tuzum uchun har holda tabiiy bo'lgan mazkur aqida so'nggi asrlarda ham hech bir o'zgarish topmagan. Vaholanki, ushbu davrda dunyoning boshqa qismlarida, xususan, G'arbda jamiyat va davlat hayotini tashkil qilishda «quyi» tabaqalarning ham o'z o'rnini va huquqi borligi bilan bog'liq qarashlar izchil rivojlana boshlagan. Bir so'z bilan aytganda, davlat taraqqiyotini ta'minlashda jamiyatda mavjud barcha imkoniyatlardan foydalanish, ularni safarbar qilish ilmi biz uchun endi an'anaga aylanmoqda. Islom Karimovning zikr etilgan asari aynan mazkur talab asosida yaratilgan birinchi salmikli qadamdir. **Uchinchi**dan, asarda o'zbek davlatchiligi tarixi taraqqiyotiga xos bo'lgan, ammo honuzgacha ta'riflanmagan bir muhim qonuniyat ochib berilgan. U ham bo'lsa, «Tarixiy nuqtai nazardan olganda, Markaziy Osiyo davlatni milliylik belgisiga qarab tashkil etish ananalariga ega emas edi. Rossiya tomonidai mustamlaka qilib olinguncha mavjud bo'lgan hamma davlatlarasosan sulolaviy yoki hududiy (Buxoro, Qo'qon, Xiva xonliklari) prinsiplar bo'yicha tashkil etilar edi». Ya'ni davlat millat nomi bilan atalmagan. Demak, 1991 yili davlat mustaqilligimiz qayta tiklanishining tarixiy ahamiyatlaridan biri aynan mazkur omilning yuzaga chiqishi bilan bog'liqshu sanadan boshlab davlatimiz millatimiz nomida rivojlanish yo'liga kirdi.

Davlatchilik tarixi mavzusi xaqida so'z ketganda Islom Karimovning o'zbek davlatchiligi tarixining obro'-e'tiborini o'z o'rniga qo'yishda, uni yuzaga chiqarish bilan bog'liq tadbirlarni amalga oshirishdagi xizmatlarini alohida ta'kidlash zarur. Chunonchi, 1997 yili Xiva shaxrining 2500 yilligini nishonlash kunida Islom Karimov o'zbek davlatchiligi 2700 yillik tarixga ega ekanligini butun dunyoga rasman e'lon qilgan birinchi olim va milliy rahbar bo'ldi. Bu bilan davlatchiligimizning tarixiy ibtidosi masalasiga uzil-kesil ravshanlik kiritildi. Bundan tashqari, Islom Karimov umuman o'zbek xalqi tarixini, xususan, davlatchilik tarixini o'rganishning asosiy masalalariga bag'ishlangan «**Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q**» nomli aloxida asarning<sup>2</sup> ham muallifidir. Mazkur risolada o'zbek davlatchiligi xususida, jumladan, shunday savol quyilgan: «O'zbek davlatchiligi qaysi asrda paydo bo'lgan? Qanday tarixiy bosqichlarni bosib o'tdi? Mutaxassislar, balki, tushuntirib berarlar, balki, aniq javoblari bordir. Ushbu savollar mutaxassislar oldiga kattadan-katta vazifalarni qo'yishi tabiiy. Zero, davlatchiligimizning ko'p ming yillik taraqqiyot yo'lini o'rganish bugungi kunda eng dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri bo'lib kelmoqda.

**2-mavzu: O'zbekistonda antropogenez jarayoni va vatanimiz odamzod ilk bor paydo bo'lgan mintaqalardan biri ekanligi masalasi.**

**( amaliy 2 soat)**

**REJA:**

- 4. Umum tarix fanida antropogenez masalasi, nazariyalar**
- 5. Vatanimiz sarhadlari Dunyo miqyosida antropogenez jarayoni sodir bo'lgan mintaqalardan biri ekanligi masalasi.**
- 6. "Farg'ona odami", "Obirahmat odami", "neondertal bolasi".**

Hozirgi kunda umum tarix fanida antropogenez masalasi borasida yangi antropologik topilmalar, antropogenez masalasi monosentrizm, polisentrizm nazariyalari, "Farg'ona odami", "Obirahmat odami", "neondertal bolasi".

Kishilik tarixi taraqqiyoti ilk bosqichlarini ibtidoiy jamoa tuzumi davri tashkil etadi. Ibtidoiy jamiyat insoniyat tarixining eng ko'p davom etgan va uzoq ming yilliklarni o'z ichiga olgan davr hisoblanadi. Bu davr jamoalari moddiy madaniyatini, tarixini o'rganishda odamzodning kelib chiqishi antropogenez jarayoni dolzarb masala sanaladi. Mexnat quollarining ixtiro qilinishi bilan kishilik tarixi boshlandi va dastlabki madaniyatga asos solingan.

Xozirgi kun jaxon fanida odamzodning paydo bo'lishi va uning ilk vatani masalasi eng dolzarb masala bo'lib, bu borada mutaxassis olimlar turli ilmiy qarashlarni ilgari surishmoqdalar. Ularning ko'pchiligi monosentrizm – ya'ni yer sharida odamzod bir mintaqada paydo bo'lib, asta- sekin qo'shni xududlarga tarqalgan deb xisoblashadilar. Bir qism mutaxassislar polesentrizm – ya'ni odamzod yer sharining turli mintaqalarida paydo bo'lgan degan ilmiy qarashning tarafdorlari bo'lib xisoblanadilar. So'nggi tadqiqotlar natijasida odamzodning ilk Vatani Afrika va Osiyo qit'asi ekanligini ko'rsatmoqda.Xususlan, L.Likining Oldovay darasidan eng qadimgi odamsimon mavjudot qoldiqlarini topilishi va shu topilma asosida odamzod paydo bo'lishini bundan 3- 3,5 m.l.n yil oldin sodir bo'lganligini belgilanishi o'lamshumul ahamiyatga ega bo'ldi.

Odamzodning kelib chiqishi va tadrijiy rivojlanishi bilan odamzod kishilik tarixi qadimgi bosqichlaridanoq qiziqib kelmoqda. Hozirgi ilmiy mulohazalarga ko'ra, tadrijiy rivojlanish mahsuli bo'lgan odamzod bir necha million yillar muqaddam odamsimon maymunlardan vujudga kelgan. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, odamzodning dastlabki «vatani» to'g'risida ham qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Bu haqda turli ilmiy qarashlar, nazariyalar mavjud. Shu sohada amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlar bayoni masalasiga kelganimizda Osiyo, Afrika qit'alarida bajarilgan tadqiqotlar sermahsul bo'lgan. Masalan, 1893 yildayoq golland olimi E.Dyubua Yava orolida darvinchi E.Gekkel bashorat qilgan odam bilan odamsimon maymun o'rtasida bog'lovchi bo'g'in hisoblangan Homo erektus (tik yuruvchi odam) nomini olgan pitekantrop-«maymun odam» ni topgan. Yoshi 1,7 mln bo'lgan bunday yoshdagi odam qoldiqlari keyinroq Xitoyda, Janubiy-Sharqiy Osiyoning boshqa mintaqalarida topildi. Yer sharining Markaziy Osiyo qismi

quruqligi uchlamchi davrda ko'tarilishi bilan tropik o'rmonlar yo'qolgan, maymunlar esa yerga tushishgan va shu tariqa Darvin nazariyasi bo'yicha odamlar shakllangan.

XX asrda masala yanada ravshanlasha boshladi: 20-30-yillarda odamsimon maymunga yaqin gominidlar Janubiy va Sharqiy Afrika hududlaridan topildi. Hozirgi vaqtda soha tadqiqotchilari ichida odamzod asli Afrikadan kelib chiqqanligi masalasini qo'llovchilar mavjud. Ularning fikricha Odamzod vujudga kelishining taxminiy markazi O'lik dengiz cho'kmasidan Qizil dengiz, Efiopiya, Keniya va Tanzaniya orqali meridional yo'nalishda cho'zilgan. Qadimgi gominidlar ham shu joylardan topilgan. Eng qadimgi odam yashagan izlar Efiopiyaning Kada Gona daryosi havzasida aniqlangan. Tadqiqotlarda bundan ikki million yil muqaddam odam, chamasi Homo erectus yoki Homo ergaster (ya'ni mehnat qiladigan, garchi arxaik anatomik qiyofada bo'lsa-da, lekin hozirgi odamga ancha yaqinroq bo'lgan odam) Afrika hududlaridan ulkan Yevrosiyo hududi tomon siljiganligi haqida ma'lumotlar qo'lga kiritilgan. Bu jarayonni ular to'g'ridan-to'g'ri ko'chib o'tish deb tushunmaslik lozim, balki bu uzoq va tadrijiy ravishda turli yerlarga aholining tabiiy, iqlimiy, ekologik sharoit nuqtai nazaridan o'rnashish jarayoni ham bo'lishi mumkin. Mazkur sharq tomon ko'chish to'lqinida ikki asosiy yo'nalish- janubiy va shimoliy yo'nalishni ajratish mumkinki, bunga sabab ular Himolay va Tibet singari tog'lar bilan tabiiy bo'linganligi bo'lishi mumkin. Janubiy yo'nalishga kelganda, Arabiston yarim oroli va Pokistonda (2 million yillik munozarali yosh) ilk g'or topilmalarini hamda sanasi 1 million yil bo'lgan Janubi- Sharqiy va Sharqiy Osiyodagi mashhur Homo erectus topilmalarni esga olish zarur. Pokiston hududidagi lyoss kesmalarida bundan 800 ming yil muqaddam qadimgi odam yashaganligini isbotlovchi tosh qurollar topilgan.

Ma'lumki, gominidlarning eng kadingilari avstralopiteklar «insoniyatning beshigi», deb ataladigan Afrika qit'asida paydo bo'lgan. Yaqin kunlargacha ularning vatani Sharqiy Afrika xisoblanardi. Biroq Chad xududlaridan topilgan va 7 mln. yillar bilan sanalangan yangi topilmalar qadimgi avstralopiteklarning dastlab Markaziy Afrika xududlaridan kelib chiqqanligini ko'rsatmoqda. Avstralopiteklarning bazi turlari er. av. 1 mln. yillargacha yashaganlar.

Gominidlarning navbatdagi tipi xomo xabilislar ham Afrikada bundan 2,5 mln. yillar muqaddam paydo bo'ldi. Aynan ular dastlabki mehnat qurollarini yasagan odamning o'tmishdoshlari hisoblanadi. Yuqorida tilga olingan dastlabki gominidlarning har ikkala tiplari ham Afrika qit'asini tark etmaganlar.

So'ngra, bundan 2 mln. yillar ilgari, yana o'sha Eski Dunyoda gominidlarning yangi fizik tipi xomo ergasterlar paydo bo'lib, ushbu tip birinchi marta Yaqin Sharq orqali Yevrosiyo materigiga ilk qadam qo'ygan o'tmishdoshimiz hisoblanadi. Uning qoldiqlari Gruziyaning Dmanissi degan joyidan topilgan va 1,81 mln. yillar bilan sanalangan. Bu hozirgacha Yevrosiyo materigida ma'lum bo'lgan eng qadimgi topilmadir.

Bundan 1,5 mln. yillar muqaddam gominidlarning yana bir yangi jismoniy tili xomo yerektuslar Afrika va Yevrosiyoda keng tarqalgan. Yevrosiyoda ularning eng

qadimgi qoldiqlari. 1 mln. yillar atrofida bilan sanalanib, er. avv. 100 000 yillargacha yashab kelgan. Xomo yerektuslar qoldiqlarining fanda eng mashxurlariga Xitoyda Sinantrop, Yava orolida Pitekanthrop, Ozarbayjondagi Azix gori topilmalari, Fransiyadagi Tutavel odami qoldiqlari, Ispaniyadaga Atapuerka, Italiyadata Izerniya, Gresiyadagi Petralona materiallarini kiritish mumkin.

Hozirgi kunda odamzodning turli yerlarga o'tib o'rnashishining boshqa-shimoliy «to'lqini» haqida ham tadqiqotlarda ma'lumotlar paydo bo'ldi. Bu borada ma'lumotlar Ozarboyjon, Qorabog' pasttekisligida tadqiq etilgan g'or makonlaridan qo'lga kiritilgan. Gruziyada, Tbilisi shahridan atigi 60 kilometr masofada so'nggi 10 yil mobaynida g'aroyib paleoantropologik majmualar- qadimgi odamning bosh suyagi va jag' suyaklari( yoshi 1,6-1,7 million yil bo'lgan mayda tosh qurollar bilan birga) topildi.

Hozirgi vaqtda qadimgi odamning Yevropaga kirib kelishining uchta ehtimoliy yo'nalishi ma'lum: Gibraltar orqali, Turkiya orqali hamda G'arbiy Kaspiy orqali.

Qadimgi gominidlarning G'arbiy Kaspiy, keyin shimol tomonga Shimoliy Kavkaz orqali kirib borishi, umuman, Yevropaga aholi joylasha boshlashining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan. Shimoliy Kavkaz, Stavropol o'lkasi, Kabarda-Balkar va Maxachkalada aniqlangan ilk antropologik topilmalar bunga dalildir.

Qadimgi gominidlar sharqqa – Eron orqali yevroosiyo materigining yuragi tomon harakatlanganini ko'ramiz. Keyingi yillar mobaynida bu borada Rossiya arxeologiya ekspeditsiyasining amalga oshirgan tadqiqotlarining natijalari muhim hisoblanadi. Qozog'iston va O'rta Osiyo sarhadlaridan ko'plab qadimgi gominidlar madaniyati izlari topilgan. Xususan, Qozog'istonda Qiziltov (Kichik Qoratog' tizmasida) va Mang'ishloq yarim orolida shu kabi qadimiy manzilgohlar topildi. Oltoy manzilgohi, «Denis g'ori» kabilar ham shular jumlasidan hisoblanadi (uning yoshi kamida 550-700 ming yil). Tadqiqotlar ko'rsatishicha, Afrika hududlarida 1,2 million yil muqaddam ancha takomillashgan texnika usullarida mehnat qurollari tayyorlash xos bo'lgan ashel madaniyati vujudga kelgan.

Keyingi yillar tadqiqotlari bundan 450-350 ming yil muqaddam Yaqin Sharqdan quyi ashel madaniyati bilan bog'liq va hisob bo'yicha ikkinchi migrasiya to'lqini tarqala boshlaganligini ko'rsatdi. Bu migrasiya to Hindistonga qadar yetgan. Bu moddiy madaniyat asosini qo'l cho'qmorlari va bifas-paykonlar tashkil etgan. Qo'l rubilalari yoki bifaslar- Afrikada keng tarqalgan, chekkalari o'tkir ikki tomonlama qo'llaniladigan universal asboblar ashel madaniyatiga xos tipik qurollar bo'lgan. Xudi shunday tosh qurollar Anuy daryo vodiysida, bevosita Denis g'oridan topilgan. Tog'li Oltoy topilmalarining noyobligi shundaki, ular maqbul strukturalari yotqiziqlarning bir necha metrli qatlamiga ega. Bu yotqiziqlar tosh qurollar yasashning uzoq rivojlanish jarayoni haqida to'liq ma'lumot olish imkonini beradi. Mongoliyada 1987 yilda ochilgan Sagan-Aguy g'ori yotqiziqlaridan qadimgi odamlar 200 ming yil davomida ishlatgan

ajoyib qurol- yarog' to'plami topildi. 1995 yila esa Mongoliya yana bir kashfiyotni - ochiq turdagi noyob chaqmoqtosh manzilgohini taqdim etdi. Bu yerda Janubiy Gobi sahrosida yirik chaqmoq toshlari chiqib turgan makoni ochildi.

Agar olimlar odamning dastlabki kelib chiqqan ilk vatani Afrika ekani haqida yagona fikrga kelgan bo'lishsa, Homosapienssapiens haqida hanuz bir fikrga kelinmagan, mavjud fikrlar xilma-xil. Shulardan birinchisi- yana Afrika, zero aynan ana shu qit'aning janubi sharqida nafaqat qazilma gominidlar va ung yaqin odamsimon mavjudotlar, antropologik topilmalar topilgan. Ikkinchi fikrga ko'ra, odamning tadrijiy rivojlanishi anchagina quyi bosqichlarda u qadar mushtarak xususiyatga ega bo'lmagan. Hozirgi tipdagi aqlli odam shunchaki Afrikada paydo bo'lib, keyin butun yer kurrasi bo'ylab joylashmagan. U anchagina kengroq hududda, go'yoki sayyoramizning turli geografik mintaqalarida yashagan qadimgi odamlar negizida shakllangan deb aytishga barcha asoslar bor. Bu polisentrizm nazariyasi tarafdorlarining ilmiy qarashlari hisoblanadi. Ko'pgina zamonaviy antropologlar va arxeologlar odam tadrijiy rivojlanishi shunda multimintaqaviy xususiyatga ega degan fikr tarafdoridir, bu tasodifiy emas. Ularning ishonchi, jumladan ko'p qatlamli manzilgohdan aniqlangan topilmalarga asoslanadi, bunday manzilgohlarda taxi buzilmagan paydar-pay paleolit qatlamlar mavjudligi bois madaniyatlarni – ancha qiyin tadrijiy bosqichdagi qadimgi odamdan hozirgi zamon tipidagi odamga o'tishini kuzatish imkoniga ega bo'lindi. Bu birinchi navbatda Janubiy Sibir aniqrog'i- Tog'li Oltoydir. Aynan shu g'orlardagi yoki ochiq tarzdagi manzilgohlarda 60 mingdan to 30 ming yilgacha bo'lgan davrda, ya'ni Homosapienssapiens madaniyati shakllangan davrda ro'y bergan qazilma qurollar majmualarining ketma-ket almashinuvini yaqqol ko'rish mumkin.

Shunday qilib, aholi migrasiyasining ikki katta to'lqini natijasida odamzod o'zining qadimiy Afrika vatanidan turli geografik va iqlim mintaqalaridagi ulkan hududlarga tarqalib, u yerlarda o'nlab va yuzlab ming yillar mobaynida tashqi tomondan farqlanuvchi, lekin morfologik va genetik o'xshash, bir turga birlashgan irqlarni shakllantirgan.

Janubiy Qozog'iston va O'rta Osiyo mamlakatlari hududlari tosh asri yodgorliklari tadqiqoti jarayonida qo'lga kiritilgan antropologik topilmalar mazkur hududlarni yer shari miqyosida antropogenez jarayoni sodir bo'lgan mintaqalar qatoriga qo'shish imkonini bermoqda. Eng muhim qadimgi gominidlar qoldiqlari birlamchi manba sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, Farg'ona vodiysidagi Selung'ur, Ohangaron tumanidagi Ko'lbuloq, Tojikistondagi Kuldora, Laxuti, Qozog'istondagi Baktak kabi makon va manzilgohlarinnig 1 mln yil sanaga ega ekanligi bu fikrimizdan dalolat beradi. Xususan, Farg'ona vodiysidagi Selungur g'or makoni tadqiqoti jarayonida qo'lga kiritilgan arxeologik, antropologik manbalar bu muammoni yanada oydinlashtirishda muxim ahamiyat kasb etdi. O'rta Osiyo qadimgi zamonlarda mavjud bo'lgan tabbiy iqlim va ekologik sharoitlarga ko'ra bu

yerda ibtidoiy to'lda davrining ashel bosqichlaridan boshlab ajdodlarimiz etiborini tortganligi hamda bu mintaqada arxantropning zamondoshlari ilk bor makon topganligi kabi dalillar, bu vatanimiz hududlari odamning paydo bo'lishi tizimiga kirishini ko'rsatdi. Fergantrop odamining paydo bo'lish shajarisida pitekantrop bilan neandertal odamlari oralig'idagi bo'g'inni to'ldirdi.

O'rta Osiyo hududi antropogenezi masalasini oydinlashtirishda paleolit davri yodgorliklari tadqiqotida qo'lga kiritilgan antropologik topilmalar muhim ahamiyat kasb etadi. Vatanimiz sarhadlarida paleolit davri jamoalari moddiy madaniyati tadqiqotida muhim yutuq va kashfiyotlarga erishilmoqda. Jumladan, 2004-2005 yillar Qo'rg'oshin qal'aning sharqiy tomonida joylashgan Qorachuri degan joyda muste, so'nggi paleolit jamoalariga tegishli makonlar kashf etilishi ham muhim bo'ldi. Shuningdek, Sulton Uvays tog' tizmalari janubiy yon bag'ri, Qizil qal'a qishlog'i shimoliy- sharqiy tomonida paleolit makoni aniqlandi. Paleolit davri jamoalari moddiy madaniyatini o'rganishda O'zR FA arxeologiya xodimlari tomonidan Qizilqumning Ko'kayaz pastqamligida qator ashel, muste yodgorliklarining topilishi, SamDU arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan 2000 yili O'rta Zarafshon vohasi Qoratepa tog' massivi shimoliy yon bag'rida Sazag'on qishlog'i markazida Olmabuloq yonida paleolit makonini kashf etilishi ham ahamiyatli. Shuningdek, bu davr jamoalari moddiy madaniyati tadqiqoti bo'yicha Rossiya FA Arxeologiya va etnografiya Instituti Sibir bo'limi va O'zb FA arxeologiya instituti hamkorlikda 1998 yildan e'tiboran Obi-Raxmat g'or makoni tadqiqoti natijalari muhim bo'ldi. 10 metr qalinlikda madaniy qatlam 22 ta stratigrafik qatlamga ajratildi. Obi-Raxmat g'oridan topilgan odam qoldig'i kramonyon odamining bir turi bo'lib chiqdi «Obiraxmat odami»<sup>1</sup>. Bu tadqiqotlar A.V.Derevyanko va U.Islamov rahbarligida amalga oshirildi. 2001 yili U.Islamov rahbarligida O'zR FA arxeologiya instituti bir guruh xodimlari Angren vohasida kompleks ravishda tadqiqot ishlarini amalga oshirdi. Vatanimiz janubiy hududida joylashgan Teshiktosh g'or makonida ham 2002 yil O'zbek- Rossiya qo'shma ekspeditsiyasi qayta tekshiruv ishlarini amalga oshirdi. G'ordan chekkaroqda tekshiruv shurfini qazib ko'rishdi. Qazish jarayonida qimmatli arxeologik manbalar qo'lga kiritilib, bu makon Teshik-tosh 2 makoni deb nomlandi. 2007-2011 yillari Ko'lbuloq yodgorligida O'zbekiston-Rossiya xalqaro Markaziy Osiyo paleolit otryadi tadqiqot ishlarini amalga oshirdi. 1998 yildan Rossiya FA Sibir bo'limi arxeologiya, etnologiya institutining xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan Dodekatim-2, Qizilolma-2, Paltov kabi yangi paleolit yodgorliklari kashf etildi. Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar natijasida muste davri jamoalari moddiy madaniyatiga oid qiziqarli arxeologik manbalar to'planishiga erishilgan. Bu manbalar hamda oldingi yillar maboyinida amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlarda qo'lga kiritilgan manbalar muste davri jamoalari kunlik

---

<sup>1</sup> Деревянко А.П. и др. Ранний верхний палеолит Узбекистана : индустрия грота Оби –Рахмат (по материалам слоев 2-14). Археология, этнография и антропология Евразии 4 (8), Новосибирск, 2001. с. 42-63

turmush tarzi, ijtimoiy tuzumi, xo'jalik mashg'ulotlari, ma'naviy kechinmalari, madaniy aloqalar, jamoalar madaniyati kelib chiqishi ildizlari kabi masalalarni yoritishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston hududi qadimgi gominidlari borasida amalga oshirilgan tadqiqotlarni quyidagicha bayon etish mumkin. Farg'ona vodiysidagi Selungur g'oridan topilgan materiallar ham yuqorida ta'kidlangan yodgorliklar jumlasidandir va bu yerda aniqlangan Fergantrop, yani Farg'ona odami ahamiyati jihatidan ulardan qolishmaydi. Demak, O'rta Osiyo, shu jumladan, O'zbekiston hududlari ham ibtidoiy odam shakllangan va taraqqiy qilgan insoniyat beshiklaridan biridir.

Yurtimiz ilk paleolit davrining boshlaridanoq odamning eng qadimgi jismoniy tiplaridan bo'lgan xomo erektuslar tomonidan o'zlashtirilganligini 1,2 mln. yillar bilan sanalangan Farg'ona vodiysidagi Selungur va 550 ming yillar bilan sanalangan Toshkent vohasidagi Ko'lbuloqning kuyi katlamlari yorqin misol bo'la oladi.

Selungur g'orining 3 madaniy qatlamida oltita alohida tish (3 ta yuqori qoziq tish va 3 ta pastki jag' tish) topilgan bo'lib, bu tishlar bir nechta turli jinsdagi individlarga mansub deb topilgan. Shuningdek, bu yerdan Teshiktosh bolasi yoshiga yaqinroq bolaning o'ng yelka suyagi topilgan. A.A. Zubovning ta'kidlashicha, jag' tishlarning morfologiyasi Selungur odamini qator arxaik belgilarini saqlab qolgan, bo'lsada evolyusion taraqqiyotda anchayin ilgarilab ketgan va zamonaviy odamga eltuvchi asosiy yo'nalishidan chetlashgan mavjudot ekanligini ko'rsatadi. Yelka suyagi esa, antropologlarning fikricha, Teshiktoshdagi bolasi bilan taqqoslanganda ancha arxaik ko'rinishga ega.

O'rta paleolit davriga oid Teshiktosh g'oridan neandertal bolasi qabrining topilishi muhim ahamiyat kasb etdi. Birinchi madaniy qatlamning tubida yer satxidan 25 sm chuqurlikda ezilgan va deyarli tuproqqa qorishib ketgan bosh chanog'i topildi. Bu bo'laklar deyarli tabiiy ketmaketlikni saqlagan holatda bir xil sathda yotardi. Keyinchalik, 1 madaniy qatlamning tagidagi sof qatlamdan ham odamning parchalangan suyak qoldiqlari: umurtqa, qovurg'a, kurak suyagi, o'mrov suyagi va pastki jag' bo'laklari topilgan. A.P. Okladnikovning fikricha, odam suyagi qoldiqlari 56 ta echki suyaklari bilan o'ralgan. Shuningdek, antropologik topilma ostki va ustki tuproq qatlamlaridan qizil oxra qoldiqlari kuzatilgan. Neandertal bolasi bilan bog'liq bu holatlar antropologik topilmani ko'mish bilan bog'liq marosimlar o'tkazilganligini ko'rsatadi. (Okladnikov, 1949a. S. 32-42).

Teshiktosh odami o'zining taksonomik holatiga ko'ra, qator munozoralarga sabab bo'ldi. Ayrim antropologlar topilmani G'arbiy Yevropaning klassik neandertallari bilan yaqinligini ta'kidlasalar (Debes, Gremyashiy, Xauelsls va boshq.), boshqalari Old Osiyo yoki "progressiv" yevropa neandertallari bilan taqqoslaydilar (Veydenreyx, Yakimov, Klark, Xauell, Alekseyev va boshq). Masalaning yechimini topilmaning yosh bolaga tegishli ekanligi yanada qiyinlashtiradi. Topilmaning jinsi dastavval u 9-10 yoshlardagi o'g'il bolaga (Okladnikov, 1949a. S. 3443), so'ngra shu yoshdagi qiz bolaga tegishli deb topilgan (Alekseyev, 1985. S. 522). Teshiktosh

bolasi suyaklarida maxsus tekshirishlar o'tkazilishi natijasida ular tosh qurollar yordamida ko'mishdan oldin etdan tozalanganligi ma'lum bo'ldi. (Ulrix, 1982. S. 7).

Respublikamiz mustaqilligi yillarida O'zbekiston-Rossiya xalqaro arxeologik ekspedisiya (akademik A.P.Derevyanko, akademik O'.I.Islomov) xodimlari tomonidan Obirahmat g'orida olib borilgan tadqiqotlar natijalari juda sermahsul bo'ldi. Yodgorlik dastlab R.X.Suleymanov tomonidan tadqiq etilgan edi. Rossiya arxeologlari bilan hamkorlikdagi tadqiqotda yodgorlikning 16- madaniy qatlamidan muxim antropologik topilma qo'lga kiritildi. Topilgan qadimgi odam suyak qoldiqlari neandertal bilan hozirgi zamon tipidagi odamning omuxta qiyofasini namoyon etadi. U ko'pgina o'ziga xos morfologik jihatlarga ega. Bu jihatlarda esa hozircha paleoantropologik o'xshashiga ega emas degan xulosaga kelindi. Polisentristik g'oya vakillari Obirahmat odamining qazilma qoldiklarini, bir tomondan, hozirgi jismoniy tipdagi odamning mustaqil ravimida multimintaqaviy shakllanganligining isboti bo'lib xizmat qilishi mumkin, ikkinchi tomondan yaqinyaqingacha ehtimoldan uzoq deb hisoblab kelingan hozirgi odamlarning ajdodlari bilan neandertallarning chatishganligiga dalildir, deb talqin qilishmoqda Biroq, ushbu talqinlar ancha munozaralidir.

Xuddi shunga doir eng so'nggi kashfiyot O'zbekistonda Obirahmat g'orida amalga oshirildi. Ko'p qatlamli « g'or yilnomasi» ma'lumotlariga ko'ra, bu yerda bundan 90000 yildan to 30000 yilgacha muqaddam o'tgan davr industriya madaniyatining o'zgarish dinamikasini kuzatishga muvaffaq bo'lindi. Eng asosiysi- 2003 yilda 54000- 56000 yoshli tuproq qatlamida odam bosh suyagining qoldiqlari topildi. Endilikda mitoxondiral DNK tahlili vositasida Obirahmat g'orida yashagan qadimgi odam kim bo'lganligini- hozirgi zamon odamimi yoki neandertal bo'lganini aniqlash mumkin. Bu uning kroniologik ko'rsatkichlari javob bera olmaydigan masaladir, zero quloq suprasining tuzilishi bu odamning neandertaldan kelib chiqqanligidan dalolat bersa, miya hajmi va tishlarning shakli hozirgi zamon odamining jismoniy tipiga aloqador ekanini ko'rsatadi.

Demak, O'rta Osiyo sarhadlari miqyosida eng qadimgi antropologik topilma-xomoerektusning vakili- Fergantrop (Farg'ona vodiysi, Selung'ur g'ori) hisoblanadi. U.I.Islomov, A.A.Zubov, V.M.Xaritanovlar bu topilmani Teshiktosh neandertal bolasidan ancha arxaik ekanligini e'tirof etishadi. Yaqin o'n yillarda Obirahmat g'orida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida muhim antropologik topilma topilib, u neandertal tipidagi odam bilan hozirgi zamon tipidagi odamning omuxta qiyofasini namoyon etgan gominidning jismoniy tipi deb e'tirof etildi. Shu o'rinda arxeolog B.Sayfullayev bu e'tirofning ancha munozarali, baxsli ekanligi haqida fikr bildirganligini ham e'tiborga olish lozim. So'nggi paleolit davri odami borasida Samarqand makoni antropologik topilmasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Erkak va ayolga mansub bo'lgan bosh chanoq bo'laklari, xususan jag' suyaklari V.V.Ginzburg, I.I.Goxmanlar tomonidan o'rganilgan. Eron va Yevropa hududi odam bosh chanoqlariga o'xshashlik xususiyatlaridan kelib chiqib, mutaxassislar ularni yevropoid irqining janubiy tipiga oid dgan xulosaga kelishgan. Zikr etilgan faktlarni



keltirishdan maqsad O'rta Osiyo miqyosida neolit davrigacha bo'lgan tosh asri bosqichlariga oid odamning eng qadimgi jismoniy tiplari vakillarining topilmalari topilganligi borasida ma'lumot berish hisoblanadi. Xullas, Vatanimiz sarhadlari dunyo miqyosida antropogenez jarayoni sodir bo'lgan mintaqalar sirasiga kirganligi va odamzod bundan 1,2 mln. yil muqaddam yashab kelayotganligi ma'lum bo'ldi.

**3-mavzu: O'rta Osiyoda ilk shaharsozlik madaniyati, davlatchilik shakllanishi tarixiy shart-sharoitlari, omillari va ularning o'ziga xos xususiyatlari, ilk davlat birikmalari**  
**(Nazariy 2 soat)**

**REJA:**

**4. O'rta Osiyoda ilk shaharsozlik madaniyati, davlatchilik tarixi shakllanishi tarixiy shart-sharoitlari, omillari va ularning o'ziga xos xususiyatlari**

**5. Vatanimiz sarhadlarida shaharsozlik madaniyatining tarixiy ildizlari masalasi va ularning o'ziga xos xususiyatlari.**

**6. Vatanimiz sarhadlarida ilk davlat birikmalari va ularning o'ziga xos xususiyatlari.**

O'rta Osiyoda dastlabki sug'orma dehqonchilik madaniyatiga asoslangan madaniy markazlar masalasi, Qadimgi Xorazm, So'g'd, Baqtriya, Shosh va Farg'ona, Baqtriya sivilizasiyalarining tarixiy ildizlari masalasi, Davlat tuzilmalarining shakllanish shart-sharoitlari va omillari. Dastlabki davlat uyushmalarining ko'rinishlari: "Voha davlat", "Shahar davlat" va h.k. Ilk shaharlar va davlatchilik taraqqiyoti o'rtasidagi dialektik bog'liqlik.

O'rta Osiyoda dastlabki dehqonchilik vohalari- ilk shaharsozlik madaniyati, davlatchilik tarixiy ildizlari shakllanishida asosiy omil hisoblanadi. Shu bois bu tarixiy ildizni neolit jamoalari moddiy madaniyati bag'ridan izlash lozim. O'rta Osiyo miqyosi neolit davri hakida fikr yuritganda, shuni aytish lozimki, qabilalar aksariyat xollarda tog' yon bag'irlari, daryo sohillari va uning irmoqlari yoqasida, ko'l bo'ylarida yashab baliqchilik, ovchilik yoki dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan mashg'ul bo'lganlar. Neolit davri kishilari qayerda va qaysi sharoitda yashamasinlar, ular o'z mehnat vositalarini mezolit davriga nisbatan doimiy ravishda takomillashtira borganlar. Neolit davri kishilarning eng katta yutuqlaridan yana biri, kulolchilikning kashf qilinish bo'lib, bu o'z davrida muhim ixtirolardan edi. Bu davrda to'qimachilikning kashf qilinishi, suvda suzish vositalarining vujudga kelishi, ayniqsa, oddiy va sug'orma dehqonchilikning yuzaga kelishi, shu bilan mahsulot ishlab chiqarishga o'tilishi, o'zaro buyum almashuvni keltirib chiqardi. Kishilar o'zlariga ma'qul joylarda qo'nim yashashga o'tib, uy-joy qurilish ishlarini ham yo'lga qo'ydi. Neolit jamoalarida yuz bergan bu o'zgarishlar xo'jalikda sosial iqtisodiy va madaniy yutuqlar sivilisasiyaning ilk omillari edi. Shuning uchun ham progressiv ingliz arxeologi G.Chayld bu davrni «neolit revolyusiyasi» deb atashi bejiz emas.

O'rta Osiyoning janubiy mintaqalarida, xususan, Kopetdog' etaklarida dastlabki sug'orma dehqonchilik va chorvachilik tashkil topgan bir vaqtda shimoliy mintaqalarida hamon ovchi, baliqchi, termachi qabilalar yashardi. O'rta

Osiyoning baland tog'lik o'lkalarida esa o'z sharoitiga xos neolit xo'jalik madaniyati shakllandi.

Neolit tosh asrining so'nggi bosqichi bo'lib, insoniyat bu davrda ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotda muhim yutuqlarga erishadi. Shulardan eng muhimlaridan- qo'nim yashash bilan bog'liq dehqonchilik sivilizasiyasiga asos solinadi, ijtimoiy taraqqiyotda esa ona urug'chilik tizimi avvalgi davrlarga qaraganda birmuncha yuksalish darajasiga ko'trildi.

Eng qadimgi dehqonchilik madaniyat ildizlari Janubiy Turkmanistonning Kopetdog' tizmasi shimoliy tog' bag'irlaridagi tekislik hududlarda yaxshi taqdim qilingan. Bu mintaqa Markaziy Osiyoda dastlabki dehqonchilik tashkil topgan markazlardan biri ekanligi isbotlangan. Bu muzofotlarda yashagan jamaolar turmushida neolit davrining dastlabki bosqichlaridayoq dehqonchilik muhim o'rin tutgan. Bu sohani tadqiq qilishda avval B.A. Kuftin, A.A. Marushenko, keyinchalik esa 1955 yildan V.A, Masson, D. Durdiyev, O.K. Berdiyev kabi olimlar katta kashfiyotlar qildilar.

O'rta Osiyoda dastlabki o'troq dehqonchilik madaniyati tarixini o'rganish Joytun neolit davri qishlog'ini tadqiq qilishdan boshlandi. Bu yodgorlik Ashxoboddan 30 km shimoliy g'arb tomonda joylashgan bo'lib, olib borilgan ko'p yillak tadqiqotlar tufayli bu jamoalarning xo'jalik madaniyatini izohlab beruvchi boy manbalar qo'lga kiritildi.

So'nggi yillarda bu hududda arxeologik ishlar keng ko'lamda olib borildi va natijada Kopetdog' tizmasi etaklaridan yana shunga o'xshash qadimgi bir necha dehqon qishloqlari qazib o'rganildi. Jumladan, Bami, To'g'oloqtepa, Chag'allitepa, Munchoqtepa, Cho'pontepa kabilar shunday yodgorliklar tipidan bo'lib, ular qadimgi o'troq dehqonchilik madaniyatiga doir nihoyatda qiziqarli materiallar berdi. **Bunday ishlab chiqaruvchi xo'jalikning tashkil topishida tabiiy sharoitning mavjudligi muhim omil bo'lgan. O'sha qadimgi zamonlarda Kopetdog' tog'i jilg'a-soylardan hosil bo'lgan suvlar kichik daryolarni tashkil topib, vohaga hayot bag'ishlagan. Ayniqsa, sel, toshqin suvlari natijasida tashkil topgan serhosi ibtidoiy jamoalarning oddiy dehqonchilik yuritishiga muayyan qulaylik tug'dirgan. Bunday vohalarda sun'iy sug'orish usulida dehqonchilik qilish yaxshi natija bergan. Bu vohalarda yashagan ibtidoiy jamoalar dehqonchilikni dastlab liman usulida olib borgan. Agar dastlabki vaqtlarda toshqin suv bosgan joylarda dehqonchilik qilingan bo'lsa, keyinchalik asta-sekin sun'iy sug'orish usuli qo'llanilgan. Mana shunday dastlabki ibtidoiy o'troq dehqon qishloqlaridan biri Joytun hisoblanadi. Yodgorliklar bir necha yillar davomida qazib tekshirildi.**

Ma'lum bo'lishicha, joytun qishlog'i uchta davriy qatlamdan iborat bo'lib, bu jarayon esa kishilarning uzoq zamonlar muhim tarzda o'troqlashib yashaganligidan guvohlik beradi. Bu yerda qazish usuli bilan ochilgan uy-joylari, hovli va xo'jalik binolari neolit davrida kishilarning me'morchilikda erishgan yutuqlaridan dalolat beradi. Binolar deyarli to'rtburchak shaklda bo'lib, qurilish materiallari sifatida tuxumsimon, silindr shaklidagi loy g'ishtlardan (guvala)

foydalanilgan. Ammo kishilar o'z me'morchiligini rivojlantirish borasida qo'llanilgan «g'isht» shakllari doimiy takomillashtirilib borilgan. Aslida qishloq dastlab bir necha uylardan tashkil topgan bo'lib, ularning har birining maydoni 25-30 m kvadrat ni tashkil etgan. Ayrim uylar paxsadan qurilgan. Paxsa loyiga maydalangan somon qo'shilgan bo'lib, bu esa bino devorining mustahkamligini oshirgan.

Aytilganidek, uylar to'rt to'g'ri burchakli bo'lib, bir xonalikdir. Har birida alohida o'choqlar bor. Uylarning sathi va devorlari somonli loy bilan suvalib, oxra (tabiiy bo'yoq) bilan bo'yalgan. Xonalarning pollari ganch va ayrim hollarda ohak eritmasiga tuproq aralashirilib suvalgan. Uylarning yonida omborxonalar, saroy va xo'jalik uchun zarur o'ralar ham bor. Har bir uyda 5-6 kishidan iborat kichik bir oila yashagan. Joytun qishlog'ida 30 ga yaqin uy bo'lib, ularda 150-180 kishi istiqomat qilgan, degan fikrlar bor. Joytun qishlog'i xarobalaridan bug'doy, arpa izlari, yorg'uchoq, toshdan yasalgan va turli shakldagi o'roq va pichoq uchun qistirma toshlar va boshqa turli tosh qurollari topilgan. Bunday ibtidoiy muqim yashagan dehqon me'morchiligiga doir ko'pgina boshqa yodgorliklarda, jumladan, Bami, Tog'oloqtepa, Chag'allitepa, Munchoqlitepa, Cho'pontepa kabi yodgorliklar shunday yodgorliklar tipidandir. Bu yodgorliklardan san'at buyumlariga doir har xil munchoqlar, urchuq, turli taqinchoqlar, xatto shaxmat-shashka shakllariga o'xshash buyumlar ham topilgan bo'lib, ular balki muhr- tang'alar ham bo'lishi mumkin.

Aslini olganda, joytunliklar qadimgi o'troq dehqonlar edi. Shuning uchun ham tirikchilikning bosh vositasi dehqonchilik bo'lgan. Buni arxeologik topilmalar tasdiqlaydi. Masalan, Cho'pontepadagi topilgan mayda tig'i o'tkirlangan qadama toshlardan 500-600 ta o'roq yasash mumkin edi. Joytun qishlog'idan 1097 qadama tosh topilgan. Agar 1-3 ta qadama toshdan bitta o'roq yasalishini hisobga olsak, unda bu topilma materiallaridan qariyb 400 ta o'roq yasash mumkin bo'ladi. Umuman, Joytun qishlog'i zaminidan topilgan tosh buyumlarning 37% ni va Chag'allitepada esa 31% ni o'roq qadama tig'lari tashkil qiladi. Bu har bir xonadan a'zolari deyarli shunday asboblardan ta'minlanganidan guvohlik beradi.

Joytunliklar bug'doy-arpa kabi boshqoqli ekinlarni bilganlar. Masalan, Cho'pontepa, Bami, Chag'allitepalardan shunday don qoldiqlari alomati topilgan. Joytun qishloqlari atrofida o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Qorasuv daryo havzasining vodiylarida hatto sun'iy sug'orish usulida dehqonchilik olib borilgan ekan. Topilmalarga qaraganda, bu qabilalar xonakilashtirilgan hayvonlardan qoramol hamda echki, qo'y kabilarni bilganlar. Joytunliklar ko'pincha echkidan keng foydalanganlar. Cho'pontepadan topilgan suyak qoldiqlarining 82% i echkiga taalluqli edi.

Joytun qabilalarining ijtimoiy tuzumi haqida so'z borganda, bu yodgorliklardan topilgan imorat qoldiqlari nazarda tutilsa, bu yerda matriarxat tuzumining juft oila jamoasi katta rol o'ynagan.

Dehqonchilik va chorvachilikka o'tilish jamiyat tarixida keskin iqtisodiy rivojlanish sakrash bo'lib, olimlar bu taraqqiyot bosqichini neolit yoki dehqonchilik revolyusiyasi deb ataydilar. Bu davrda qishloq –qarorgohlarining ham qiyofasi jiddiy o'zgaradi. Dehqonchilikka o'tilishi jamoalar xo'jaligining asosi sifatida kishilarning muqim, o'troq yashashiga olib keldi. Endilikda qarorgohlarning mukkamalasha borishiga ijtimoiy-iqtisodiy jabhalar katta ta'sir ko'rsatadi. Dehqonchilikning ilk bosqichlarida vujudga kelgan «oshkorlik binolari» istehkomlar bilan o'rab olinadi. Bunday binolar butun jamoaga tegishli edi. Keyinchalik «dohiyalar» uylari tashkil topib, jamoatchilik funksiyalarini bajargan. To'g'ri, istehkomli qishloqlar rivojlangan ovchi va baliqchilarda ham mavjud edi, lekin bu darayon aslida o'troq dehqonlarga xosdir. Hosildor, suvli va chorvachilik uchun qulay yerlarga bo'lgan ishtiyoq qabila va jamoalar o'rtasida o'zaro mojarolarni keltirib chiqaradi, xatto qurolli to'qnashuvlarga ham sabab bo'lgan. Shuning uchun qishloqlarni mudofaa istehkomlari bilan mustahkamlash odat tusiga kiradi.

Eng qadimgi dehqonlar qishloqlari O'rta Osiyoda miloddan avvalgi VI ming yilliklarga mansub joytunliklar madaniyati misolida birmuncha yaxshi o'rganilgan. U O'rta Osiyoning asosan janubiy-g'arbiy mintaqalarini o'z ichiga olgan holda, odatda qurg'oq muzofotlardan iborat bo'lganligi uchun ham sun'iy sug'orish asosida xo'jalik yuritishni talab qilardi. Shuning uchun ham o'troq, muqim yashash kompleksi alohida ahamiyatga ega edi. Inson jamoalari bir necha ming yillar bu joyda yashaganligi sababli ayrim qishloqlarning madaniy qatlamlari bir necha o'n metrlarni tashkil qilgan. Bunday muqim yashash xususiyati manzarasini Joytun madaniyatiga tegishli yodgorliklarda kuzatish mumkin bo'ladi. Joytun madaniyatining ilk davriga mansub Joytun qishlog'ining o'zi hisoblanadi. Bu qishloq 30 ta uydan tashkil topgan, ular hovli va xo'jalik buyumlari bilan jihozlangan. Uylarning joylashishi ham ma'lum bir reja asosida emas. Umumiy jamoa uyi va ibodatxona ham ajratilmagan. Ammo Joytun madaniyatiga mansub va uning o'rta bosqichi rivojlanshiga doir Pessijiktepada ibodatxona yoki jamoa yig'iniga taalluqli uy ochilgan bo'lib, uning dahliz-kirish qismi, devorlari turli bo'yoqlar bilan jihozlangan. Ammo uylarning tartibsiz qurilish holati hamon saqlangan. Xuddi shunday xususiyat so'nggi Joytun qishlog'ida saqlangan bir vaqtda endi bu yerda qishloqning o'rtasida kata uy joylashgan bo'lib, bu bino ham, ibodathona ham umumiyig'in funksiyasini bajargan. Joytun qishloqlarining maydon hajmi unchalik kata bo'lmasdan, balki 05 gketardan to 2 gektagacha. Bu ko'rsatkich qishloqlarning dehqonchilik davrida ularning tobora kengayib borishidan dalolat beradi. Bu qishloqlarda ham mudofaa inshootlari yo'q. Biroq qishloqning chetki joylarida barpo etilgan uy devorlari qishloq ichkarisiga nisbatan bir muncha qalinroq. Bu jarayon fartifikasiya taraqqiyotiga tashqi, siyosiy kuchlar ta'sirining minimal darajadiligini ko'rsatadi. Shuni aytish lozimki, Old Osiyoda mil.avv VIII-VII ming yilliklarda yashagan qadimgi dehqonlar turmushida

uy- joy qurish, fartifikasiya masalalari bu vaqtda ancha rivojlangan edi. Keyinchalik yirik qishloqlar, ishlab chiqarish hali kichik oilalar ixtiyorida edi.

Doimiy evolyusiya tufayli ilk dehqon jamoalarida avvalambor, son jihatdan o'zgarish qishloqlarning tiplarga ajratish sxemasi vujudga keldi. Qishloqlarni odam soniga qarab ularning mezonini belgilash mumkin. Masalan, amerikalik arxeolog G.Chayld shahar tipidagi qishloqlarning aholi soni 5000 bo'lishi mumkin, degan taklifni kiritgan. V.M.Massonning fikriga qaraganda, to'liq o'rganilgan yirik qishloqlarning aholisi 1000 kishigacha bo'lishi mumkin.

Qishloqlarning evolyusiyasida ixtisoslashgan xo'jalikning, ma'muriy va diniy funksiyaning vujudga kelishi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'rta Osiyoning janubiy-g'arbiy muzofotlarida mil.avv. IV minginchi yillarda kichik qishloqlarda Joytun neolitining an'analari davom etgan. Masalan, uylar bir xonali bo'lib, pala-partish qurilib, qishloq markaziy qismida markaziy binosi ham bo'lib, balki u taxminan umumiy yig'in uyi bo'lishi mumkin. To'g'ri, alohida qurilgan uylarning asta-sekin ko'p xonali massivlarga aylanishi ham kuzatilgan. Muzofotning sharqiy o'lkalarida kichik uylar xarakterli bo'lsa-da, ammo markaziy yig'in uylari yirik bo'lib, uning aylana devori yarim metr qalinlikda xom g'ishtdan qurilgan. Shu bilan bir vaqtda ancha mukammal markazlar vujudga keladi: Geoksyur maydoni 12 ga, Qoratepa 15 ga va Namozgohtepa maydoni ham bulardan kam emas. Qoratepadagi qurilishlarning tig'izligiga qaraganda, bu yerda 100 dan ortiq odam yashagan. Ko'pxonali uylar esa kata oila jamoasi yashaganligini ko'rsatib, bu asosiy yacheyka strukturasi hisoblangan.

O'rta Osiyoning shimoliy-sharqiy hududlarida o'troqlashishga intilib yashagan ovchilarning makonlari ko'plab topilib o'rganilgan. Masalan, kaltaminorliklar madaniyatiga doir qarorgohlar Qashqadaryo va zarafshon daryolari sohillaridan ham ko'plab topilib o'rganilgan. Jumladan, faqat Katta Tuzkon sohilining o'zanidan 35 ta joy makon topilib, shundan bittasi ko'p qatlamli va boshqa bittasi bir qatlamli makonlardir. Ayniqsa, Darbozaqir I,II makonlari qiziqarlidir. Darbozaqir jday makoni uch ma'dan qatlamdan iborat bo'lib, uning quyi qatlamidan mehnat quollaridan tashqari 81 m kvadrat maydondan iborat 7x 11,6 metr kattalikdagi to'g'ri to'rt burchakli turar joy, (kulba) qoldig'i, u bilan bog'liq o'choq qoldiqlari topildi. Bu tura rjoy yog'ochdan qurilib, usti qamish bilan yopilgan chayla edi. Darbozaqir II joy makoonida kapa qoldig'i kuzatilmagan bo'lsa-da, turli –tuman neolit quollari bilan birga Kaltaminor madaniyatiga xos sopol idish qoldiqlari, chig'anoq va marmardan yasalgan har xil shakldagi marjonlar ham topilgan. Zarafshon vohasining o'rta oqim so'l qirg'og'idagi tog' bag'rida yashagan neolit jamaolari makonlaridan, xususan, Sazog'onII qarorgohidan topilgan ashyolar, jumladan, yorg'uchoqlar, qadamatosh quollar bu aholining ilk bor ziroatchilik bilan tanish bo'lib, muayyan darajada qo'nim yashaganliklaridan guvohlik beradi.

Qizilqir I neolit makonini o'rganish jarayonida ham jamoalarning qo'nim yashashga o'tish arafasida yashaganliklaridan dalolat beruvchi ashyolar topilgan. Makondan turar joy, mehnat qurollari va sopol idish yasaydigan ustaxona ham topilgan edi. Yuqorida zikr etilgan muzofotlarda yashagan jamoalar asosan termachilik, jayron, yovvoyi cho'chqa, bug'u, sayg'oq va boshqa hayvonlarni ovlab, baliq tutib, ovchilik bilan tirikchilik o'tkazganlar. Termachilik dehqonchilikka asos solgan ekan, xo'jalikning bu turi Zarafshon vohasida endigina shakllanayotgan bo'lib, bu jarayonni mil.avv.IV minginchi yillarga taalluqli Sazag'on madaniyati misolida kuzatish mumkin bo'ladi. Zarafshon vohasi miqyosida Sazag'on, Tepaqul makonlari tadqiqotida ham honakilashgan qo'y, echki, qoramol suyaklarining topilishi bu neolit jamoalarining ham chorvachilik bilan mashg'ul bo'lganligidan dalolat beradi.

Neolit davri jamoalarining ma'lum hududlar bo'yicha o'troqlashib yashay boshlaganligidan qabristonlar tadqiqoti ham guvohlik beradi. Masalan, Koskojol qabrlarida odam suyaklari yonidan munchoq, oxra qoldiqlari, o'q -yoy uchi, sopol idish qoldiqlari topilibbu qabrlar termachilik, ovchilik va baliqchilik bilan shug'ullangan jamoalarning bir joyda muqim yashaganliklarini ko'rsatadi. O'troq dehqonchilik bilan shug'ullangan jamoalar madaniyati eneolit va bronza davriga oid Sarazm, Zamonbobo yodgorliklari misolida yaxshi o'rganilgan.

Ta'kidlash joizki, dastlabki dehqonchilik tog' yon bag'ri daryo, yirik soylar qirg'oqlarida vujudga kelgan. Yirik tadqiqotchi V.I.Vavilov o'z tadqiqotida shu joylarda boshqoqli o'simliklarni asta- sekin madaniylashib borganligini isbotlagan. Xususan, Janubiy Tojikiston hududlari tog' yon bag'rlarida ham shu jarayon ro'y bergan bo'lishi mumkin. Tutqovul, Say sayod makonlari misolida dehqonchilik, chorvachilikning ilk kurtaklari kuzatilgan. Aholining dastlabki o'troq yashashi ro'y bergan. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, dastlabki ishlab chiqarish xo'jaligi barcha hududlarda bir zaylda ro'y bermagan. Tabiiy va geografik sharoitlar turlicha bo'lganligi bunga asos. Olimlar neolit davri moddiy madaniyati o'ziga xos xususiyatini hisobga olib, qabilalarning etnik jihatdan birikmalari yuzaga kelganligi borasida fikr bildirishadi. Buni Joytun, Kaltaminor, Hisor, Sazag'on, Markaziy Farg'ona qabilalari misolida asoslaydilar. Ana shu sosial hodisa sivilizasiya sari yo'l qo'yilgan evolyusiyaning hosilasi demakdir. ShU jamoalar o'z taraqqiyotida urbanizasiya yo'lida muxim qadam tashlaganlar. O'troqlashib yashashganva ular xo'jaligida ishlab chiqarish xo'jaligining tarixiy ildizlari tomir otgan.

Xorazm arxeologik ekspedisiyasining tadqiqotlarida ikki daryo oraliq'i xususan, Amudaryo va Zarafshon daryosi etaklari, Qizilqumda kaltaminor jamoalari o'troqlashib yashaganliklari borasida muxim ma'lumotlar qo'lga kiritilgan. Jonbos 4, Tolstov, Uchamqi 131 kabi madaniy qatlamli yodgorliklar muxim hisoblanadi. Xususan, Jonbos 4 yodgorligidan 24x17 metrli cho'ziq gardish shaklidagi tura rjoy qoldig'i topilishi ona urug'i bilan bog'liq jamoa yashaganligi haqida ma'lumot beradi. Bu hona o'rtasida katta o'choq qoldig'i va devor yonlari bo'ylab bir nechta qator joylashgan kichik o'choqlarning qoldig'i topilishi shunday xulosa chiqarish imkonini

beradi. Quyi Zarafshon o'zanlari bo'lgan Mohandaryo, Xo'jayli, Echkiliksoy, Ayoqa gitma, Daryosoy, Tuzkon ko'llari bo'ylab qator neolit jamoalari makonlari tadqiq etilgan. Xususan, Darvozaqir 1,2,Uchamı 131 yodgorliklarida turar joylar qoldiqlari topilgan. Karkas usulida konus shaklida bo'lgan bu turar joylar o'z jixatlari bilan Kaltaminor jamoalari turar joylariga o'xshash. Makonlardan topilgan tosh qurollari, sopol idishlar, yorg'uchoqlar ayniqsa, qistirma tosh o'roq tig'lari uchratilishi jamoalarning ma'lum ma'noda o'troqlashib yashaganligi hamda dastlabki dehqonchilik bilan shug'ullanganligidan guvohlik beradi.

Ta'kidlash joizki, keyingi yillar mobaynida Zarafshon vohasida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari neolit jamoalari turmushida ishlab chiqarish xo'jaligi shakllana borganligini ko'rsatdi. Bular M. Qosimov, T. Mirsoatovlar tomonidan tadqiq etilgan Uchtut, Ijont chaqmoqtosh ustaxonalarida odamlarning kasbiy mutaxassislashganliklari, O'zbekiston – Fransiya qo'shma arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan Ayoqa gitma neolit makoni tadqiqotida xonakilashgan hayvon suyaklarining topilishi (F.Brunet, M.Xo'janazarov), O'rta Zarafshon vohasi Qoratepa tog' massivi shimoliy yon bag'rida Sazog'on neolit jamoalari makonlaridan dehqonchilik bilan bog'liq tosh qurollari hamda xonakilashgan hayvon suyaklari qoldiqlarining topilishi dehqonchilik va chorvachilik xo'jaligining ilk kurtaklari paydo bo'lishi va aholining o'troqlashib yashay boshlaganidan guvohlik beradi. (M..Jo'raqulov, N.Xolmatov).

O'rta Osiyoning so'z borayotgan mintaqalarida ishlab chiqarish xo'jaligiga o'tish jarayoni mil. avv III minginchi yillarning arafasi va II minginchi yillarda sodir bo'lishi, ya'ni jez ishlab chiqarish xo'jaligining kashf qilinish bilan bog'liq edi. Neolit ovchi va termachi qabilalarining bir qismi ma'lum darajada o'troqlashib yashagan sharoitlari haqida bu qabilalarga yuqorida aytilgan qator yodgorliklarda topilgan moddiy madaniyat izlarini o'rganish orqali tasavvur hosil qilish mumkin. Bu to'g'rida yuqorida ta'qidlaganimizdek, O'rta Osiyoning dashtli mintaqalaridan, qadimgi daryo va ko'l atroflaridan topilib o'rganilgan makonlar va ular bilan bog'liq uy -joylar qoldiqlarining o'rganilishi tufayli ma'lumotga ega bo'lamiz. Jumladan, Zarafshonning quyi oqimidagi, Qizilqumdagi Uchamı, Darbozaqir va 2, Qizilqum ichkarisidagi Lavlakon -26, Oqchadaryo o'zanidagi Tolstov, Jonbos -4, Qavat -7 kabi makonlarni ko'rsatish mumkin. Bu makonlardagi uy joylar turlicha, ya'ni to'g'ri burchakli, doir, oval kabi shakllarda taqdim qilingan bo'lib, ularning maydoni ham xar xil hajmda, jumladan kichikroq kulbalar 85- 115 metr kvadrat, kattaroqlari esa 380 metr kvadratgacha maydonni tashkil qiladi. Ko'pincha ularning tomlari nishab holatda yopilgan, bunday kapalarning o'rtasida kata gulxan o'chog'i, uning atroflarida mayda o'chog'lar borligi kuzatilgan. Bunday kulbalarda juft oilalardan tashkil topgan jamoa- ona urug'lari yashagan. Kulbalarining o'rta qismida jamoa gulxan o'chog'i – o'chmas olov bo'lib, har bir juft oila esa o'zining turmush o'choqlariga ega bo'lib, markaziy gulxan jamoaning sig'inish joyi bo'lgan. Masalan, Jonbosdagi kaltaminorliklar uyida 100-125 kishi yashagan. Kulba 320 metr kvadrat maydondan iborat bo'lgan. O'rta maydonga ega bo'lgan bu tarzdagi kulbalarda 50 -65 kishi



yashagan. Xullas, neolit davrida matriarxat, ya'ni ona urug'i jamoasining gullagan davri bo'lgan deyilsa xato emas.

Ko'p yillik tadqiqotlar tufayli olimlarimiz zikr etilgan muzofotlarda ilk mezolitdan neolit davrining so'nggi rivojlangan bosqichigacha bo'lgan evolyusion taraqqiyotning mahalliy negizda rivojlanganligini boy manbalar asosida isbotlab berdi. To'g'ri, zikr etilgan jamoalarining qo'nim makonlari madaniylashish evolyusiyasining ilk ildizlari deb qaralsa- da, lekin bu muzofotlarning barcha mintaqalardagi qo'nim makonlarida o'troqlashish jarayoni vujudga kelmadi. Bu manzara uning ilk omillari edi, xolos. Bu muzofotlarda yashagan neolit qabilalari keng doirada Sharqiy Ovropaning o'rmonli va mamlaktning janubiy sarhadlarida yashagan o'troq dehqon qabilalari bilan doimiy moddiy va madaniy aloqada bo'lganliklari fanda isbotlangan bo'lib, bu hodisa taraqqiyot omili sifatida namoyon bo'ldi.

Shunday qilib, sug'orma dehqonchilikning kashf qilinishi inson jamoalarining muayyan tarzda o'troqlashib yashash sivilizasiyasini vujudga keltirib, uy- joy qurish arxetektura texnikasining sodir bo'lishiga, bu jarayon esa evolyusion taraqqiyot yo'lida bosqichma – bosqich namoyon bo'lib, mezolitning oxirlaridan neolit davridan muayyan yuksaklikga erishib, urbanizasiyaning ilk ildizlariga asos soldi.

Kishilik tarixi taraqqiyotining ilk bosqichlarini o'z ichiga oluvchi ibtidoiy davr jamoalari moddiy- madaniyatini o'rganishda qadimgi odamlar turmushida ishlab chiqarish iqtisodiyotiga o'tish jarayonini o'z mazmun, mohiyatini bilano'tadolar bmasalasi hisoblanadi. Sababi, ishlab chiqarish iqtisodiyoti, ya'ni dehqonchilik va chorvachilikning vujudga kelishi (neolitning qilobi) keyingi tarixiy taraqqiyot bosqichlarida muhim sosial, iqtisodiy o'zgarishlarga olib kelgan: ibtidoiy odam zodning kunlik turmush tarzi o'zgaradi va endi ularoziq- ovqat topish ilinjidaday dibi yurmasdan, o'troqtarzdahayotkechiraboshlaydi, natijada aholi muqimiyashovchi qishloqlar paydobo'ladi; dehqonchilik va chorvachilik bilan bog'liq diniy e'tiqodlar shakllanadi; lalimidehqonchilik hamdavaqto'tishibilansug'ormadehqonchilik kabog'liq suvinshootla riqurilishiboshlanadi. Natijada aholining ma'lumsug'ormadehqonchilikka asoslangan madaniy vohalargazichla shishijarayoniro'yberib, obodqishloqlar, keyinchalik ularo'rnigashaharlar vujudga keladi: Shutariqashahar sozlik madaniyat va ilk davlatchilikko'rinishlaripaydobo'ldiki, butomma'nodaqadimgisivilizasiyalar shakllanishidemakdir.

## **Mavzu: Qadimgi Xorazm sivilizasiyasining tarixiy ildizlari masalasi.**

### **Reja:**

#### **1.Xorazm vohasi ibtidoiy davr jamoalari moddiy madaniyati**

#### **2.Xorazm vohasi ilk dehqonchilik vohalari shakllanishi masalasi**

#### **3.Xorazm vohasi ilk sivilizasiyalari shakllanishi shart-sharoitlari**

2. 1938 yili S.P.Tolstov Quyi Amudaryo havzasida amalga oshirgan arxeologik tadqiqoti jarayonida bronza jamoalariga tegishli qator yodgorliklarni topib o'rgangan. Bu yodgorliklardan topilgan sopol buyumlariga qarab uni jez davri cho'lli sarhadlar jamoalariga tegishli deb hisobladi. Aniqrog'i, Qozog'iston va Janubiy Sibir hududlarida keng tarqalgan Andranova madaniyatiga o'xshashligi ta'kidlandi. Qadimgi Xorazmning Tozabog'yob kanali zonasida tarqalgan bu qadimgi madaniyat izlarini S.P.Tolstov Tozabog'yob madaniyati, deb atadi. Keyingi 30 – 40 yil davomida Tozabog'yob madaniyati materiallarga o'xshash bronza davri makonlari va qabristonlari, yuqorida eslatib o'tganimizdek, quyi Zarafshon va quyi Qashqadaryo havzalarida, Toshkent vohasining adirli zonasi rayonlarida, Farg'ona vodiysida keng tarqalganligi aniqlandi. Ana shu cho'l zonasi qabilalar madaniyatini S.P.Tolstov va M.A.Itina Tozabog'yob madaniyati deb atasa, Farg'ona vodiysi yodgorliklarini B.A.Litvinskiy Qayraqqum madaniyati deb ataydi. A.Asqarov esa cho'lli zonasi bronza davri yodgorliklarini Andranova madaniyatining Tozabog'yob varianti, Ye.Ye.Kuz'mina Andranova madaniyatining O'rta Osiyo varianti, Yu.A.Zadneprovskiy, N.G.Gorbunova va boshqalar esa Andranova yodgorliklari deb ataydilar. Mutaxassislar bu yodgorliklar moddiy madaniyati bir biriga o'xshashliklari haqida yakdil fikrga kelishgan. Shu tariqa O'rta Osiyo miqyosida bu madaniyatning qator lokal variantlari ajratilgan. Qozog'istonning Srub madaniyati elementlari borligi fakt. Lekin, O'rta Osiyodagi Andranova madaniyatining joylardagi yodgorliklari o'rtasida xo'jalik mashg'ulotlari nuqtai nazaridan farqlar kuzatiladi. Masalan, Xorazmda Tozabog'yob jamoalari xo'jaligida dehqonchilik ancha rivojlangan. Mil.avv II minginchi yillik ikkinchi yarmiga doir Qadimgi Xorazmning irrigasiya ariqlari B.V.Andrianov tomonidan yaxshi o'rganilgan. Shuningdek, Xorazm diyorida Suvyorg'on madaniyatiga tegishli qator yodgorliklar ham tadqiq etilgan. S.P.Tolstov 1945-1946 yillarda Jonbassqala yaqinidagi Jonbass -6 yodgorligi dastlab o'rganilgan. Keyinchalik, 1954 yil Oqchadaryoning janubiy irmoqlarida Qamishli 1,2 yodgorliklarini topib, bu yodgorliklar materiallari asosida Suvyorg'on madaniyatini taraqqiyot xronologik bosqichlarga ajratdi. S.P.Tolstov fikricha, Suvyorg'on madaniyati Qamishli bosqichi asosida Kaltaminor madaniyati taraqqiyoti so'nggi bosqichlari bilan bog'liq. Aniqrog'i, Kaltaminor madaniyati negizida shakllangan. Qamishli bosqichi Bozor 2, Ko'kcha 2 kabi yodgorliklar madaniyatida davom etgan. S.P.Tolstov Suvyorg'on madaniyati sopol idishlaridagi qizil rang bo'yoqlarga asoslangan holda uning kelib chiqish tarixini janubiy sarhadlar dehqonchilik madaniyatlari bilan bog'laydi. Suvyorg'on madaniyatining qamishli etapi xuddi Zamonbobo madaniyati singari avtoxton xarakteriga ega. Janub qabilalari madaniyati bilan o'xshashlik jixatlari faqatgina bu ikki hudud jamoalari o'zaro madaniy ta'siridan

boshqa narsa emas. S.P.Tolstov, M.A.Itinalar fikricha Suvyorg'on madaniyati bir nechta etnik komponentlardan tashkil topgan madaniyat bo'lib, uning mahalliy tub joy aholisi Suvyorg'on madaniyatining ijodkorlari bo'lsa kerak.

Shunday qilib, mil.avv. II minginchi yillikning ikkinchi yarmidan O'zbekiston hududida, jumladan, Qadimgi Xorazmda keng tarqalgan cho'llik zona jez qabilalari madaniyati chorvador va ilk dehqon qabilalarining madaniyati bo'lgan. Bu madaniyat uchun qo'lda yasalgan qo'pol, mo'rt, chizmalı naqshli, yassi tubli xurmacha va bankasimon idishlar, yarim doira shaklidagi kosalar xarakterilidir. Jez metallurgiyasi yaxshi rivojlangan. Xususan, jezdan har xil taqinchoqlar: bilakuzuklar, sirg'alar, oynaya, munchoqlar yasashgan. Qurol yarog'lar – oybolta, tig'li pichoqlar, nayza, poykon uchlari kabi harbiy qurollar qilingan. O'roq, bolg'a, bolta kabi mehnat qurollari bo'lgan. Lekin, mutaxassislar fikricha, qanchalik jez qurollari yasalmasin bu jamoalar turmushidan tosh qurollari to'laligicha chiqib ketmagan.

Vatanimizning cho'l sarhadlarida yana bir Amirobod madaniyati tadqiq etilgan. Bu madaniyat 1940 yili S.P.Tolstov tomonidan Amudaryoning quyi havzasida o'rganila boshlangan. 1950 yillarda Amirobod madaniyatiga tegishli qator yodgorliklar ochildi. Ular ichida materialga boy va shu madaniyat haqida to'liq tasavvur bera oladigan nisbatan yaxshi o'rganilgan yodgorlik Yakka Parson 2 yodgorligi hisoblanadi. Bu yodgorlik tadqiqotida 20 ga yaqin uy-joy komplekslari - yer to'la tipidagi kulbalar qazildi. Mana shu kulbalar maydoni va atrofidan g'alla ko'milgan o'ralar, xo'jalik omborlari, o'choq va gulxan qoldiqlari, ko'plab sopol buyum parchalari hisobga olindi. Xususan, tosh yorg'ochloqlar, bir tig'li jezdan yasalgan pichoqlar, o'roq, biigz qoldiqlari topilgan. Har bir kulbaning o'rtasida o'choq bo'lib, bu uylarning har biri bir juft oilaga tegishli ekanligidan dalolat beradi. Sopol idishlari hali qo'lda yasalgan. Ularning shakli va xili ham chegarali bo'lib, xurmacha va kosa, bonkasimon idish hamda sopol qozonlardan iborat edi. Idish sirti qizg'ish qoramtir rangda pardozlangan. Uning yuqori qismi geometrik shaklda ishlangan chizikli naqshlar bilan bezatilgan. Amirobod madaniyati topilmalari ichida jezdan ishlangan quloqli ignalar, ikki paraqali jez poykonlari, jez mehnat qurollari yasaydigan tosh qoliqlar ko'plab uchraydi. Bu kabi qurollarning uchrashi hamda Amirobod yodgorliklari tarqalgan hududlardan shu davrga oid irrigasiya izlari hamda ekin maydonlari topqirdlari topilishi so'zsiz Amirobodliklar turmushida chorvachilik bilan birga dehqonchilik xo'jaligi yuksak darajada rivojlanganligini ko'rsatib turibdi. Demakkim, Amirobodliklar o'troq hayot kechiruvchi jamoalar hisoblanadi. S.P.Tolstov fikricha, Amirobod madaniyati Suvyorg'on madaniyatining so'nggi bosqichi madaniyati jez davri taraqqiyotining oxirgi bosqichlaridir. Bu davr mil.avv X-VIII asr lar bo'lib, mazkur qabilalar hayotida ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik, jamiyatda sosial differensialashuv ancha chuqurlashgan.

## **Mavzu:Qadimgi so'g'd sivilizasiyasining tarixiy ildizlari masalasi.**

### **Reja:**

1. Zarafshon vohasi ibtidoiy davr jamoalari moddiy madaniyati
- 2.Zarafshon vohasi ilk dehqonchilik vohalari shakllanishi masalasi
- 3.Zarafshon vohasi so'g'd sivilizasiyasi shakllanishi shart-sharoitlari

Ma'lumki, O'rta Osiyoning janubiy- g'arbiy mintaqalaridagi dehqonchilik hududlarida yashagan ibtidoiy jamoalar metallardan har xil mehnat qurollari yasab, unumli foydalanib kelayotgan bir vaqtda uniig shimoliy- sharqiy, hatto markaziy muzofotlarida yashab kelayotgaya aholi hali metall bilan tanish emas zdilar. Bu ibtidoiy jamoa tuzumining neolit boskichida yashab, ular metall bilan faqat mil. avv. III minginchi yillikning oxirlari va II minginchi yillikning boshlaridagina birinchi bor tanishdilar. Ammo, ularning manzilgohlari Janubiy Turkmaniston dehqonlarining qishloqlaridek qalin madaniy qatlamlarga ega bo'lmay, balki qisqa muddatli makonlar tipidagi «qishloqlar» edi. Ana shunday manzilgohlardan bir guruhi Zarafshonning quyi oqimida Kaptarning qumi va Katta Tuzkon-35 manzilgohlari misolida o'rganilgan. Bu makonlar 1960-yillarning boshlarida Ya.G'.G'ulomov rahbarligida A.Asqarov va U.Islomovlar tomonidan o'rganilgan edi. Ularda madaniy qatlamlar buzilib ketgan. Topilmalar shu sababdan yer yuzasida sochilib yotardi. Topilmalar tarkibida mis qurollarning parchalari, sopol siniqlari ko'plab uchraydi, tadqiqotchilarning fikriga qaraganda, ular mil. avv. 3-2 ming yillikniig chegarasida yashagan eneolit davri ypug' jamoalarining kulbalari qoldiqlaridan iborat edi.

Keyingi yillarda eneolit davriga oid sopol siniqlari Zarafshon voxasining yuqori qismida Sarazm yodgorligidan ko'plab topildi. Sarazm o'dgorligining umumiy maydoni 90 gektardan iborat. Yodgorlikda arxeolog A.Isoqov bir necha yillar davomida qazishmalar olib borib, uning ma'lumoticha yodgorlik ko'p madaniy qatlamli bo'lib, bu makonda Zarafshon vodiysining qadimgi dehqonlari eneolitdan to so'nggi bronza davriga qadar yashagan va o'ziga xos madaniyat yaratishgan.

### **Zamonbobo madaniyati**

Zarafshon vohasi miqyosida ilk dehqonchilik xo'jaligi mavjud bo'lgan jamoalar madaniyati Zamonbobo madaniyati nomi bilan fanda tadqiq etilgan. Bu madaniyat xo'jalik asosini honaki chorvachilik va motiga dehqonchiligi tashkil etadi. Zamonbobo madaniyati 1950 yili Ya.G'.G'ulomov tomonidan kashf etilgan bo'lib, 1951-1952 yillari hamda 1960 yilda atroflicha tadqiq etilgan. Asosan, yorma o'ra shaklidagi qabrlar ochilgan. Mozorlardan yaproq bargsimon paykonlar, osti yassi hamda tuxumsimon sopol idishlar, jezdan yasalgan ko'plab munchoqlar, bilakuzuklar, oyna, igna, bigiz kabi ashyoviy buyumlar topildi. A.Asqarov Zamonbobo madaniyatiga oid qabrlarni Gurdush-gujayli o'zani yon qirg'og'idan topib o'rgangan. Zamonbobo madaniyatiga oid qishloqlardan urug' jamoasiga tegishli yerto'la tipidagi kulba qoldig'i, yengil chaylasimon turar-joy o'rni, ikki yarusli xumdon qoldiqlari hamda qishloqni daryo tomonidan damba sifatida o'rab olingan ko'tarma devor qoldiqlari ochib o'rganilgan. Yerto'lalar maydoni 200 metr kvadrat bo'lib, ular ichida

qator o'choqlar, kulbaning karkaslari, ustuni, chuqurchalari topilgan. Bular dehqonchilik, chorvachilik xo'jaligiga asoslangan jamoalarning qishloqlari hisoblanadi. Quyi Zarafshon daryo o'zani yonlaridan Ya.G'.G'ulomovlar qator mil.avv II minginchi yillikga oid Andranov madaniyatiga tegishli yodgorliklarni ham topgan. Ular Gurdush-gujayli o'zanlari yonidan Qizilqir yaqinida topilgan. Bu kabi yodgorliklar Samarqand yaqinidagi Mo'minobod, Chaka qishloqlarida ham o'rganilgan. Olimlar fikricha, mil.avv II minginchi yillik ikkinchi yarmida O'rta Osiyoning shimoliy, shimoliy- sharqiy qismlaridan bu hududlarga ko'chmanchi chorvado qabilalari siljib kelishidan Andranova tipidagi yodgorliklar hosil bo'lgan. Ba'zi olimlar fikricha, Andranova nomi bilan yuritilayotgan yodgorliklar ham topilgan antropologik topilmalar mahalliy Zamonbobo, Sopolli yodgorliklari antropologik tipi bilan bir xil degan fikrni bildirishmoqda. Zarafshon vohasida kuzatilgan ikki madaniyat xo'jalik asoslari bir tomondan cho'l zonasi ko'chmanchi chorvadorlar madaniyati, ikkinchi tomondan mahalliy dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi o'troq aholilar madaniyati o'zaro ta'siri, uyg'unligi keyingi tarixiy taraqqiyotlarda yaratilgan madaniyatlarga asos bo'lgan.

Shu o'rinda Zarafshon vohasida ilk ishlab chiqarish iqtisodiyoti shakllanishi borasida tadqiqotlarda qo'lga kiritilgan ma'lumotlarga to'xtalish maqsadga muvofiqdir. O'zbekiston, xususan, Zarafshon vohasi Sharq dunyosida qadimgi madaniyat markazlaridan biri hisoblanadi. Zarafshon vohasi vatanimiz tarixiy taraqqiyotini ifodalab beruvchi moddiy madaniyat yodgorliklariga serob hududlardandir. Keyingi arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra voha ilk paleolit davridanoq odamzod tomonidan o'zlashtirilib, tosh asrining keyingi taraqqiyot bosqichlari barchasida uzluksiz, mahalliy madaniyatlar negizida vorisiylik asosda madaniyatlar yaratilganligi, tadrijiy rivojlanish bo'lganligi ma'lum bo'ldi va ular arxeologik materiallarda tasdig'ini topdi. Vohaning shu ketma-ketlik madaniyat tizimida neolit davri jamoalari moddiy madaniyatining ham o'ziga xos o'rni bor. Yuqorida O'rta Osiyo, xususan O'zbekiston neolit jamoalari xo'jalik mashg'ulotlari to'g'risida ma'lumotlarni keltirdik. Shu nuqtai nazardan, Zarafshon vohasida ilk ishlab chiqarish iqtisodiyoti shakllanishi qanday darajada kechganligi masalasini yangi arxeologik tadqiqotlar yutuqlariga tayanib imkoniyat darajasida yoritmoqchimiz. Oqtanga makoni tadqiqotlari natijalarini hisobga olmasak, Yuqori Zarafshon vohasida neolit davri jamoalariga tegishli yodgorliklar o'rganilmagan. Quyi Zarafshon vohasi va uning tarkibiy qismi bo'lgan uchta qadimiy o'zanlarida kaltaminor jamoalari yashaganligi tadqiqotlarda aniqlandi va ular moddiy madaniyati kaltaminor tarixiy-madaniy jamoalari madaniyatining mahalliy harakterdagi Quyi Zarafshon madaniy varianti sifatida fanga kirgan. Bu jamoalar xo'jalik mashg'ulotlari termachilik, ovchilik va baliqchilikdan iborat bo'lganligi to'g'risida yuqorida ma'lumotlar keltirildi. O'rta Zarafshon vohasi Qoratepa tog' massivi shimoliy-yon bag'rida sazog'on neolit madaniyati tadqiq etilgan. Bu jamoalar xo'jalik mashg'ulotlari to'g'risida ma'lumotlarni bayon etishdan oldin ibtidoiy odamzod o'z turmushida ishlab chiqarish iqtisodiyotiga o'tishda o'zlari

yashab turgan joy landshafti, tabiati, iqlimiy sharoiti naqadar muhim rol o'ynaganligi faktini keltirmoqchimiz. Soha tadqiqotchilari bu faktorlarga e'tibor qaratishgan. Xususan, N.I. Vavilov o'z tadqiqotida tog'liq mintaqalarning subtropik qismida yovvoyi o'simliklarni madaniylashishiga ko'proq imkoniyat, shart-sharoitlar bo'lganligini alohida ta'kidlaydi. Shu joylarda o'sgan yovvoyi boshhoqli, donli o'simliklar so'li, arpa, bug'doylarning gibridlashuvi, madaniylashuviga vositachi bo'lgan. Yaqin Sharq, Janubiy- G'arbiy O'rta Osiyo (Kopetdog' yon bag'irlari, joyitun jamaolari), Markaziy va Janubiy Tojikiston hududida (hisor jamaolari) ilk dehqonchilik xo'jaligiga ega bo'lgan yodgorliklarning o'rtacha balandlikdagi tog'lar yon bag'ri yoki alohida tog' vohalar daryolari, yirik soylarning soz tuproqli yon qayirlarida joylashganligi fakti N.I.Vavilov fikrining to'g'riligini tasdiqlaydi. V.A.Ranov ham hisor jamaolari yodgorliklarining joylanishi holatlari Yaqin Sharq neolit yodgorliklariga o'xshashligini alohida e'tirof etgan. Shu nuqtai nazardan, biz ham O'rta Zarafshon vohasi sazog'on neolit jamaolar makonlari Qoratepa tog' massivi shimoliy yon bag'ri yirik soylari (Ohalik, Mironqul, Tapaqul, Egriqulcha, Sazog'on kabi) soz tuproqli yon qayirlarida joylashganligi faktidan kelib chiqib bu holat jamaolarning dastlabki dehqonchilik yumushlari bilan shug'ullanishlariga imkon bergan deb fikr bildiramiz. Yaqin vaqtlargacha Zarafshon vohasi miqyosida dastlabki o'troq dehqonchilik madaniyati Zamonbobo, Sarazm yodgorliklari misolida tadqiq etilgan edi. O'z vaqtida tadqiqotlarimizda sazog'on jamaolari turmushida ishlab chiqarish iqtisodiyoti kurtaklari borligi haqida dastlabki ma'lumotlarni keltirgan edik. Shu e'tirofni keyingi yillarda sazog'on madaniyatining yangi kashf etilgan yodgorliklari (Jangal 1, Tapaqul 3, Tapaqul 4, Lolab, Ochil g'or makonlari) tadqiqotlari natijalari to'liq tasdiqladi va endi Zarafshon vohasida ilk ishlab chiqarish iqtisodiyoti neolit davri jamaolari turmushida sodir bo'lgan deb dadil aytamolamiz. Buni Sazog'on 2, Jangal 1, Tapaqul 3,4 makonlar madaniy qatlamidan ilk dehqonchilikdan darak beradigan qadama qurollar, yorg'uchoqlar, donni ezish bilan bog'liq bo'lgan tosh buyumlar ko'plab topilishi isbotlab turibdi. Bu materiallarning Yuqori Zarafshon vohasidagi sarazm yodgorligi arxeologik ashyolariga o'xshashligiga, sarazm madaniyatining sazog'on neolit madaniyati negizida shakllanganligi va avtohton madaniyat ekanligiga o'z tadqiqotlarimizda e'tibor qaratganmiz. Ma'lumki, sarazm o'troq dehqonchilik madaniyati hisoblanadi. Sazog'on jamaolari madaniyatining sarazm madaniyatiga o'xshashligi ular tosh industriyasi paraqali qismida, shuningdek qadama qurollari, yorg'uchoqlar, donni ezish bilan bog'liq tosh buyumlarida, qisman sopol idishlarida namoyon bo'lgan. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, Sarazm madaniyati, xususan Zarafshon vohasi eneolit va jez davri o'troq dehqonchilik bilan bog'liq jamaolarning madaniyati tub joyli mahalliy madaniyatlar negizida shakllanganligi faktini aytamiz. To'g'ri, bunda innovasiya, diffuziya, migrasiya jarayonidagi madaniy ta'sirni ham inkor etmaymiz.

Zarafshon vohasida neolit jamoalari turmushida ilk ishlab chiqarish iqtisodiyoti bo'lganligini Uchtut chaqmoqtosh ustoxonasida kasbiy mutaxassislashish bo'lganligi fakti ham isbotlab turibdi. Ma'lum kishilar guruhi tosh qurollari yasashning ustolari, bilimdonlari bo'lishgan, shu kasbning sir-asrorini mukammal o'zlashtirgan va kelajak avlodga kasb nuqtai nazardan yetkazgan. Shuningdek, vohada neolit davri jamoalari turmushida ishlab chiqarish iqtisodiyoti bo'lganligi masalasini oydinlashtirishda Quyi Zarafshon vohasida joylashgan Oyoqagitma neolit makonidan yaqinda O'zbekiston- Fransiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan (F. Brunet, M. Xo'janazarov) xonakilashtirilgan hayvon suyaklarining topilishi ham muhim bo'ldi. Tadqiqotchilar mazkur jamoalar chorvachilik xo'jaligi bilan shug'ullanishganliklarini ta'kidlamogda. Yuqorida keltirilganidek, sazog'on madaniyati makonlari, Uchtut chaqmoqtosh ustoxonasi hamda Oyoqagitma makoni ma'lumotlari Zarafshon havzasi O'rta Osiyoning janubiy, janubiy- g'arbiy hududlari singari neolit davrida eng qadimgi ishlab chiqarish iqtisodiyoti bo'lgan markazlardan biri ekanligidan guvohlik beradi. Vohaning keyingi tarixiy taraqqiyot bosqichlari-eneolit va jez davri o'troq dehqonchilik xo'jaligi madaniyati shu neolit jamoalari turmushidagi ishlab chiqarish iqtisodiyotining tadrijiy davomchilari, vorislari hisoblanadi.

Xullas, Zarafshon vohasida kechgan tosh davri jamoalarining uzluksiz, avtohton tarzidagi madaniyatining tadrijiy davomi tarixiy taraqqiyotning eneolit, jez va ilk temir (Sarazm, Zamonbobo, To'qayli, Afrosiyob, Ko'ktepa va h.k) davri jamoalari madaniyatida kuzatiladi. Metallning kashf etilishi jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o'ynadi: o'troq sug'orma dehqonchilik kashf etildi: sivilizasiyaning asoslaridan bo'lgan urbonik, shaharlashish jarayoni rivojlanib ketdi; ma'naviy taraqqiyotda o'zgarishlar bo'ldi; mulkiy tabaqalanish asosida dastlabki davlat ko'rinishlari, shakllari yuzaga kela boshladi. Shu kabi omillar Zarafshon vohasi qadimgi sivilizasiyasini shakllantirgan. Bu qadimgi sivilizasiya mazmunida, shubhasiz voha miqyosida kechgan ilk ishlab chiqarish iqtisodiyoti shakllanishi va rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etadi, uning tarixiy ildizlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

## **Mavzu: Qadimgi Shosh va Farg'ona sivilizasiyasining tarixiy ildizlari masalasi.**

### **Reja:**

1. Farg'ona va Toshkent vohasi ibtidoiy davr jamoalari moddiy madaniyati
2. Farg'ona va Toshkent vohasi ilk dehqonchilik vohalari shakllanishi masalasi
3. Qadimgi Shosh va Farg'ona sivilizasiyasi shakllanishi shart-sharoitlari

Sirdaryo etagida joylashgan Tagisgken movzeleyi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy tengsizligi, sosial tabaqalanish to'g'risida ma'lumotlar beradi. Bu yodgorlik so'nggi jez va ilk temir davriga oid jamoalariga tegishli. Shuningdek, mil.avv II minginchi yilning ikkinchi yarmiga oid Toshkent yaqinidagi Achiko'l, Toshkent dengizi yaqinida Farg'ona vodiysining Qayroqqum, Dahana yodgorliklari ham bu davr to'g'risida muxim ma'lumotlar berdi. A.P.Okladnikov, B.A.Litvinskiy, B.Z.Gamburg, N.G.Gorbunova kabi tadqiqotchilar bu borada qiziqarli izlanishlar olib borishdi. Toshkent va Farg'ona vodiysi cho'lli sarhadlarida chorvachilik dehqonchilikga nisbatan yaxshiroq rivojlangan. Aksincha, Xorazm hududlarida B.A.Andrinovning ma'lumoticha, dehqonchilikda sun'iy irrigasiya inshootlari ko'plab qurildi. Qirg'izistonning Talas, Chuv vodiylarida Andranova madaniyatiga oid topilmalar ko'plab topilgan. Ularning mozorlari Xorazm, Zarafshon vohasi yodgorliklaridan o'z tuzilishi, jasadlarining kuydirilishi bilan farq qilgan. Tojikistonning Kofirnigon, Vaxsh vodiylarida bu davrga oid jamoalar turmushida chorvachilik dehqonchilikga nisbatan ustun bo'lgan. Sababi, bu sarhadalar geografik va ekologik sharoiti bu xo'jalik turi rivojlanishiga imkon berdi. Tulxar, Aruqtov yodgorliklari A.M.Mandel'shtam tamonidan tadqiq etilgan. Keyingi yillar moboynda L.T.P'yankova Janubiy Tojikistonning Xisor vodiysida bronza davriga oid Kangurtut makonida, N.M.Vinogradova esa Teguzak makonida tadqiqot ishlarini olib borishdi. Bu ikki qadimgi qishloq ham tog' yon bag'rlaridagi adir zonasida joylashgan bo'lib, ularda uy poydevori, xatto devorlari ma'lum balandlikda toshdan qalangan uy qoldiqlari ochildi. Bu yodgorliklardan Andranova madaniyati materiallariga o'xshash hamda Sopolli madaniyatining Mullali kompleksiga oid sopol buyum parchalari topildi. Bu yodgorliklar mil.avv II minginchi yillikning oxirgi chorakiga to'g'ri keladi. Tadqiqotchilar fikricha, bu joylarda so'nggi bronza davrida dehqon jamoalari bilan chorvador qabilalari o'rtasida madaniy- xo'jalik aloqalar aktiv rivojlanishda bo'lgan va ular keyingi taraqqiyot sivilizasiyasiga sharoit bergan.

Jez davri so'nggi bosqichiga kelib jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlarining, iqtisodiyotning yuksalishi kuzatiladi. Bu metallurgiya hunarmandchiligi, chorvachilik, dehqonchilik xo'jaligida ro'y bergan. Bu yuksalishning muxim ko'rinishlaridan biri O'rta Osiyo cho'l zonasi aholilarining bir qismi o'troq hayotga o'tishi hisoblanadi. Bir tomondan cho'lli zona qabilalari chorvachilik xo'jaligida yuksalish kuzatilsa, ikkinchi tomondan ana shu zonaning ekologik jihatdan dehqonchilik uchun qulay rayonlarida sug'orma dehqonchilikning yangidan yangi markazlari shakllanishi kuzatildi. Mil.avv II minginchi yillikning oxiri I minginchi yillikning boshlarida



jamiyatni larzaga keltiruvchi tarixiy jarayonlarni qamrab olgan iqtisodiy baza asosida shaharsozlik madaniyati rivoj topib, ilk davlat uyushmalari shakllanishga shart sharoit yetildi. Shunday markazlarda sivilizasiyalarning tarixiy ildizlari tomir otdi. Shunday dehqonchilik markazlari Chust madaniyati nomi bilan Farg'ona vodiysida, Burg'uluk madaniyati nomi bilan Toshkent vohasida tadqiq etildi. Janubiy O'zbekistonda Kuchuktepa, Zarafshon vohasida Sarazm, Murg'ob vohasida Yoz 1, Kapetdog' tog' oldi rayonida Anov 4 madaniyati bilan tadqiq etildi. Janubi- g'arbiy Turkmanistonda Dahiston madaniyati o'rganilgan bo'lib, Izzatko'li, Madautepa kabi yodgorliklar muxim ma'lumotlar berdi. Yoztepa 1 madaniyati Marg'iyonada yaxshi o'rganilgan. Yoztepa, Aravalitepa yodgorliklarida hunarmandchilik, dehqonchilik rivoj topganligi to'g'risida muxim ma'lumotlar qo'lga kiritilgan. O'tgan asr 70 yillari Yoz 1 madaniyatiga o'xshash O'zbekiston miqyosida yuqorida zikr etilgan madaniyatlar yaxshi o'rganilgan. A.Asqarov Chust, Burg'uluq, Sarazm kabi bronza davri so'nggi bosqichlariga oid madaniyatlarni shakllanishini mahalliy chorvador aholining bir qismi o'troqlashish hayot turmushi ya'ni, dehqonchilik xo'jaligiga o'tishi bilan bog'liq deb hisoblaydi. Shunday qilib, mil.avv I minginchi yillikning boshlarida dehqon jamoalari madaniyati jadallik bilan rivojlangan. Buni Kuchuktepa kompleksi misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Kuchuktepa madaniy kompleksini ko'p jihatlari bilan Chust madaniyati aynan o'xshash. Bu o'xshashlik bir jihatdan madaniy xo'jalik birligi borligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan ular o'rtasidagi etnik birlik o'zaro madaniy aloqani isbotlaydi.

Miloddan avvalgi II minginchi yillikning oxiri va I minginchi yillikning birinchi choragida O'zbekiston territoriyasida tashkil topgan qadimgi dehqon jamoalarining yana bir markazi Farg'ona vodiysida o'rganilgan Chust madaniyati edi. Chust madaniyatiga tegishli birinchi yodgorlik 1950 yili M.E. Vorones tomonidan hozirgi Chust shahridan 2-3 km chamasi shimolda, qadimgi soy sohilida topildi. Shu madaniyatga tegishli ikkinchi yirik dehqonchilik markazi 1952 yili Yu.A. Zadneprovskiy tomonidan Andijon oblastining Oyim rayonida Dalvarzintepada topilgan. Hozirgi vaqtda Farg'ona vodiysida Chust madaniyatiga tegishli yodgorliklar soni 80 tadan oshib ketdi.

Chust madaniyati yodgorliklari Farg'ona vodiysida 15 ta geografik rayondan topib o'rganildi. Ular asosan Farg'ona vodiysining shimoliy va sharqiy rayonlarida keng tarqalgan. Shimoliy rayonlarda esa Qoradaryo va unga kelib qo'shiladigan tarmoqlar havzasida keng tarqalgan. Yu.A. Zadneprovskiyning xabar berishicha, Chust madaniyatining yirik yodgorliklari Buvonomozorda o'rganilgan Chust qishlog'i (4 ga), Dahqontepa (5 ga), Ashqltepa (10ga) va Dalvarzintepa (25ga) bo'lib, ular atrofii mudofaa devorlari bilan o'rab olingan.

Chust madaniyatida metallurgiya hunarmandchiligi keng rivojlangan. Chust va Dalvarzinda turli xil bronza predmetlarini ishlab chiqarish uchun qoliplar topildi. Bu qoliplarda oyna, o'roqlar, pichoq, bigiz, iskana kabi predmetlar qo'yilgan. Metall Chust madaniyatida sopol qozonlarda eritilgan. Bronza buyumlari orasida, ayniqsa, o'roq, pichoq, bigiz ko'plab uchraydi. Bronza va

suyakdan ishlangan otning jabduq va suvligi, oyna, bilakuzuk, halqa-sirg'alar ham topilgan.

Chust madaniyatida kulolchilik keng rivojlangan. Ammo hali chustliklar kulolchilikda charxdan foydalanishni bilmas edilar. Sopollarga qizil jilo berilib, so'ng xumdonlarda pishirilgan. Afsuski, hozirgacha Chust madaniyati xumdonlarining konstruksiyasi ma'lum emas. Sopollar mo'rt, notekis pishgan. Ularning sirti och qizil, to'q qizil va qoramtir bo'lib, xumdonga qadar yaxshi pardoziqlangan. So'ng qora rang yordamida, sirtiga geometrik shakldagi har xil gullar solingan.

Chust madaniyati xo'jaligida dehqonchilikning mavqeyi katta. Aholi xonaki chorvachilik bilan ham shug'ullangan. Dehqonchilikda yer omoch bilan haydalgan ekinzorlar bir necha bor sug'orilgan. Boshhoqli ekinlardan arpa, bug'doy, tariq ekish keng rivojlangan. G'alla Farg'ona vodiysida yaqin gacha rasm bo'lgan o'ralarda saqlangan.

Shunday qilib, miloddan avvalgi II minginchi yillikning oxiri va I minginchi yillikning birinchi choragida Farg'ona vodiysida chust yodgorliklari misolida qadimgi dehqon jamoalari madaniyatining tarkib topishi va intevsiv rivojlanishini kuzatamiz. Bu madaniyat aholisi antropologlar fikricha, qadimgi mahalliy xalq bo'lib, ular Sharqiy O'rta dengiz Yevropa tipiga kiritilmoqda. Ular ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda ibtidoiy jamoa tuzumining eng oxirgi bosqichlarini o'z boshidan kechirmoqda edi. Farg'ona vodiysida Chust madaniyatidan so'ng ilk temir davrining Elatan madaniyati boshlanadi.

1940 yilda A.I. Terenojkin Toshkent kanali trassasi bo'ylab va Toshkent oblastining har xil rayonlarida arxeologik kuzatishlar olib borib, qadimgi dehqon jamoalarining bir qancha makonlarini topdi va ularni Buzganlisoy zonasida topilgan materiallar asosida Burganli yoki Burg'uluk madaniyati deb atadi. U Burg'uluk yodgorliklarini ikki etapga ajratdi. A.I. Terenojkin xronologik davriy sistemasiga ko'ra, har xil punktlardan tasodifan topilgan bronza predmetlar Burg'uluk 1 kompleksini tashkil etsa, arxeologik qazishmalar vaqtida topilgan yerto'la tipidagi kulbalar, ularning materiallari Burg'uluk 2 kompleksini tashkil etadi. Bu kulbalar o'rnida qisman xom g'isht parchalari ham uchraydi. Umuman, Burg'uluk madaniyati uchun tosh yorg'o'choqlar, yarim doira shaklidagi osti yassi kosa - tovoqlar, sharsimon qorinli sopol qozonlar xarakterlidir. Sopol qozonlar odatda ikki quloqli bo'lib, ba'zan ular tarnov shaklidagi keng jo'mrakli bo'lgan. Ba'zi kosalarning gardishi bo'ylab sodda geometrik rangli naqshlar uchraydi. Sopollar mutloqo qo'lda ishlangan. Burg'ulukliklar hali kulolchilik charxini bilmas edilar. Burg'uluk kulbalarini qazish vaqtida ko'plab qoramol va mayda shoxli hayvon suyaklari uchragan.

Burg'uluk madaniyati arxeologik kompleksi Farg'ona vodiysining Chust madaniyati va O'rta Osiyo janubiy rayonlarining Kuchuk, Yoztepa komplekslari bilan madaniy va xo'jalik birligini tashkil etib, ular o'rtasida etnik birlik ham bo'lganligidan guvohlik beradi. Xullas, Burg'uluk madaniyati Toshkent vohasining

eng qadimgi dehqon jamoalarining madaniyati bo'lib, ana shu madaniyat bazasida keyingi asrlarda Toshkent regionida urbanizatsiya prosessi rivojlandi. Bu madaniyat kelib chiqishi jihatidan yerli chorvador qabilalar bilan bog'liq bo'lib, ulardan bir qismining geografik qulay rayonlarida asta-sekin o'troq hayotga yetishi natijasida shakllangan.

**Mavzu: Marg'iyona sivilizatsiyasining tarixiy ildizlari masalasi.**

**Reja:**

1. Janubiy Turkmaniston ibtidoiy davr jamoalari moddiy madaniyati
2. Murg'ob vohasi ilk dehqonchilik vohalari shakllanishi masalasi
3. Marg'iyona sivilizatsiyasi shakllanishi shart-sharoitlari

Metallning dastlab misning kashf qilinishi, undan turli-tuman mehnat qurollari yaratilishining muayyan darajada ishlab chiqarish unumdorligini oshirdi va qurilish binokorlik - rivojlanib, uning markazlari sifatida yirik aholi punktlari shakllana boshladi. Tarixiy taraqqiyotning eneolit davrida sodir bo'lgan bu o'zgarishlar tufayli madaniy-xo'jalik markazlari tashkil topib, urbonik sivilizatsiyaning muhim elementlari namoyon bo'ldi.

Arxeologiya fanining yutuklariga binoan eneolit davri taraqqiyotini bir necha evolyusioy bosqichlarga bo'lish mumkin. Bu xronologik tarif birinchi bor nemis arxeologi G.Shliyer tomonidan Janubiy Turkmanistondagi Anovtepa misolida ishlab chiqilgan zdi. 1904-yili amerikalik R.Pompelli Janubiy Turkmanistonga ekspeditsiya uyushtirgan edi. Uning tarkibida nemis arxeologi G.Shmidt ham qatnashib, uning raxbarligida Anovtepada arxeologik qazishmalar olib borildi. Arxeologik izlanish natijasi shuni ko'rsatdiki, Anovtepa-4 madaniy qatlamdan iborat bo'lib, Sh.Shmidt bularni Anov I, II, III va IV taraqqiyot bosqichlariga bo'ldi. Arxeolog olimlar Pompelli - Schmidtning bu xronologik sistemasidan rosa 50 yil foydalandilar. Birok, ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda, xususan, 50-60- yillarda Margiyona va Baqtriya miqyosida muayyan arxeologik tekshiruv ishlari bajarildi va fanning yangi qirralari oydinlashtirildi. Masalan, 50-yillarning boshlarida B.A.Kuftin Janubiy Turkmanistondagi Namozgoxtepadagi arxeologik qazishmalar o'tkazib, bu mintaqa bo'yicha o'troq dehqon jamoalari tarixining yangi xronologik davri sistemasini taqdim qildi. Unga ko'ra qadimgi dehqon jamoalarining eneolit va bronza davri tarixi 6 ta taraqqiyot bosqichga bo'linadi, B.A.Kuftin bu bosqichlarni Namozgox, I, II, III, IV, V va VI deb atab fanga kiritdi. Keyinchalik V.M.Masson B.A.Kuftin tadqiqotlarining davomchisi sifatida uing xronologik davri sistemasiga tub o'zgarishlar kiritma olmasada, o'sha 6 bosqichning xar birini ikkitadan bosqichga bo'lib o'rganish mumkinligini isbotlab berdi. Sh.Shmidt va B.A.Kuftin xronologik davriy sistemasini bir-biri bilan solishtirilsa Anovning «A» fazasi neolitga tegishli bo'lib, Anov I «B» esa Namozgox. I ga tengdir. Anov II Namozgox II ga barobar, Anov III - Namozgox, III, IV, V va VI ga tengdir. Anov IV ilk temir davriga taalluqlidir. O'rta

Osiyo ibtidoiy jamoa tuzumi tarixining Namozgox, V, VI bosqichlari Janubiy Turkmanistonda eneolit asri hisoblanadi.

Tajribali arxeolog olim - V.M.Massonning fikricha, Janubiy Turkmaniston dehqon jamoalari tarixi eneolit davri mil. avv. V minginchi yillikning oxirlaridan boshlanib, u to III minginchi yillikning birinchi choragigacha davom etgan. Shunday qilib, Janubiy Turkmaniston jamoalarining taraqqiyot bosqichlari ishlab chiqildi. Unga ko'ra Namozgox I ilk eneolit, Namozgox II o'rta eneolit, Namozgox. III so'nggi eneolit, Namozgox. IV ilk bronza davri, Namozgox V rivojlangan bronza davri, Namozgoh VI Namozgoh madaniyatining so'nggi bosqichi hisoblanadi. O'rta Osiyoda eneolit davrida sug'orma dehqonchilik va xonaki chorvachilik ibtidoiy xo'jalikning asosini tashkil etgan.

Paleografik tadqiqotlarga qaraganda, eneolit davrining ob-havosi. jo'g'rofik iqlimi xozirgi davrdan ancha farq kilib, u vaqtda yogingarchilik nisbatan ko'p bo'lgan. Tog' oldi soylaridan hosil bo'lgan jilg'a - sel suvlari cho'l mintaqalari ichkarisiga oqib borgan. Ana shunday suvli soylarning o'rta oqimlari voxalarida eneolit davri qishloklari qad ko'targan. Bu jamoalar asta-sekin o'sha soylarning quyi oqimiga, hamda Janubiy Turkmanistonning Tejen singari azim daryolari quyi oqimigacha borib yetdilar. Yangi dehqonchilik yerlarini o'zlashtirish jarayoni, ayniqsa, Namozgox I davrining oxiri va Namozgox II davrida birmuncha jadallashadi.

Janubiy Turkmanistonning eneolit davri yodgorliklarida muvaffaqiyatli va keng ko'lamda olib borilgan ilmiy tekshirishlar o'tgan asrning 50-60- yillari bilan bog'likdir. Makonlarni tekshirishda B.A.Kuftin, V.M.Masson, V I.Sarianidi, O.K.Berdiyev va I.N.Xlopin hamda boshqalar katta xizmat ko'rsatdilar. Ma'lum bo'ldiki, eneolit davrida Geoksyur vohasi keng o'zlashtirilib, yirik dehqonchilik qishloq markazlari vujudga kelgan. Arxeolog olimlar turar joylarni qazib tekshirish bilan bir vaqtda qadimgi sug'orish tarmoqlari va sug'orish yerlarining chegaralarini anikladilar. Bu vohada rivojlangan eneolit davriga oid qadimiy kanallar topishdi. Ma'lum bo'ldiki, geoksyurlik dehqonlar Tejen daryosi tarmoklaridan chikarilgan suv manbai asosida xo'jalik yuritib, ariqlar qishloqdar oldigacha tortilib borilgan. Kadimgi kanallarning uzunligi 5 km, chukurligi 1,2 metrgacha bo'lgan. Olimlar tomonidan o'sha davr qishloqlarining va uy-joylarining tipi, qurilish vositasi va texnikasi haqida qiziqarli arxeologik manbalar to'plandi. Ma'lum bo'ldiki, Geoksyur vohasida yashagan dehqon jamoalar, xatto ilk eneolit davrida (Namozgox, I) urug' jamoalari maydoni keng makonlarda yashagan ekan. Xar bir qishloq, masalan, Yassitepada bir-biriga zich qilib qurilgan qator bir xonali uylardan tashkil topgan. Xar bir juft oilalarga tegishli bo'lib, unga ona oila boshlig'i sifatida uni boshkargan. Boylik hali umumjamooaniki hisoblanib, uni yaratishda oilaga boshqa urug'dan vaqti-vaqti bilan kelib turuvchi erkaklar kumaklashib turgan (Xlopin I.N., 1964, 240).

Ilk neolit davrida (Namozgox I) uy-joy qurilishida joytunliklarda ishlatilgan guvala emas, bu jamoalar birinchi marta, xom g'isht ishlatganlar. Xona devorlari somonli loy bilan shuvalgan. Uylar endi kvadrat shaklda bo'lib, hamon tor, maydoni 10 kv.m. ga yaqin bo'lgan. Uyga kiraverishda odatda, so'l tomonda kvadrat

shaklidagi ishlatilgan o'choq joylashgan, Arnaning bir chekkasida past devor bilan qurilgan xonacha bo'lib, u oilaning g'alla saqlaydigan «omborchasi» bo'lgan bo'lishi mumkin.

Namozgoh I davrinikg bir xonali uy-joy qurilish sxemasi, ayniqsa, Geoksyur vohasining Dashtlitepa qishlog'ida yaxshi o'rganilgan. Shuning uchun ham bu davrni arxeologik adabiyotlarda «Dashtlitepa» bosqichi ham deb yuritiladi. Dashtlitepa qishlog'ini tekshirish tufayli bu yerda uch kator madaniy qatlam borligi aniqlandi. Qishloqling chor atrofi mudofaa devor bilan o'rab olinganligi urbonik sivilizasiyaning ilk elementlaridan dalolat beradi.

Kishloqlarning bosqichma-bosqich taraqqiyot evolyusiyasini Namozgod II davrida kuzatish mumkin. Masalan, bu davr, ya'ni o'rta eneolit qishloqdarining maydoni endilikda avvalgidek keng, ammo yirik qishloqlar atrofida mayda qishloqlar dam paydo bo'lib, yirik qishloqlardan biri asta-sekin vohaning markaziga aylana borgan. Namozgox II davri madaniyatini yaratgan qadimgi dehqonlar atrofi devorlar bilan o'ralgan qishloqdarda, paxsa yoki g'ishtlardan qurilgan uylarda yashagan. Uy-joylaryaing ayrimlari o'zining aylana shaklini saqlab kolsada, lekin to'rtburchak shaklidagi uylarning soni ko'payadi. Bu manzara uy-joy qurilishi dinamikasidan guvohlik beradi. Odatda, bu uylarning eshiklari janubga yoki shimol tomon karatilgan bo'lib, xonalar ichida ovkat tayyorlash uchun o'choklar o'rnatilgan. Namozgox II davri uy qurilishining rejalashtirilishi Geoksyur vohasining Yalang'ochtepa, Mulolitepa singari yodgorliklarda yaxshi o'rganilgan. Geoksyur vohasi uchun eneolit asrining bu davri «yalang'och bosqichi» ham deb yuritiladi. Yalang'och boskichida urug' jamoalarining qishloqlari mudofaa devorlari bilan o'rab olinadi. Ammo hali qishloqlarning hamma hududi devor ichiga olinmagan, balki ularning markaziy qismigina devor bilan o'rab olingan. Eneolitniig o'rta (Namozgox, II) bosqichida mudofaa devorlari ko'p burchakli bo'lib, har bir burchakning uzunligi 8,5-10 metrga teng bo'lgan. Ikki burchak uchrashuv nuqtasida doira shaklida xona joylashgan bo'lib, ularning eshiklari qishloq ichiga qaratilgan. Mudofaa sistemasida joylashgan bu xonalarni V.M.Masson bo'lajak mulla burj bo'lsa kerak, deb hisoblaydi.

Jamoa a'zolari yashaydigan xonalar avvalgidek, maydoni 10 kv.m. dan oshmaydi. Ularning o'chog'i eshikdan kiraverishda, chap devor tagida joylashgan. Yalang'och bosqichi uy-joy qoldiklari birgina Mo'loli va Yalang'ochtepalar misolida o'rganilib qolmay, balki ular Oktepada, Geoksyur-1, 7, 9 nomli tepaliklarda (Namozgox P) uy-joylarining tuzilishi jihatidan uch guruxga bo'linadi: 1) o'choqsiz to'g'ri burchak shaklidagi uylar; 2) o'chokli to'g'ri burchak shaklidagi uylar; 3) daxlizli uylar. Bu esa Namozgoh II boskichida ko'p xonali uy-joy qurilishi sistemasining dinamik rivojlanishidan guvoxlik beradi. Namozgox II davri ko'p xonali uylar orasida maydoni keng doira shaklidaga xonalar ham uchraydi. Ular odatda urug' jamoasi uylarining markazida joylashgan. Ularning devorlari ancha mustahkam, ularda ikki qismga bo'lingan to'g'ri burchakli o'choklar uchraydi. Ba'zi bir yodgorliklarda jumladan, Anovtepa va Yassitepada shunday o'choqlarning vujudga kelishi, xatto ilk eneolit, ya'ni Namozgoh I bosqichining oxirlaridan

kuzatilgan. Arxeolog olim akademik A.Askarov bunday o'choqli uylarni «O't og'asining uyi» deb hisoblaydi. Qizig'i ham shundaki, eng qadimgi olovga sig'inish ibodatxonalari deb atalgan bu xonalarning yuz tomoni quyosh chiqar tomonga qaratilgan bo'lib, quyoshga, olovga sig'inish qadimdan mavjudligini ko'rsatadi. Bu manzara urbanizasiya sivilizasiyasining eng qadimgi elementlari tarzida namoyon bo'lgan. Mazkur xonalarning ichida xo'jalik o'choqlarining qoldiqlari uchramaydi. Bunday uylar, eneolit davrining yalangoch bosqichidan boshlab olovga sig'inish ibodatxonalari sifatida paydo bo'lgan. Tosh va misdan yasalgak qurollar, arpa, bug'doy donlari va boshqa ashyolar qadimgi geoxsyurliklar asosan dexkonchilik bilan shug'ullanganligini ko'rsatadi. Ularda uy chorvachiligi ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan va bu kabilalar ko'prok, mayda tuyoqli chorva - qo'y va echki boqqanlar.

Eneolit davrining so'nggi boskichi (Namozgox III) ga kelib, uy-joy qurilishi bilan bog'lik jabhalar yanada takomillashganligini ko'ramiz. Jumladan, qadimgi dehqon qishloqlarining egallab turgan maydonlari yanada kengayadi. Bu davr uy-joy qurilishida rejali asosda bo'lganligiga dolatlari Geoksyur vohasida Geoksyur I va Chupontepa, Artik tumanidagi Koratepa misolida keng o'rganilgan, Masalan, Koratepada Namozgoh III bosqichiga tegishli 130 dan ortiq ko'p xonali uy-joy qoldiqlari qazib o'rganildi. Bular aloxida xonalarga mo'ljallangan, xo'jalik komplekslarini tashkil etgan. Ular asosan daxlizli bo'lib, yotokxona o'rtasida sandal o'rni saqlangan. Bu ko'p xonali uy tarkibida biroz torroq kichik xona bo'lib, unda o'choq yoki sandal qoldiklari kuzatilmaydi. Bunday xonalarni A.Askarov oila «ombori» bo'lsa kerak, deydi. Bu davrda qishloqlarning rivojlanishida yana bir ko'zga tashlanadigan yangi element bu quruvsiz uchastkasining paydo bo'lib, u o'ziga xos bo'sh maydondan iborat bo'lib, bu xodisa ularning ayrimlari ko'p xonali uy massivlariga tor ko'chalar orqali kelib qo'shilgan. Ana shunday joylarda kichik qishloqlarning ibodatxonasi joylashgan bo'lishi mumkin, deydi V.M.Masson/ Ammo, xali bu qishloqda ishlab chiqarish markazi masalasi ochiq qolmoqda. Geoksyurda sopol idishlar pishiriladigan alohida joy hali bu davrda ko'rinmaydi. Lekin Oltintepada mil. avv. IV ming yillik oxiri - II ming yillik boshlariga kelib, u yirik qishloq bo'lib, bu yerda sopol idishlar pishiriladigan aloxdaa markaz vujudga keladi va u odatda qishloqning shimoliy-g'arbiy uchastkasida joylashgan. Bu davrning qishloq sistemasi, yuqorida aytilganidex, Geoksyur vohasida birmuncha yaxshi taqdim kilingan. Sababi, ming yillik tarixdan xikoya qiluvchi yodgorliklar yaxshi saqlangan. Geoksyur bu davrda yirik markazga aylanadi, uning atrofidagi 6 ta qishloqlar bo'lib, ular ana shu markazga itoat qilgan. Bunday manzara, ya'ni mayda qishloqlarning yirik markazga itoat qilishi ilk devdon jamoalarining oliy birlik strukturasiidan dalolat berardi. Manzara protoshaxarlarni eslatib, aslida bu holat aholining yirik jamoa birligi yoki biron bir qabila birlashmasidan dalolat beradi.

Namozgox, III, ya'ni eneolitning so'nggi davriga kelib, uy-joy xo'jaliklari komplekslari qoshida hovlilar paydo bo'ladi, hovlilarni birlashturuvchi tor ko'chalar rasmiylashadi. Shu bilan birga qishloqning markaziy kismi esa ochik, maydon sifatida qoldirilgan tor ko'chalariing deyarli hammasi shu maydonga chiqqan. Namozgoh P

davri qishloqlari Geoksyur I yodgorliklarida ham qazib tekshirildi. Bu yerda ham xuddi Qoratepadagidek ko'p xonali xo'jalik komplekslari qazib o'rganildi. Ular bir-biriga tutashgan tor ko'chalar sistemasi orqali yirik madallalarga birlashtirilgan. Xo'jalik komplekslari bazasida bir-birlari bilan hovli maydoni bilan ham birlashtirilgan. Bu manzara bir qishloq ichida bir-biriga qon-qardosh bo'lgan bir necha urug' jamoalarining yashaganligidan guvohlik beradi. Har bir xo'jalik kompleksi dahlizi keng xona va unga yondosh qurilgan «ombor»dan tashkil topgan. Muhimi ham shundaki, Qoratepa xo'jalik komplekslari ichidaga bir xonada doira shaklida qurilgan mehrob topilgan. Qoratepa mehrobi qadimgi dehqonchilik xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi urug' jamoalari tarixida eng dastlabkisi hisoblanadi. Aynan shunday mehrob Geoksyur I qishlog'ida va ularning to'rttasi Chupontepaning Namozgoh III bosqichining so'nggi fazasiga tegishli qatlamidan ham topilgan. Shunday qilib, qadimgi dehqon jamoalari turmushida olovga topinishning yangi ko'rinishi - mehrob paydo bo'ldi. Bu hodisa esa ibtidoiy diniy e'tiqodlarning odamlar turmushmda ma'lum ko'rinishlari shakllanayotganidan guvohlik beradi.

Shunday qilib, qadimgi dehqon jamoalari tarixida Namozgoh III bosqichida ko'p xonali xo'jalik komplekslari keng rasmiylashadi, ular alohida mahallalarga birlashtiriladi, bu mahallalar bir-birlari bilan tor ko'chalar yoki hovli maydonlari bilan ajratiladi. Grajdand qurilishidagi bu o'zgarishlar yirik qishloqlarning asta-sekin ilk shaharlar qiyofasiga o'ta boshlaganligidan dalolat beruvchi eng dastlabki qadamlar edi. Shuning uchun ham arxeologlar O'rta Osiyo tarixida bu davrni «protogorod» (shaharlargacha) madaniyatning ilk belgilari deb hisoblaydilar. Bu elementlarning aksariyat ko'pchiligi Geoksyur yodgorligida keng ko'lamda o'rganiltanligi tufayli eneolit asrining so'nggi davri «Geoksyur bosqichi» nomi bilan yuritiladi.

Namozgoh I-III davrlarida hamon mis noyob va kamchil metall edi. Ishlab chiqarish mehnat qurollari toshdan, suyakdan, qisman misdan yasalar edi. Shuning uchun ham mehnat ishlab chiqarish qurollari dehqonchilik xo'jaligi bilan ko'proq bog'liq edi. Eneolit davri odamlari chaqmoqtoshni juda qadrlardi. Undan qistirma o'roq, pichoq, o'roq, randa, qirg'ich, bigiz, granit va qumtoshdan esa yorg'uchoq, motiga (yerni yumshatish kuroli) va boshqa kurollar yasashgan. Misdan esa asosan mehnat kurollari va har xil taqinchoqlar yasaganlar. Eneolit davriga oid qishloqlarni qazish jarayonida bu buyumlardan tashkari mis bigiz, igna, tug'nag'ich, ilmoqli bigiz, terrakota, marmar urchuqbosh, suyak buguz, moki, igna singari buyumlar topilgan.

Arxeologik kurollar kompleksida o'rta eneolit, ya'ni yalong'och bosqichiga tegishli mis bolta, mis pichoq, hatto nayza ham topilgan. Eneolit davrining so'nggi bosqichi, ya'ni Geoksyur bosqichiga kelganda, misdan ishlangan qurollarning xili va turlari biroz ko'payadi. Endilikda kosmetik mis kurakchalar, xalqasimon isirg'a, uzuk va yarim doira tig'li pichoqlar paydo bo'ladi. Ayniqsa, kulolchilik xunarmandchiligi ancha rivoj topadi. Ammo, hali sopol idishlar ishlab chiqarishda kulolchilikka charxi ixtiro qilinmagan edi.

Janubiy Turkmanistonda xozirga kunlargaacha eneolit davriga mansub 30 dan ziyod kadimgi dehqonchilikka asoslangan qishloq qoldiklari tadqiq etilgan. Ulardan 8

tasi Geoksyur vohasida joylashgan. Arxeologlarning fikricha, Geoksyur vohasida, ayrim dexkonchilik oazislarining aholisi 4-5 ming kishilik umumiy qabila jamoalaridan iborat bo'lgan. Ularning asosiy mashg'uloti sug'orma dehqonchilik hisoblangan. Geoksyur I atrofidagi qadimgi sug'orish maydonlari 50-75 gektardan iborat bo'lib, kanallarning uzunligi 3 km, chukurligi 1,2 metr, eni esa 2,4-5,5 metrni tashkil qilgan, Dexqonchilikda arpa va bug'doy ekish asosiy o'rinda turgan. Qabilalar xayotida mayda chorvachilik katta ahamiyatga ega bo'lgan. Ammo, ovchilik ham qo'shimcha daromad keltirib turgan.

Dehqonchilik mashg'ulotlarida g'allachilik asosiy o'rin tutib, g'alla sopol idishlarda, omborlarda saqlangan. Arxeolog olimlarning fikriga qaraganda, ko'pxonali uylarning devorlari, pollari somonli loy bilan yaxshilab suvalgan. Birok, eshiklar uchun yog'och ishlatilmay. ular hayvon terilari bilan to'silgan, lekin so'nggi eneolit davrida yog'och eshiklar paydo bo'lgan. Qurilish texnikasi bu davrga kelib ancha rivojlangai. Uylar ichida to'rtburchakli yoki xalqa shaklidagi o'choqlar qurilgan, alohida oshxonalar, don caqlaydigan omborxonalar mavjud bo'lib, binolarning o'zi ham turtburchak va dumaloq shakllarda qurilgan,

Ilk va o'rta eneolit (Namozgoh I-II) davrlarida sopol idishlar loyiga maydalangan somon qo'shildirdi. Shuning uchun idishlarning devorlari qalin va mo'rt bo'lardi. Keyinroq, ya'ni Namozgox III davridan boshlab loyga gips aralashtirish boshlanib, oqibatda bu sopol idishlar mustahkam va jarangdor bo'lishni ta'minlagan. Bu davrning dastlabki sopol idishlarining tagi yassi, yarim doira shaklida ishlangan bo'lsa Namozgoh III bosqichiga kelib, idishlarning ba'zi bir xillarida 3 tadan oyoq paydo bo'ldi. Eneolit ustalari tomonidan sopol idishlarni pishirish oldidan sarg'ish, och sariq, och qizil va qizg'ish rang berib so'ng uning ustidan naqsh berilgan.

Masalan, Namozgoh I boskichi idishlariga qora mineral rang bilan geometrik naqsh berilgan. Ammo Namozgox P boskichida sopol idishlarning shakli-shamoyilida aytarli o'zgarish kuzatilmaydi. Sopol idishlar sirtiga solingan geometrik nakdshlar avvalgidek sodda, ammo sopollarga gul solishda ikki xil, ya'ni kora va qizil rang ishlatila boshlanadi. Natijada Namozgox I davrining «monoxrom» nakshga deb yuritilgan sopollari ruknida Namozgox II bosqichida «polixrom» nakshli sopollar paydo buladi. Bundan tashkari idishlar sirtiga odam va xayvon suratlarini solish odati vujudga keladi.

Namozgox Sh bosqichiga kelib, sopol ishlab chiqarishda va sopol idishlarga naqsh solishda Koratepa hamda Namozgoxtepada yana Namozgox I davri an'analari tiklanadi. Ammo Geoksyur voxdsida esa polixrom nakshi davom etadi. Shu tarzda hamma joyda sodda kilib ishlangan geometrik shakllar o'rnida murakkab, jimjimador nozik gullar, «gilam gulli naqsh» deb yurigilgan bezaklar paydo bo'ladi. Sopol sirtiga xayvon va parrandalarning suratlarini tushirish odati yanada keng tus oladi. Sopollarda xayvon va qush suratlarining paydo bo'lishi - bu ibtidoiy urug'doshlik



jamoasi diniy va ideologik tasavvurlarining «totemlar» ko'rinishida namoyon bo'lishining guvohi edi. Yuqorida qisman eslatilganidek, eneolit davri xo'jaligining asosini sug'orma dextdonchilik tashkil etgan. Namozgox P bosqichidan boshlab sun'iy suv omborlari qurilgan. Masalan, Mulolitepa yaqinida qadimgi hovuz qoldig'i o'rganilgan. Uning xajmi 3500 me ni tashkil qiladi. Namozgox III davriga doir kanallar topib o'rganilgan Geoksyur I qishlog'i yaqinida daryo o'zani bo'lib, 1,5 km masofa suv olib borilgani, u suv esa o'sha kanal etagidagi ekinzorlarni sug'orish uchun ishlatilganligi aniqlangan.

Eneolit davri yodgorliklarini qazish davomida ko'plab hayvon suyaklari topilgan. Poleozoologlarning fikricha, uy havoni sifatida qoramol, qo'y, echki boqish keng tus olgan. Janubiy Turkmaniston ibtidoiy -jamoalari eneolit davrida dextqonchilik xo'jalik bilan bir qatorda xonaki chorvachilik bilan ham shug'ullanganlar.

Eneolit davri jamoalari ijtimoiy munosabatlari masalasiga kelganimizda, jamoada asta-sekinlik bilan erkaklarning roli va o'rni sezila boshlaganini kuzatamiz. Endilikda, ishlab chiqarish xo'jaligiga asoslangan jamoalarning rasmiylashib borayotganining guvohi bo'lamiz.. Lekin ayollar hali o'z-o'rnini erkaklarga bo'shatib bermagan edi. Eneolit davrining so'nggi (Namozgox III) bosqichiga kelib, ko'p xonali xo'jalik komplekslarining shakllanishi bilan ishlab chiqarish jamoalari jamiyatning asosiy yacheykasiga aylanib bordi. Bu esa o'z navbatida jamoada, oilada erkaklar rolining oshib borishiga keng imkoniyatlar ochib berdi. Eneolitning oxirgi bosqichiga kelib, ishlab chiqarish jamoalarida bir oz bo'lsa-da, ortiqcha mahsulot paydo bo'lib, u esa o'z navbatida ayrboshlashga yo'naltirildi. Shunday qilib jamoalararo -natural mol ayrboshlash yuzaga keldi va bu jarayon asta-sekin kuchayib bordi. Bu hodisa esa eneolit davri jamoasida yuz bergan progressiv yunalish edi.

Eneolit davri urf - odatlari va motam marosimlari xaqida fikr yuritadigan bo'lsak, bu borada quyidagi manzarani ko'rish mumkin: bu davrda murdalarni qabrga yon biqini bilan oyoq-qo'llarini g'ujanak qilib dafn qilish odati paydo bo'ladi. To'g'ri, Janubiy Turkmanistonda ilk eneolit davriga doir mozorlar -kamchil o'rganilgan. Lekin Namozgoh, II va Namozgoh, III davriga oid qabrlar ko'plab ochib tekshirilgan. Ammo, mozorlarda negadir qabr ashyolari kamchil uchraydi. Namozgox, III davri qabristonlarda kollektiv mozorlar uchraydi. Ba'zi bir qabrlarda ayollar ma'budasi uchraydi. Kollektiv mozorlar xom g'ishtdan kvadrat va doira shaklida qurilgan mavzolar paydo bo'ladi. Bu singari mavzoleylar urug' mavzoleylari bo'lsa kerak, deydi A.Askarov. Qiziq tomoni shundaki, ularga turli vaqtda qo'yilganligi kuzatiladi. V.M.Massonning yozishicha, Qoratepada Namozgoh, III bosqichiga oid 4 ta mavzoleyda faqatgina ayollar jasadlari uchragan. Bu esa ayollarga nisbatan hurmat va e'tiqodning hali yuqoriligidan guvohlik beradi. Faqat Namozgoh III bosqichining oxirlarida bitta-yarimta erkaklar xaykalchalari paydo bo'la boshlaydi. Yuqorida zikr etilgan faktlar hali eneolit asri to'la ma'noda matriarxat urug'doshlik jamoasi ekanligidan guvohlik beradi.

MAPFIYOHANING ILK SIVILIZASIYASI

Janubiy Turkmanistonda o'rganilgan bronza davri yodgorliklari, xususan, Oltintepa misolida bu zamin jamiyatida shahar-davlat bo'sag'asida turgan ilk shahar, ibodatxona – shaharmanond yodgorlik haqida ma'lumotga ega bo'ldik. Ma'lum bo'ldiki, poytaxt shahar Oltintenada Namozgox V, ya'ni rivojlangan bronza davridan so'ng bu yerda shahar hayoti davom etmadi. aholi shaharni tashlab ketganligi ma'lum bo'ldi. Bu hodisani A.Asqarov dehqonchilik xo'jaligi uchun suv manbaining yetishmaganligi deb izoqlaydi. Bronza davrining so'nggi bosqichiga, ya'ni Namozgoh VI davriga kelib, qadimgi yirik dehqonchilik markazlari o'rnida yaqinda o'zlashtirilgan yerlar hisobiga yangidan yangi qishloq xo'jalik vohalari paydo bo'ladi, yangi kishloqlar qad ko'tardi. Keyinchalik, Namozgoh V davridan boshlab Murg'ob vohasi qadimgi dehqonchilik jamoalarining yangi manziligi aylandi, So'nggi yillarda bu yodgorliklarni o'rgangan V.I Sarianidi va I.S. Masimovlar bu jamoalar xo'jalik madaniyat tarixi haqida bir qator ilmiy xulosalar yaratdilar, Malum bo'ldikki, bu muzofot Namozgox V davridanok, «metropoliya» dehqonlari tomonidan o'zlashtirila boshlangan. Natijada bronza davrida Murg'ob vohasida ilgari ma'lum bulgan Ovchin va Tohirboy irrigasion tumlailaridan tashqari Keleli, Gonur, To'g'aloq, Taip kabi dehqonchilik vohalari tashkil topganligi aniqlanadi.

V. I-Sarianidining hulosasiga qaraganda, Keleli va Gonur irrigasion tumanlari Murg'ob vohasining boshqa dehqonchilik markazlariga qaraganda ancha avval, ya'ni Namozgox V bosqichining ilk fazasidan boshlab o'zlashtirila boshlangan Xar bir irrigasion tumanda bir nechtdan dedkonchilik qishloklari bo'lib, ularni eng yirigi tumanning yirik axoli punki xisoblangan.

Kadimga Keleli voha tumani - Mari shahridan 120 km shimoliy g'arbda joylashgan. Bu atrofda 6 qishloq xarobasi qazib o'rganilgan. Ma'lum bo'ldiki, addimga dehqonlar atrofi devorlar bilan o'rab olingan mustahkam makonlarda, paxsa va xom gashtlardan qurilgan uylarda yashagan ekai. Dehqonchilik dalalarni sug'orish uchun suv Murg'ob daryosi irmoqlaridan olingan. Bu qishloqlarning maydonlari 2-5 gektar joyni tashkil qilgan.

Keleli qishlog'ida to'g'ri burchak shaklida qurilgan katga jamoa uyi qazib o'rganilgan. Uning umumiy maydoni 870 kv.m. bo'lib u 44 ta katga va kichik xonalardan iborat edi. Ularning devorlari xom g'ishtdan qurilgan. Olimlarning fikriga Karaganda, binodaga 2-3 xonali seksyayalar yakka patriarxat oila a'zolariga mo'ljallangan. Yashash xonalarida o'choq topilgan. Bulardan tashqari, ro'zg'or xo'jalik binolari ham mavjud. Arxeolog olimlarning fikriga qaraganda, Keleli 4 makonidan kichik oilalardan iborat bulgan bir umumiy urug' patriarxal oila a'zolaridan iborat jamoa yashagan bo'lsa kerak.

Kelelitepa-3 qishlog'ida bronza davriga mansub, barcha tomonlari teng to'rtburchak istehkom topilgan. Tomonlarining uzunligi 128 metr, Bu inshoot 2 ta mustaham mudofaa devorlari bilan o'rab olingan. Devorlarning kalinligi 1-1,2 metr. Devorlar o'rtasiga maxsus daxlizsimon yo'lak qo'yilgan. Tashqi devor esa xar 15-18 metrda xom g'ishtdan ishlangan mudofaa burji bilan jihozlangan. Istexkomning xar bir tomonida 6 tadan to'rtburchakli burjlar qurilgan. Odatdagi qishloqlar o'zining

rejalashtirilishi va maydonlarining o'ziga xos belgilariga nisbatan uch guruxga bulinadi- 1) o'rin-joyi 6 gektargacha bo'lgan qishdoqlar, bunga Keleli tepalari misol bo'la oladi; 2) maydoni 5-10 gektardan bo'lgan qishloqlar Odambosgak, Ajikuyitepa singari yodgorliklarni kiritish mumkin; 3) maydoni 10-28 gektar iborat bo'lgan qishloq xarobalaridan iborat bo'lib, bu guruxga Toiptepa, Gonur, Ovchin tepalarni kiritish mumkin.

Keleli va Gonur irrigasion tumanlari xududlarida yirik markaziy yodgorliklardan tashqari o'nlab mayda qishloqlar ham qad ko'targan. Ularning maydoni yarim gektardan tortib, to 6-8 gektarni tashkil qiladi. Bu yodgorliklar asosan Namozgoh VI davrida va uning turli bosqichida vujudga kelgan. Ularning ko'pchiligi mudofaa devorlari bilan o'rab odingan. Xususan, Keleli-4 qishloq – qo'rg'onida maydoni 30x30 metr ajmda, atrofi mudofaa devori bilan o'rab olingan qishloq –qo'rg'on o'z davrida muxim istehkom sanalgan.

Shuni aloxida aytish lozimki, bronza davrida qishloqlar yangi yerlarda ko'plab qurilgan, Tadqiqot natijalari tufayli ma'lum bo'ldiki, Murg'ob vodiysidagi qishloqlar asosan daryo irmoqlari, suvga yaqin joylarda tashkil topgan. Bu qishloqlarning yiriklarida qadimiy ayraboshlash, savdo va madaniy aloqalar markazi sifatida ham namoyon bo'lgan.

Ovchiitepa va Ajiko'yitepa qishloqlarida dumaloq shaklda ishlangan ikki yarusli xumdonlar topib o'rganilgan. Keleli-4 qishlog'ida kulolchilik charhida ishlangan ixcham, jarangdor, naqshsiz sopollar, ko'plab uchqur- toshlar, loydan ipshab pishirilgan qo'g'irchog' arava g'ildiraklari, krest shaklida yasalgan bronza tumor - muxrlar topilgan. Sopol idishlarniig shakli xilma-xil. Ular oyoqli qadahlar, vazalar, xurmacha, jumrakli choynaklar, konussimon kosalar. tarnov jo'mrakli kosachalar, kuza va boshkalgrdan iborat. Xullas, h Keleli irrigasion markazida o'nga yaqin unday qishloqlar mavjud bo'lib, ular markaziy qishloq Keleliga tobe bo'lgan. Bujoamoalar o'z sopollari sirtiga qizil, sariq, jigarrang sir bergan. Idishlarning mustahkam bo'lishi uchun kulollar toza, sof tuproqni tanlashganlar. Bunday idishlardan suv tashish, ovqat pishirish va don saqlash uchun keng foydalanilgan

Murg'ob voxasining yana bir irrigasion markazi - bu Taip tumani edi. Uning bosh yodgorligi T'aiptepa I xisoblanadi. Uning maydoni 12 gektar yerni egallagan.

Murg'ob vohasining yana bir qadimgi dexqonchilik markazi- To'g'aloq, irrigasion tumani bo'lib, bu yerda bronza davriga oid 20 dan ziyod har xil hajmidagi qishloqlar qazib o'rganilgan.

Shular ichida eng yirigi To'g'aloq I mikrovohaning markaziy qishlog'i xisoblangan. Uning egallagan maydoni 15 gektardan ziyod, balandligi asa 8 metrga yaqin. To'g'aloq I nyng markaziy qismi to'g'ri burchak shaklida qad ko'targan qal'a --- qo'rg'on hisoblanadi. Uning mustahkam mudofaa devorlari yarim aylana shaklidagi burjlar bilan jixozlangan . To'g'aloqtepa I da o'tkazilgan tekshirish ishlari tufayli bu makon Namozgoh VI bosqichining ilk bosqichi davridan boshlab

kishilarning bu yerdaqo'nim yashaganligi aniqlandi. Tepalikning ustki qatlami Namozgoh VI davrining Toxirboy 3 bosqichiga tegishli ekanligi ma'lum bo'ldi.

V.I.Sarianidining fikricha Namozgox VI bosqichining dastlabki vaqtdan boshlab, Janubiy Turkmanistonga shimolda yashovchi chorvador qabilalar kirib kelgan. Ularning madaniy izlari bu mintaqada o'rganilgan qator yolgorliklarda kuzatilgan. Bu muzofotda shimol chorvadorlarining ham o'troq qishloqlari paydo bo'ladi. Bu voqyealar, albatta, mil, avv. II minginchi yillikning oxirlarida sodir bo'lib, ular V.I.Sarianidi va A.A.Asqarovlarning fikriga qaraganda, Anovtepa misolida nemis arxeologi G.Shmidt kuzatgan «varvarlar» istilosinnng natijalari edi.

V.M.Masson 1950 yillarda Murg'ob voxasida birinchi bor arxeologik tekshiruv ishlari olib borib, vohaning so'nggi bronza (Namozgox VI) davriga oid Ovchin va Tohirboy deb nomlangan ikkita mikrovoxasini o'rgandi. Aslida Murg'ob voxasi bronza davri jamoalari yashagan qishloqlarga serob o'lkadir. I.S.Masimovning fikricha, xozirgi kunda Murg'ob voxasida 60 dan ortik, Namozgoh VI davri yodgorliklari ma'lum. Bu qishloqlar Murg'ob daryosining ko'p irmoqli o'zanlari bo'ylab, - unga yaqin mikrorayonlarni barpo etgan. Bu muzofotlarda yashagan qadimgi dexqonlar o'z davrida bir tomondan qadimgi Sharqning ilg'or sivilizasiyali viloyatlari bilan qadimgi Xind yeridan tortib, to Mesapotomiyagacha bo'lgan mintaqa axolisi bilan, ikkinchi tomondan, shimoliy-sharqiy cho'l mintaqasi qabilalari bilan iqtisodiy, madaniy va etnik aloqada bo'lganlar.

Bronza davrining oxirlariga kelib, Murg'ob vohasida va Baqtriya xududlarida dehqon jamoalarining mudofaa devorlari bilan o'rab olingan qator qishloqlari paydo bo'ladi. Bu qal'a -qo'rg'onlar aslida ibtidoiy jamiyat zaminida ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning maxsuli edi. Aslida, qishloqlar atrofni mudofaa devorlari bilan o'rab olish hodisasi eneolit davridan boshlab paydo bo'lgan edi. So'nggi bronza (Namozgox VI) davriga kelib, harbiy extiyojlardan kelib chiqib, yirik dexqonchilik markazlari mustahkam mudofaa devorlari bilan o'rab olingan inshootlar vujudga keladi. Bu manzarani biz yuqori satrlarda Oltintepaning Namozgox IV davri misolida ko'rdik. Bronza davrining eng taraqqiyot bosqichiga kelganda, avvalgi qishloq atrofni o'rab olgan devorlar endilikda qalin, mustaxkam devorlarga aylandi, ya'ni ilk shaxar mudofaa istexkomlari darajasiga ko'tarildi. Bu manzarani ham biz yuqoridagi satrlarda Oltintepaning Namozgox V davri misolida ko'rdik.

Bronza davrining so'nggi, ya'ni Namozgox, VI davri xaqida so'z yuritadigan bo'lsak, Murg'ob voxasida Oltintepa singari yirik sivilizasiya markazlari barpo etilmadi. «Metropoliya»dan bu muzofotga ko'chib kelgan urug'doshlik jamoalari Murg'ob vohasidagi geotrafik va ekologik qulayliklarga ega bo'lgan joylarni o'zlashtirdilar va o'z qishloqlarini barpo etdilar. Shuni aytish kerakki o'sha zamonda boshqa yerlarni bosib olish, «militarizasiya» va «mustamlakchilik» an'alarining sustligi erkin dexqon jamoalarini markazlashtirishga, ular orasidan chiqqan «aristokratiya» faol ravishda harbiy despotizm tomon yo'l olishiga to'sqinlik qilardi. Shuning uchun ham jamoa-jamoa

bo'lib ko'chib kelgan kelgindilar tashqi xavfning o'ta pastligidan, o'z dehqonchilik xo'jaligini tinchgina davom ettirar edilar. Ammo mil. avv. II minginchi yillikning o'rtalaridan boshlab, ayniqsa, uning ikkinchi yarmidan esa shimol chorvadorlarining janubiy tumanlar tomon yurishining faollashuvi munosabati bilan Namozgox VI davri jamoalari o'z qishloqlari atrofini mudofaa devorlari bilan o'rab, kal'a - qo'rqonlarga, qishloq-qo'rg'onlarga aylantirganlar. Namozgox VI davrida Murg'ob vohasidagi qishloqlar atrofida ixcham va mustaxkam mudofaa inshootlarining paydo bo'lishi hodisasi, bu Erondan ko'chib kelgan kelgindilar an'anasi emas, balki joyli jamoalarning ijtimoiy iqtisodiy na madaniy taraqqiyotining dinamik rivojlanish maxsuli zdi.

Bu davrda yuqori xo'jalik formalari sifatida sug'orma dehqonchilik va chorvachilik jadal rivojlanishda bo'ldi.

Chorvachilik xo'jaligida mayda shoxli xayvonlarning jamiyat iqtisodiyotidagi salmog'i oshdi. Yirik shoxli xayvonlar avvalgidek, asosan, sutli oziq-ovqat manbai sifatida o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Ovchilik jamoasining yordamchi xo'jaligi sifatida davom etadi. Bu davrda Buxoro bug'isi deb atalgan tuyokli xayvon, qulon, to'qay to'ng'izi va cho'l jayronini ov qilish aloxida ahamiyat kasb etgan. Ikki o'rkachli tuya, shu davrning (Namozgox VI) Tohirboy bosqichinda esa xonaki ot paydo bo'ladi. Sug'orma dehqonchilik yerni xaydab ekishga asoslangan edi. Kanal qazib, daryolardan suv chiqarish, ariq-kanallarni ozoda tutish kabi irrigasiya ishlari keng yulga quyilgan

Unumdor xo'jalik va xunarmandchilik ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishda, shu asosda urug' jamiyati ichida mulkiy tabaqalanish jarayoni boshlanadi. Ayniqsa, ota urug'i -patriarxal tuzum tarkib topgandan keyin kishilar xayotida katta o'zgarishlar sodir bo'ladi. Yer haydash asosidagi sug'orma dexqonchilikning tobora rivoji ortiqcha maxsulot va mol ayraboshlashni tartibga solishda asosiy rol o'ynagan. Dexqonchilikda arpa, bug'doy, javdar, tariq singari boshoqli ekinlarmuxim o'rin tutgan. Lekin, xususiy mulkchilik va mol ayraboshlash sohalarida, shu jumladan, katta oila a'zolari tomonidan xo'jalikni birgalikda olib borish, yerga birgalikda egalik qilish, umumiy turar joyda (katta jamoa uylarida) birga yashash hali saqlanib qolgan. Bu uylarda yakka kichik oilalarga 2-3 xonali turar joylar tegishli bo'lsa-da, lekin ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti - «umumiy nom ostida», urug' boshlig'i raxbarligida o'tganligi bilan xarakterlanadi,

Qisqacha xulosaqiladigan bo'lsak, bronza davrining Namozgox VI madaniyati qadimgi Sharq sivilizasiyasining ajralmas qismi bo'lib, bu davrda Marg'iyonada protogorod tipidagi ilk shaxar madaniyati rivojlanishda davom etdi. Ishlab chiqarish jamoalari doirasida ijtimoiy va iqtisodiy differensiasiya nisbatan sekin bo'lsa-da, rivojlanishda davom etadi. Ammo Namozgox VI davrida xarbiy zo'ravonlik asosida, chuqur mulkiy tengsizlik asosidagi dastlabki shaxar-davlat uyushmasi tashkil topmaydi.

## **Mavzu: Qadimgi Baqtriya sivilizasiyasining tarixiy ildizlari masalasi**

### **Reja:**

1. O'rta osiyoning janubiy sarhadlari ibtidoiy davr jamoalari moddiy madaniyati
2. Vatanimiz janubida ilk dehqonchilik vohalari shakllanishi masalasi
3. Baqtriya sivilizasiyasi shakllanishi shart-sharoitlari

Mamlakatimizdagi janubiy viloyati bo'lgan Qadimgi Baqtriya sarxadlari insoniyat tarixining barcha taraqqiyot bosqichlariga doir yodgorliklarga nihoyatda serob o'lkalardan biridir. Bu yerda qadimgi paleolit, mezolit va neolit davrlariga mansub qator yodgorliklar topilib o'rganilganligi fanda ma'lum. Xususan, Teshiktosh mustyer davri g'orining ochilishi, u bilal bog'liq neandertal odamining- topilishi arxeologiya sohasidagi buyuk kashfiyotlardan bo'lib, fanda katta shov-shuvlarga sazovor bo'lgan edi. Bundan keyingi yillarda olib borilgan dala tadqiqot ishlari tufayli neolit davri meros xo'rlariga taalluqli qator eneolit va bronza davri yodgorliklari kashf qilinib, bu o'lkada madaniyat tariximiz tub negizda uzluksiz, bosqichma-bosqich rivojlanishda bo'lganligi singari muxim muammoviy masalalarni oydinlashtirishga erishildi.

Keyinga yillarda Qadimgi Baqtriya arxeologiyasi sohasida yana yirik kashfiyotlar qilindi. Shulardan biri -Janubiy O'zbekiston va Shimoliy Ag'oniston hududlarida Qadimgi Sharq sivilizasiyasining yangi o'chog'i - ochilishi bilan bog'liqdir. Bronza davri Qadimgi Sharq sivilizasiyasining Baqtriya markazi madaniyat yutuklarini jahon ilmiy jamoatchiligiga yetkazishda A.Askarov va V.I.Sarianidining xizmati katta bo'ldi.

1969 yili V.I.Sarianidi sobiq sovet-afg'on arxeologik ekspeditsiyasi tarkibida qariyb 10 yil davomida Shimoliy Afg'onistonda keng dala tadqiqot ishlari olib borib, 30 dan ortiq, bronza davri yodgorliklarini o'rgandi. Ana shular orasida V.I.Sarianidining Dashtli zohasi yodgorliklarida olib borgan ilmiy ishlari yakuni alohida diqqatga sazovordir. Shuning uchun ham ma'ruzalar matnining galdagi bobini ana shu yutukdarni yoritishga qaratilgan. Bu haqida navbatdagi ma'ruzamizda batafsil to'xtalish nazarda tutilgan.

Taniqli olim A.Askarov Qadimgi Baqtriya bronza davri sivilizasiyasini o'rganish ishini V.I.Sarianidi bilan bir vaktning o'zida Jakubiy O'zbekistonda boshladi. Bu olim Sopollitepa, Jarqo'ton, Bo'ston kabi yodgorliklarda keng arxeologik qazish ishlari o'tkazib, O'zbekistonning janubiy muzofotlari mil. avv. II minginchi yillikda qadimgi Sharq sivilizasiyasi bilan bir vaqtda muvoziy rivojlanishda bo'lganligini isbotlagan holda Janubiy O'zbekiston Qadimgi Baqtriya sivilizasiyasining yangi o'chog'i ekanligini kashf qilib berdi.

Qadimgi Baqtriyaning Sopollitepa va Dashtli tilidagi yodgorliklarida olib borilgan arxeologik ilmiy tadqiqot natijalariga qaraganda bu o'lkaning bronza davri sivilizasiyasining shakllanishida nafaqat Qadimgi Sharq shuningdek, Janubiy Turkmaniston dexqon jamoalarining ham muayyan madaniy ta'siri bo'lgan.

Arxeologik manbalarga ko'ra, qadimgi dexqon jamoalari Baqtriya muzofotlariga bevosita Murg'ob vohasidan kirib kelgan. Murg'oblik dehqonlar Janubiy O'zbekistonda avval Sherobod cho'lini o'zlashtirdilar. Ularning birinchi qarorgoxi Ulanbuloqsoy suvi bazasida tashkil topgan Sopollitepa bo'ldi. Sopollitepaliklar keyinchalik asta-sekin Qo'xitong va Boysun tog' etaklari bo'ylab shimoliy-sharq tomon siljidilar. Natijada Sherobod daryosining quyi xavzasn tarmoqlari bo'ylab, qadimgi dehqonlarning yangidan yangi qishloqlari qad ko'tara boshladi. Ana shunday qishloqlarning katta bir guruxi Sherobod daryosining qadimgi irmog'i Bo'stonsoy soillarida, uning Jarqo'ton punktida shakllinganligini ko'ramiz. Keyinchalik qadimgi dexqonlar yangidan-yangi va sersuv yerlarni qidirib, Bandixonsoy, Xo'jaipak, Sangardak daryolarining quyi xavzalariga, undan Regar va Nurek tumanlarigacha borib yetdilar. Shunday qilib, mil. avv. II minginchi yillik davomida Namozgox madaniyati merosxo'rlarining Shimoliy Baqtriya yerlarida qator qishloqlari qad kuo'tardi, dexqonchilik mikrovoxalari tashkil topdi.

Qadimgi dexqonlar atrofi devorlar bilan o'rab olingan qishloqlarda yashaganlar, ular suvlik soylar bo'ylarida qo'nim tongan. Sug'orma dexxonchilikda ularning suvlaridan foydalanganlar. Maxalliy sug'orish tajribasidan kanallar va ariq chiqarish katta aximiyatga ega bo'lgan.

Surxondaryo issiq iqlimli o'lka bo'lib, shimol, shimoliy-g'arb va sharqda Xisor, Ko'xhitog', Bobotog', janubda Amudaryo bilan chegaralangan. Qadimgi sug'orish yerlari tog' tizimlariga yaqin joylashgan.

Qadimgi Baqtriya sivilizasiyasiniig Janubiy O'zbekistondagi markazlari bo'lgan Sopollitepa va Jarqo'ton misolida ko'rib chiqsak, bu mintaqada urbonik madaniyat xaqida muayyan tasavvurga ega bo'lamiz.

Sopollitepa yodgorligi 1969-1974 yillarda A.Asqarov tomonidan batafsil o'rganilgakti va muhim ilmiy natijalarga erishildi. Arxeologik qazishmalar tufayli yodgorlik to'la ochildi. Makonning turar-joy komplekslari, qadimgi qishloqni o'rab olgan mudofaa sistemasi va qishloq doirasida joylashgan jamoa xilxonalari qunt bilan o'rganildi. Natijada uning tarixiy topografiyasi va stratigrafiya davriy sistemasi aniqlandi.

Sopollitepa 4 gektardan iborat maydonni egallagan holda uning markaziy qismida to'rtburchak shakldagi istexkom qazib ochildi. Uning hamma tomoni 82 metrdan iborat. Ichida turar joylar, ro'zg'or va xo'jalik xonalari, hunarmandchilik ustaxonalari inshootlari topildi. Makon tepaligida markazning to'la ochilishi tufayli uning rejalashtirilishi, atrofi uch qator devorlar bilan o'rab olinganligi aniqlandi.

Sopollitepa ko'p qatlamli yodgorlik. Uning madaniy qatlaminbng qalinlbg ba'zi uchastkalarida 3 metrni tashkil qiladi. Makondan topilgan arxeologik manbalar kompleksi mil. avv. XVII-XV asrlarga oid ekanligi aniqlangan.

Sopollitepada olib borilgan stratigrafik qazishmalar yodgorlikning uchta madaniy qatlam bilan bog'liq, ekakligini ko'rsatdi. Birinchi qurilish davriga

oid qatlamdagi uylarda 30 ta kichik oila, ikkinchi davr uylarida 63 ta oila, uchinchi davr uylarida esa 47 ta oila yashaganligi ma'lum bo'ldi. Bu manzara qishloqning boskichma-bosqich kengayib borishini ko'rsatadi. A.Asqarovning fikricha, umuman, Sopollitepadagi o'troq qishloq aholisi 155-315 kishidan iborat bo'lishi mumkin. Katta patriarxal oila a'zolari yakka uylarda yashagan. Sopolliteda qishlog'i 8 ta kvartal uy-joylaridan iborat bo'lgan.

Jarqo'ton yodgorligini o'rganishda so'ngi bronza davrini bir necha taraqqiyot bosqichlariga bo'lib o'rganish imkoniyatini berdi. Bu yodgorlik Sopollitepada kuzatilgan uch boskichga oid. qurilish boskichlarining xronologik davriy sistemasini ishlab chiqishga asos bo'ldi. Natijada Sopollitepa manbalarini ikki xronologik bosqichga bo'lib o'rganish imkoniyaati tug'ildi. Sopollitepaning quyi (pastki) ikki qurilish bosqichi asosan bir xil material berdi, yuqori uchinchi qurilish bosqichida esa arxeologik materiallarda ba'zi bir o'zgarishlar yuz bergan xolda, Sopollitepaning yuqori o'atlamiga doir bu yangi o'zgarishlar Jarqo'ton yodgorligining quyi qatlami materiallari bilan aynan o'xshash edi. Shuning uchun Sopollitepadagi ikkita quyi qatlam «Sopolli» bosqichi, uning yuqori qatlami va Jarqo'tonning quyi qatlami esa «Jarqo'ton» bosqichi deb yuritiladigan bo'ldi. Shunday qilib, Janubiy O'zbekiston bronza davriga oid yodgorliklarning xronologik davri sistemi ham ishlab chiqila boshlandi.

Sopollitepa birgina Janubiy O'zbekiston miqyosida emas, balki butun O'rta Osiyo va unga tutash viloyatlar miqyosida ham kam uchraydigan nodir arxeologik xazina bo'lib chiqdi. Sopollitepa arxeolog olimlar qo'liga yodgorliklar kompleksini berdi, ya'ni makonda 150 dan ortiq 8 ta kvartallarga bo'lingan uy-joy qoldiqlari va 138 ta mozor komplekslari o'rganildi. Sopollitepada binokorlik, xunarmandchilik va iqtisodiy munosabatlar ancha rivoj topgan. Urug' xilxonalarining alohida uchastkalarida dafn qilish odatlari tashkil topa boshlash jarayoni Jarqo'ton davriga kelib, odat tusga kirib boradi. Sopollitepa mozorlari yaxshi saqlangan. Ko'pgina mozorlarda hamon qabr bo'shligi saqlangan. Muzorlar topilmalarga boy. Masalan, bir qabrda 2-3 tadan to 50 tagacha predmetlar uchraydi. Bu topilmalarning aksari, xilma-xil sopol idishlardan iboratdir. Dafn odatlari ham o'ziga hos qiziq. Qabrga erkaklar o'ng, ayollar esa chap biqini bilan yotkizilib, oyoq- qo'llari bukilgan, ya'ni g'ujanak xolda dafn qilingan. Bolalar mozorda inventarlar kam, o'smirlar qabrida idishlar soni 5-6 va ba'zilarida 10 tadan ortiq uchraydi. Balog'at yoshidagi o'rta va keksa yoshli odam mozorlarida qabr inventori ko'proq., Erkaklar qabrida o'rtacha 10-15 tadan, ayollar mozorida esa undan ham ortiqroq, buyumlar uchraydi. Muzorlarda bronzadan ishlangan turli xil taqichoqlar, ishlab chiqarish mehnat qurollari, xar xil ro'zgqor asboblari, jez oynalar, igna, bigizlar va boshqa narsalar qo'yilgan. Muzorlarga qo'yilgan inventar tarkibiga qarab, bu «duradgor usta» mozori, bu «to'qimachi» mozori, bu «kulol» mozori, bu «podachi» mozori, bu «ovchi» yoki «jangchi» mozori, bu «urug' oqsoholi»ning mozori, deb ta'riflash mumkin. Umuman karalganda, qabrlarning hammasi uy-joylar devorlari tagida joylashgan. Sopollitepada 138 ta qabr ochib tekshiriddi. Ularning 125 tasiga



yakka jasad, 13 tasi esa jamoali go'rlardan iborat. O'liklar sopol idishlar, qurol.-yarog'lar va zeb-ziynat buyumlari bilan birga dafn qilingan. Jami bo'lib erkaklar qabrlaridan 104 ta bronza buyum xalqalar, bilakuzuklar, jez oynalar va har xil munchokdar topilgan. Moddiy madaiyat Sopollitepada metallchilik yuksak darajada rivojlanganligidan dalolat beradi. Bronzadan xanjarlar, o'q uchlari va nayza paykonlari, pichoqlar, boltalar, jez ignalar va idishlar ishlab chiqilgan. Shunday qilib, Sopollitepada bronza metallurgiyasining rivojlanishi hunarmandchilik ustaxonalarini vujudga keltiradi.

Sopollitepadan 16 mingtagacha xayvon suyaklari topildi, ularning 63 % i qo'y va echki, boshqalari eshak, cho'chqa, tuya, sigir, it va mushuk suyaklaridir. Bu manzara dehqonchilik bilan chorvachilikning yaxshi rivojlanganligidan guvohlik beradi. Sopollitepadan bug'u, jayron, yovvoyi cho'chqa, quyon, o'rdak va boshqa jonzotlarning suyak topilmalari bu jamoalar turmushida ovchilik o'z ahamiyatini yo'qotmaganligini ko'rsatadi. Xullas, ovchilik odamlarning o'qo'shimcha daromadi xisoblangan. Masalan, bug'u suyaklari 40 %, kulon suyaklari 37 %, cho'chqa suyaklari 17,5 % ni tashkil qiladi. Bronza davrida bu muzofot hozirgiga nisbatan hayvonot dunyosiga ancha serob bo'lganligini ko'rsatdi.

A.Asqarovning xulosasiga ko'ra, Sopollitepa qishloq-qo'rg'onining har birida bittadan patriarxal urug' jamoasi yashagan. Xar bir patriarxal oila esa bir nechta juft oilalardan tashkil topgan xo'jalik komplekslaridan iborat edi. Qishloq - qo'rg'onining 8 ta kvartalga bo'linishi sopollitepaliklarning ishlab chiqarish jamoalar uyushmasi 8 urug'dan iborat ekanligini ko'rsatadi. Xar bir urug'ning o'z o't og'asi, ya'ni urug' boshlig'i bo'lgan. Ishlab chiqarishda erkaklarning roli ustn bo'lsa-da, lekin ayollarning an'anaviy obro'yi, jamoadaga mavqeyi hali sezilarli darajada kuchli edi. Bu masala ularning mozor komplekslari misolida o'rganilgan. Sopollitepada har bir mahalla xilxonasida boy ayol mozorlari ochildi. Bu mozorlarda, albatta, bronza yoki toshdan yasalgan tumor - muxrlar topilgan bo'lib, ular urug' totemlari haqidagi diniy tasavvurlarning namunasi edi, deydi A.Asqarov. Bunday muhrlar esa Sopollitepada faqat ayol qabridan topilgan.

Sopollitepa qishloq-qo'rg'onida uy-joy komplekslari odatda ko'p xonali bo'lib, xonalarning har birida, albatta, o'choq va sandal o'rni uchraydi. Har bir xonodon o'z omborxonasiga ham ega bo'lgan. Xar bir kvartal maydonida to'g'ri burchak shaklida uzun xonalar uchrab, A.Asqarovning fikricha, bu xonalar o'z rejalashtirilishi bilan to'qimachilik dastgohi o'rnatiladigan ustaxona vazifasini o'tagan. Xo'jalik omborlaridan ba'zi birlarining poli sopol parchalari bilan qorejagan. Ularning devor taglarida qator xumlar uchraydi. Xumlarda ko'pincha hayvoi suyaklari va g'alla qoldiqlari topilganiga qaraganda, ulardan oziq-ovqat mahsulotlari saqlash uchun foydalanilgan.

Sopollitepa mudofaa inshootlari va uy-joylari fakat xom g'ishtdan qurilgan. paxsa qurilmalari uchratilmaydi. Xona devorlari bir necha bor somonli loy bilan, poli esa albastr aralashtirilgan loy -bilan shuvalgan.

Sopollitepaning har bir kvartali maydonida 2-3 yoki undan ortiq sopol xumdonlar uchraydi. Ular doira shaklidagi o'rasifat xumdonlar bo'lib, A.Asqarovning fikricha, ularni ko'sh kamerali xumdonlar va ikki yarusli xumdonlarga bo'lish mumkin. Non masalalari qadimdan e'tiborli soxa bo'lgan.

Sopollitepa uy-joy xo'jalik komplekslari doirasida non pishiradigan maxsus tandirlarning ochilishi, non tarixining juda qadimga borib taqalishini ko'rsatadi. Neolit davri kishilari donni oddiy tosh (sandonlarda) yorg'uchoqlarda maydalab, undan ko'mach tarzidagi non ozuqasi sifatida foydalanganligi malum. Lekin hali tandirda non pishirishni ular bilmas edi va tandirning o'zi ham kashf qilinmagan edi.

Demak, kishilar bronza davrida tandirni kashf qilishib, unda xaqiqiy nonni pishirishni yo'lga qo'yib, ro'zg'or tebratganlar. Bu ham kashfiyot sifatida sizilyazasiyaning muxim elementlaridan biri edi.

Sopollitepa arxeologik materiallarining asosini xilma-xil shakldagi kulolchilik charxidagi ishlangan sopol idishlar tashkil etadi. Sopollitepaliklar sopol buyumlar pishirishning ustamon ustalari bo'lganlar. Topilgan sopol idishlar shunchalar jozibador, bejirim, bichimli, jarangdor, kashf qilib yasalganki, ular sifat jihatidan hozirgi zamon sopollaridan kam farq qiladi. Bular turli variantdagi oyokli vazalar, qadaxlar, jo'mrakli choynak va ko'zalar, xurmacha va konussimon kosalar, tog'ara va xumlar, tarnov jo'mrakli yarim aylana shakldagi kosachalar, sopol tag kursisi va sopol qozonlardan iborat. Bu ilgaklarni A.Asqarov bir necha variantlarga bo'lib o'rgangan. Sopollitepa sopol buyumlaridan naqshlar uchramaydi. Idishlarning ba'zilar, ayniqsa, vaza va xumcha deb nomlangan gardishli keng dumaloq sirtida lentasimon to'q qizg'ish rang chiziqlar va xar xil, belgilar mavjud. Bu manzara Murg'ob vodiysi Namozgox, VI davri sopolida uchraydigan sir (angob) pardozini eslatadi. Sopollitepa sopol idishlarining 30 dan ko'prog'ining sirtida xar xil belgilar uchraydi. Bu belgilar xali maxsus qrganilganicha yo'q. Agar V.M.Masson Oltintepadagi ayol ma'budalarining ustida chizilgan belgilarni piktografik, ikonografik yozuvlardan iborat, deb talqin qilgan bo'lsa, Sopollitepadagi bu belgilar ham eng qadimgi yozuvning biror bir varianti bo'lsa, ajab emas. Lekin bu belgilar xaqida A.Asqarov muayyan bir fikrni bildirganicha yo'q. Yosh olimlar bu yozuv xodisasini kelajakda qunt bilan o'rgansalar madaniyat tariximiz uchun ahamiyatli bo'lardi, deb o'ylaymiz.

Sopollitepa arxeologik manbalarini keng ko'lamda o'rganish tufayli akademik A.Asqarov muhim qator xulosalar yaratdi. Shulardan eng muximlari xaqida so'z yuritamiz. Avvalo, O'zbekiston hududida sun'iy sug'orishga asoslangan o'troq dexqonchiligining kelib chiqish tarixi yaqin ming yilga qadimiylashdi. Janubiy O'zbekiston, Tojikiston va Shimoliy Afg'oniston muzofotlarining janubiy viloyatlarini Qadimgi Sharq madaniyati yoyilgan mintaqaga kiritish imkoniyati tug'ildi. Sopollitepada ipakchilik, bog'dorchilik va qorako'lchilikka doir yangi materiallar qo'lga kiritildi. Eng muximi, ilk shaxarlar haqidagi tasavvurlarimiz rosa ming yilga qadimiylashdi. Sopollitepa qishloq qo'rg'oni rejalashgiriluvchi natijada Urta Osiyo va Eron xalqlari o'tmish tarixining nodir yozma manbai xisoblangan

«Avesto»da ta'riflangan shaharlarning arxeologik isboti qo'lga kiritildi. Agar avvallari Movarounnahr hududlarida ilk shaxarning paydo bo'lish negizlari Eron mintaqalaridan qidirilgan bo'lsa, endilikda O'zbekiston ilk shaharlarining kelib chiqish negizi, moddiy va madaniy asosi mamlakatimizning janubiy muzofotlarida zkanligi isbotlandi. Xullas, Sopollitepa yodgorligiga O'zbekiston va qo'shni Tojikiston xalqlari tarixiga boy xazina bo'lib kirdi, bu yodgorlikda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning yakuni o'tgan asr 70-yillarining yirik ilmiy kashfiyoti hisoblanadi. Bu borada A.Asqarovning xizmati kattadir.

Yuqorida qisqacha bayon etilgan qadimi dehqon jamoalarining xo'jalik va madaniy sohada erishgan yutuqlariga qaraganda, Sopolli madaniyati qadimgi Sharq sivilizasiyasining ajralmas bir qismi bo'lib, mil, avv. II ming yillikda uning o'pni Amu havzasida va Qadimga Baqtriya -yerlarida tashkil topgan yangi markazi edi. Uyyoy qurilish arxitekturasi, Sopollitepa maydonining kvartallarga bo'linishi, original mudofaa sistemasi Sopolli madaniyatining yuksakligidan dalolat beradi. Yuksak darajada rivojlangan kulolchilik, metallurgiya, zargarlik, to'qimachilik, suyakni, toshni ishlash texnologiyasi esa bu madaniyat ijodkorlarining professional tajribasidan guvoxlik beradi.

Sopollitepa qishloq-qo'rg'onining qazishma ishlari yakunlangandan so'ng, A.Asqarov rahbarligidagi ekspedisiya bronza davri dexqon jamoalarining tarixini o'rganish ishini Jaro'qo'tonda, Bo'stonsoy yodgorliklarida davom ettirildi.

Jarqo'ton qishloq-qo'rg'onining ko'p yillik tekshirilishi natijasida madaniyag tariximizdan guvoxlik beruvchi boy manbalar qo'lga kiritildi.

Jarqo'ton nafakat Baqtriyada, balki O'rta Sharqdagi bronza davrining yirik yodgorligi xisoblanadi. Aslida yodgorlik 1973 yilda arxeologlar Sh.Pidayev va V.Pilipkolar tomonidan birinchi bor ro'yxatga olingan edi. Jarqo'ton o'zining boshqalarga nisbatan baxaybat, yirikligi bilan ham Qadimgi Baqtriyada ilk shahar sivilizasiyasining poytaxt yodgorliklaridan sanaladi. U Termiz shaxridan 60 km shimolroqdagi Bo'stonsoy irmog'i qirg'og'ida joylashgan. Bo'stonsoy qadimgi vaqtlarda Amudaryoning irmoqlaridan biri bo'lgan. Yodgorlik katta xududni egallagan xolda maydoni 100 gektardan ziyodroq.U soy qirg'oqlari bo'ylab yoyilib yotgan mayda-mayda do'ngaklardan iborat bo'lib, uning markaziy qismining balandligi 8-10 metrni tashkil qiladi. Bu joy relyefini tashqi tomondan kuzatilganda yodgorlik «arki» aynan ko'rinib turadi va u bu yodgorlikning markaziy qismi bo'lib, uning maydoni qariyb 3 gektarga yaqin joyni egallagan. Shaxarchaning ark qismi mudofaa devori bilan aylantirib olingan Arkning shakli oval shamoyilida. Shaxarning atrofi tuproq g'aramlari bilan aylantirib olingan bo'lib, uning saqlangan balandligi 1 metr, balandligi esa 3 metrdan 5 metrgacha yetadi. 1987-1988 yillarda yodgorlikda qazishmalar ishi olib borildi va ma'lum bo'ldiki, «ark» mudofaa devorlari bilan aylantirib olingak ekan. Mudofaa devorining 80 metr uzunlikdagi uchastkasi ochildi. Arkning ichki qismida saroy kompleksi joylashgan. Arkka kirish darvozasi esa shaxarchaning janubiy qismida joylashgan. Qazishmalar tufayli bu yerda 3

ta turarjoy massivi ochildi. Ma'lum bo'ldiki, ark bir necha turarjoy massivlaridan iborat bo'lib, ular magistral ko'chalar bilan birlashtirilgan. Ayni vaqtda saroy kompleksi to'laligicha qazib o'rganilgan va arkning arxitektura rejasi aniqlanib, u jiddiy kvadrat shaklida ekanligi oydinlashtirildi. Uning xajmi 42x42 kv.m. maydondan iborat ekan. Tashqi devorning qalinligi 4 metrdan iborat va u kvadrat shaklida qurilgan 13 ta minora bilan jixozlangan bo'lib, ular esa kompleksning burchak qismida joylashgan. Ikkita minora yodgorlikning darvoza qismida joylashgan xolos. Saroyning ichki qismi 34x34 kv.m. maydondan iborat. Turmush va xunarmandchilik binolari ichki devor bo'ylab joylashgan. Saroyning markaziy qismi bo'sh maydondan iborat bo'lib, uning o'rtasida faqat katta supa joylashgan. qazishmalar tufayli topilgan sopol buyumlarga qaraganda, bu saroy Jarqo'ton davrida, ya'ni mil. avv. II ming yillikning urtalarida qurilgan. Bu yerdan topilgan qabrlar ham shu davrga tegishli. Mil. avv. X-IX asrlarda saroy inqirozga uchraydi. Makondan topilgan qo'lda yasalgan sopol buyumlarning uchratilishga qaraganda, muayyan bir davrda Jarqo'tonda etnik jixatdan qaysi bir kelgindilar yashagan. 1983 yildagi qazishmalar vaqtida «6-do'nglik» deb atalgan balandlikda ibodatxona ochilib, uni olimlar ijtimoi sig'inish joyi, ya'ni «o't og'asi» ibodatxonas deb atadilar. Qizig'i ham shundaki, ibodatxona quyosh chiqar tomonda joylashgan. Makondagi saroy yodgorlikning shimoliy-g'arbiy qismida joylashgan xolda, ibodatxona esa uning qarama-qarshi, ya'ni janubiy-sharq tomonida, quyosh chiqar tomonda joylashgan. Ibodatxona kompleksi saroydan 350 metr narida, ark tashqariskda qurilgan bo'lib, uning atrofida jamoatchilik qo'nim topgan. Ibodatxona atrofi ochiq yalang joydan iborat bo'lgan. Aslida Jarqo'ton ibodatxonasi 44,5x60 metr maydonni egallagan to'g'ri burchakli binodan iborat bo'lib, uning burchaklari dunyoning to'rt tomoniga qaratilgan va u eni 4,5 metrlik qalin devor bilan o'rab olingan. Ibodatxonaning arxitektura rejalashtirish strukturasi Sopolli madaniyatiga xarakterlidir. Bu yerda aynan Qadimgi Baqtriya an'analari kuzatilinadi. Bundan tashqari, ibodatxonada monolit aylana devor, koridorsimon yulaklar, umuman, saroy kompleksi Sopolitepann eslatadi. A.Asqarovning fikriga qaraganda, Jarqo'ton ibodatxonasi mil. avv. XIV asr arafasida, yani Jarqo'ton bosqichida vujudga kelgan va Bo'ston bosqichining Muloli fazasida, ya'ni mil, avv. X asrda inqirozga yuz tutgan. Ibodatxona o'zining mavjudlik davrida 3 xronologik, ya'ni Jarkuton, Kuzali va Muloli bosqichlarini boshdan kechirgan. Bu davrda ibodatxonaning arxitektura rejalashtirish soxalarida o'zgarishlar bo'lmagan.

Uy-joy masalasiga kelganda shuni aytish lozimki, bu borada 1980-1981 yillarda katta qazishma ishlari bajarildi. Masalan, 5-do'nglikda bir necha xonalardan iborat aloxida uylar, aloxida qurilgan yul, sig'inish xonasi, pol ostidan mozorlar, suv xovuzi kabilar topilib, ular jamoaning kelib sig'adngan joylari bilan bog'liq edi. Kvartal zsa devor bilan aylantirilib olinmagan. Bu kompleksni A.Asqarov Jarqo'ton bosqichining ilk davrlarga taaluqli ekanligi xaqida xulosa beradi.

1989-1991 yillarda yana ikkita (7 va 8) do'ngliklar qazib qilindi va har xil xajmdagi binolar ochilib, ular Jarqo'ton va Muloli-Bo'ston bosqichlariga tegishli ekanligi aniqlandi. Aslini olganda, bunday do'ngliklar Jarqo'tonda 20 dan oshiq. Ular turli xajmda bo'lib, kichikrog'i 0,2 gektar, yirikrog'i esa 1 gektar maydonni tashkil qiladi. Bu yerda olib borilgan qazishmalar tufayli jamoalarning turli sosial yacheykalariga doir uylar qoldiqlari o'rganildi.

Xunarmandchilik xo'jaligini o'rganish borasida ham manbalar to'rejadi. Ma'lum bo'ldiki, sharqiy tomonda joylashgan (1 va 2) do'ngliklar aslida sopol pishirish xumdonlari joylashgan maydon bo'lgan ekan. Bu yerda ochilgan to'g'ri burchak shaklidagi xumdonlar, olovdan chiqqan qotishmalar bu xaqida guvoxlik beradi. Xumdonlar bir-biriga nisbatan 15-20 metr masofada joylashgan. Bu yerda boshqa qurilish inshootlarining yuqligiga qaraganda, bu atrofda sopolchi ustalar yashagan kvartal joylashgan edi.

Jarqo'tonning nekropoli haqida so'z yuritadigan bo'lsak, avvalo shuni aytish lozimki, aslida shaxarcha atrofi suv to'ldirilgan chuqur va keng ariqlar bilan o'rab olingan edi. Bu yerdagi nekropol katta xududni egallab yotgan qabristondan iborat. Qabristonlar bir necha do'ngliklar ustini ishg'ol qilgan. Qabriston hududi qariyb 20 gektar joyni egallagan. Bu nekropol 1973 yildan boshlab o'rganilib kelinmoqda, xozirgacha 1500 dan ko'proq mozorlar ochib o'rganilgan va manbalari nashr qilingan. Tashqi tomondan kuzatishlarga qaraganda, nekropolda qariyb 10 mingdan ziyod qabrlar bor. Shaxarcha va qabristonda topilgan manbalar muayyan davrga doir Qabrlar asosan katakom shaklida taqdim qilingan. Qabristonda dafnlar Sopolli madaniyatining (mil. avv. XV-XIV asrlar) Jarqo'ton bosqichida boshlangan. Jarqo'tondagi ayrim do'ngliklar tagidagi o'lganlarni o'zi yashaydigan uy devorlari va poli tagiga dafn qilishganlar. Keyinchalik jamoa qabristonni vujudga kelgan. Aslini olganda, bu nekropol shaxar tarixining barcha davrlarida xarakatda bo'lgan.

Tadqiqotlarning guvoxlik berishicha, Jarqo'ton qal'asi shaharning, markazi xisoblangan. Dastlab bu yerda saroy kompleksi yuzaga kelgan va u aylana devor bilan o'rab olingan. Bu yerdagi qurilish ishlari Sopolli madaniyatining Ko'zali va Muloli bosqichlarida to'la bajarilgan. Arxeologik qazishmalar natijasiga qaraganda, qal'a atrofida oddiy jamoa a'zolari yashab, markaz atrofi zich axoli maydoniga aylanib borgan. Dastlab aloxida «do'nglik»lar joyida kichik oilalardan tashkil topgan binolar kompleksi vujudga kelib, keyinchalik ular markazida katta kvartal komplekslari tashkil topib, shaxar kengayib borgan. Jarqo'ton bir necha arxitektura qurilish kompleksidan iborat bo'lib, uning tarkibida monumental binolar, oddiy kishilarga tegishli uy-joylar, xunarmandlar maydoni, nekropol singari aglamerasiyadan iborat ilk shaxar edi.

Jarqo'ton xududi bo'ylab o'tkazilgan kuzatish (razvedka) qazishmalar tufayli uning stratigrafiyasi bo'yicha ham ma'lumotlar turejadi. Shu maqsadda 19 shurf qazilib qilindi, natijada Jarqo'tonning yashash davrlari aniqlandi. Bundan avvalgi yillari A.Asqarov Sopollitepa va Jarqo'ton stratigrafiyasini o'rganib, uning davri sistemasini ishlab chiqqan edi.

Ma'lumki, Sopollitepa materiallari ikki qurilish bosqichiga ega bo'lgan xolda u bir xil material bergan edi. Bu yodgorlikning uchinchi yuqori qurilish qatlamida esa materiallarda ba'zi o'zgarishlar yuz berdi. Sopollitepaning yuqori qatlamiga doir bu yangi o'zgarishlar Jarqo'ton yodgorligining quyi (pastki) qatlami materiallari bilan aynan o'xshash edi. Shuning uchun Sopollitepadagi ikkita quyi qatlam «Sopolli» bosqichi, uning yuqori qatlami va Jarqo'tonning quyi qatlami esa «Jarqo'ton» bosqichi debmutxassislar tomonidan belgilangan. Shunday qilib, Janubiy O'zbekiston bronza davriga oid yodgorliklarning xronologik davriy sistemasi ishlab chiqilgai. Shuningdek, A.Asqarov B.Abdullayev bilan birgalikda Jarqo'ton nekropolidagi 582 ta mozorni o'rganib, Muloli kompleksini ham ikkita birin-ketin keladigan xronologik davrlarga bo'lib, uni Ko'zali va Muloli bosqichlari deb atadi. (Askarov A., Abdullayev B., 1933, 40).

Jarqo'ton shaxarchasining funksiya qilingan davrlari 3 bosqichta bo'linib, ular birin-ketin keladigan - Jarqo'ton. Ko'zali, Muloli bosqichlari deb ataladigan bo'ldi. Ma'lum bo'ldiki, Jarqo'ton yodgorligida ana shu uchala bosqichlar davrida ham hayot bo'lgan. Inson jamoalari tomonidan Jarqo'ton massivini o'zlashtirilishi Namozgoh VI bronza davridagi Oltintepa, Namozgoh, Anov, Gissartepa, Shaxtepa, Shaxri - Soxta, Mungidak singari yodgorliklardan o'zining o'zlashtirilishi bilan farq qiladi. Yuqorida zikr etilgan yodgorlikning ayrimlarida madaniy qatlam 30 metr balandlikni tashkil qilgan xolda, Jarqo'tonda bu manzara boshqacharoq, ya'ni shaxar markazi atrofi doimiy ravishda kengayib borib, natijada ayni vaktida bu yerda o'nlab tepaliklarning mavjudligi ham bu jarayondan guvohlik beradi.

Shuvday qilib, Jarqo'ton har xil tepaliklardan tashkil topgan qurama (aglomerasiya) ilk shaxarchadir. Jarqo'ton shaxar qal'asining shakllanishi bu yerda ibtidoiy jamoalar ijtimoiy-iqtisodiy xayotida chuqur o'zgarishlar sodir bo'lganligini ko'rsatdi, Masalan, ark qal'a mustaqil ravishda devorlar bilan o'rab olingan, uning g'arbiy qismida saroy joylashgan, uning o'rta qismida esa yashash turar joylar kvartallari shakllangai xolda ular ko'chalar bilan tutashirilgan. Jarqo'tonda «ark», ibodatxona, uy-joy kvartallari shakllanib, ular kelajakda shaxarning markaziy organizmini tashkil etgan. Shaxar arkida xukmdorlar jamiyati yashagan bo'lsa, ibodatxona va machitlar shaxar kvartallari hamda dala xovlilar esa axlining ideologik diniy markazlari bo'lgan. Demak, Jarqo'ton manbalari muxim tarixiy burilish bo'lgan manzarani, ya'ni ibtidoiy jamiyat tuzumining tugab borishi va sinfiy jamiyat tuzumining vujudga kelishi jarayonidan dalolat beradi.

Keyinroq, Jarqo'ton bosqichining ikkinchi yarmiga kelib, nekropol shaxar tashqarisidagi aloxida joyga chiqariladi va o'lganlarini yashash uylarning taglariga dafn qilish odatlari tugallanadi. Jarqo'ton nekropoli bir necha o'nlab gektar joyni egallagan xolda bu yerda qariyb bir necha o'n minglab mozorlar borligi kuzatildi. Bu manzara shaxarning doimiy ravishda xarakatda bo'lganligidan dalolat beradi. Bu shaxarda xunarmandchilik, xususan, sopolchilik xumdonlarning aloxida maydonlarda tashkil qilinishi singari manzarani Oltintepa. Ulug'gepa va Sopollitepalarda ham kuzatish mumkii edi. Qisqacha xulosa qilinganda shuni aytish lozimki, Jarqo'ton

eramizdan oldingi II ming yilliklarning ikkinchi yarmiga mansub yirik shahar markazlaridan biri bo'lib, Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanida joylashgan xolda, maydoni 100 gektarga yaqin joyni egallaydi. Jarqo'tonda ilk shaxarlarga xos bo'lgan barcha xislatlar mavjud. Jumladan, bu yerda qala, shahriston, mudofaa devori, saroy, ibodatxona, kulolchilik markazlari, nekropol va boshqalar taqdim qilingan. Bu ilk shaxar asosan yuqori rivojlangan sug'orma dexqonchilik negizidan kelib chiqqan madaniyat va iqtisodiyotning maxsuli sifatida vujudga keldi. Jarqo'tonda O'zbekiston xalqlari tarixidan eng qadimgi 3 gektarlik mudofaa devori bilan o'rab olingan qal'a, ancha mustaxkam qilib qurilgan saroy va ibodatxona ochilib o'rganildi. Moddiy madaniyat manbalarga ko'ra shaxar axolisi uchta ijtimoiy tabaqadan iborat bo'lgan: 1) aslzodalar hokimlar, kohinlar, oqsoqollar; 2) erkin, oddiy shaxarliklar - dexqonlar, xunarmandlar, askarlar, savdogarlar, xizmatchilar; 3) xuquqsizlar - oila «qullari» va boshqalar. Bu omillar bu yerda ibtidoiy jamiyat yuksalib, ilk sinfiy jamiyag darajasiga ko'tarilganligidan dalolatdir. O'z navbatida, ilk shaxarlar qadimgi Sharqdaga «nom»lari kabi kichik-kichik davlatchalarning siyosiy, iqtisodiy, diniy markazi sifatida shakllangan va faoliyat ko'rsatgan. Aslida ilk shaxarlarning tashkil topishi, sinfiy jamiyat va davlatchilix madaniyatining shakllanishi dialektik uyg'unlikdagi jarayondir. Insoniyat ruxiy madaniyatining rivoji ham ushbu jarayon bilan bog'liqdir. Jarqo'ton ibodatxonasi mil. avv, II ming yillikning ikkinchi yarmida ilk zardo'shtiy dinining shakllanayotganidan dalolat beradi. Shunday qilib, bundan qariyb 3 ming yil muqaddam Samarqand, Buxoro, Xiva, Marv, Termiz, Xo'jand, Qarshk kabi shaxarlarning paydo bo'lgaiidan ming yil avval, O'zbekistonniig janubida - Qadimgi Baqtriya muzofotlarida, Amudaryoning o'rta havzasida ilk shaxar madaniyati shakllandi va Marg'iyona hamda Baqtriyaning o'ziga xos buyuk shaharlanish jarayoni boshlanib ketdi.

Xullas, Jarqo'ton yodgorligi Qadimgi Marg'iyona va Baqtriya xalqlari tarixining boy xalq ekanligi isbotlandi. Jarqo'tonda arxeologik o'rganish ishlari hamon davom etmoqda.

Shuningdek, bir qator natijali arxeologik ishlar Bo'ston va Mulolitepalarda olib borilib, bu yodgorliklar asosan Surxondaryo viloyatining Sherobod, Sho'rchi mintaqalarida joylashgan. Ma'ruzamizning navbatdagi satrlarini ana shu yodgorliklarda bajarilgan ilmiy - tadqiqot natijalarining qisqacha tafsilotiga qaratamiz.

1974 yili A.Asqarov rahbarligidagi gurux Bo'stonsoy o'zani bo'ylab, uning o'ng muzofotlarida dala kuzatuv ishlari olib borib, bronza davriga tegishli bir necha qishloq va qabristonlarni qalamga oldi va xaritalashtirdi. Buqishloqlar eski Bo'stonsoy o'zani bo'ylab tarqalgan holda, ular tashqi ko'rinishidan maydaroq do'ngliklardan iborat edi. Tashqi ko'rinishdan esa ular deyarli bir-biridan farq qilmas edi. Odatda, ular tabiat ta'sirida yemirilgan xolda ustlarida esa qig'gos sopol siniqlari, toshdan ishlangan buyumlar sochilib yotardi. Bu atrofda kamida 6 ta qishloq va qabristonlar topilib, ularga 1-5 tartibda nom berildi. Bo'ston-3 qabristonida qazishmalar bajarilib, 38 ta mozor ochib o'rganildi.

Bo'ston-1 qabristoni esa Jarqo'ton shaxarchasidan 2 km shimolroqdagi balandlikda joylashgan. Qabristonning o'rta qismidan ariq o'tgan bo'lib, natijada yodgorlik qisman buzilgan, Ammo olib borilgan kuzatuvlar tufayli 12 ta qabr tekshirildi. Dafn qilingan kishilar g'ujanak tarzda joylashtirilgan bo'lib, ular bilan birga so'nggi Jarqo'ton tipidagi sopol idishlar qo'yilgan. Bo'ston-2 qabristoni Bo'ston-1 dan 2 km janubiy g'arbiy tomonda joylashgan xolda, yerning egatlab yotgan maydoni 1 gektardan ziyodrok. Bu yerda o'rganilgan qabrlar ham so'ngin Jarqo'ton topilmalariga xos manbalar berdi. Bo'ston-3 qabristonining maydoni 0,4 ga dan iborat bo'lib, yodgorlik Bo'ston-2 dan 1 km uzoqlikda joylashgan. Tashqi ko'rinishidan u do'nglik joyni eslatadi. 1974 yili bu yodgorlikda qazishmalar o'tkazilib, -38 ta qabr ochildi. Qablardan topilgan sopol buyumlar Jarqo'tonning so'nggi bosqichini eslatadi. Bu yerda qabrlarning ayrimlari to'la tarzida bo'lsa, boshqalari jorma shaklidir. Ko'pgina qablardagi skletlarning pala-partish yotishiga qaraganda, bu qabrlarning ko'pchiligi qadimga davrlarda o'g'irlanganligidan dalolat beradi. Faqat 6 ta teginilmagan qablarni o'rganish tufayli dafn shakl-mamoyillari aniklandi. Ma'lum bo'ldiki, bu qishloqda yashagan bronza davri aholisi o'lganlarni gujanak holda yon tomoniga yotqizib, sopol idishlari, ayrim vaqtda zebi-ziynat buyumlari bilan birga dafn qilingan ekanlar. Bu yerda 2 ta qabr ken pof (bo'sh) tarzda topilishi, ya'ni ular bo'sh qablardan iborat bo'lib, ramziy xolatni bildiradi. Bu yerdagi ko'pgina qablarda dafn inventori kuzatilmaydi. Ayrim qablarda sopol idishlar bilan birga bronzadan ishlangan, xayvon suyaklari topishgan. Bu yerda o'lganlarni olovda kuydirib ko'mish urf-odatlar bilan bog'liq marosim izlari kuzatildi. Ayrim qabrlar o'g'irlangan. Ochilgan qabrlarning deyarli barchasi inventorga kambag'al, boy qabrlar esa o'g'irlanganligi ayon bo'ldi. Bo'ston-4 qishlog'i Bo'ston-3 qabristoniga yaqin joyda joylashgan. Uning maydoni 0,5 ga atrofida, qishloq hududidan sopol siniqlari, xayvon suyaklari, tosh qurol bo'laklari topilib, bu buyumlar Jarqo'tonning so'nggi davriga xosdir. Bo'ston-5 qabristoni shu qishloqdai 1 km janubda joylashgan bo'lib, u aslida 3 ta chog'iroq tepaliklardan iborat va 1 ga atrofidagi maydonni egallaydi. Bu yerda buzilgan qablardan tashqariga chiqib yotgan sopol buyumlar ham Jarqo'tonning so'nggi davriga mansubligi ma'lum buldi. Bu yodgorliklarda hamon qazishma orqali tekshiruv ishlari bajarilgan emas. Bqstonsoy qabristonlari so'ngi Jarqo'ton davriga oid bo'lib, ularni kelajakda qunt bilan o'rganish Surxon-Sherobod vohalarida yashagan bronza davri qabilalarining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tarixini chuqurroq biliishda muxim ilmiy ahamiyat kasb etishi, shubxasiz.

Qadimgi Muloli qishlog'i va qabristoni qiziqarli yodgorliklar qatoriga kiradi. Bu qishloq aslida Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumani xududidagi Qizilsoy o'zani qirg'og'ida joylashgan bo'lib, dastlab 1970 yili arxeolog B.Tursunov tomonidan kashf qilingan edi. Bu qadimgi qishloq ayni vaqtda soy yoqalab sochilib yotgan bir necha do'nglikdan iborat va uning maydoni 1 gektarga yaqin. Qishloq xududida bronza davriga oid sopol buyumlar, toshdan ishlangai qurollarni siniqlari sochilib yotardi.



Qazishmalar tufayli qishloqning madaniy qatlami 3 metrgacha yetadi. Uning bir chekkasidan sopol pishirish xumdoni topildi. Qishloq alohida qurilgan bir necha uylardan iborat makon bo'lib, uning janubiy-g'arbiy tomonidan maydoni 1 ga yaqin qabrisgon joylashgan. Mo'loli qishlog'i axli ham o'lganlarni g'ujanak qilib, yon tomonlama yotkizib dafn etganlar. Qabrlardagi skeletlar atrofida 2-4 tadan sopol idishlar uchraydi. Dafn inventoriari tarkibida sopol idishlar, bronza buyumlari hamda oltin munchoqlar bor. Qabr inventoriari aksariyatini sopol idishlar tashkil qilib, bu yerda oyoqli vazalar, kosachalar, silindr shaklidagi kosalar tashkil qiladi. Mo'loli qabrlaridan topilgan buyumlar Sherobod voxasidagi Jarqo'ton qabristoni kompleksiga aynan o'xshashligi ma'lum bo'ldi.

So'ngi bronza davriga mansub Bo'ston-6 yodgorligining tadqiqotlari natijalari mazkur hududlar ilk sivilizasiyasi shakllanishi borasida qimmatli ma'lumotlar berdi. Yodgorlik Sherobod tumanidagi Oqqo'rg'on qishlog'i yaqinida eski Bo'stonsoyning eski o'zani qirg'og'ida joylashgan. Bu yerdagi past-baland mayda do'ngliklarning birida katta qabriston joylashgan bo'lib, u 7 gektar maydonni egallagan. Yodgorlik 1990 yili Samarqand davlat universiteti professori N.A.Avanesova tomonidan topilgan va har yili bu yerda uzluksiz qazishma ishlari bajarilib kelinadi hamda qiziqarli natijalarga erishildi. Qabristonning deyarli 50 % i qazib qurilishi va 354 ta qabr ochib tekshirildi. Qabriston tarkibida diniy urf-odatlar bilan bog'liq xap xil marosimlar o'tkaziladigan maydon topildi. Qabrlar katakomi, jorma va to'la shakllarda taqdim qilingan. Erkaklarni o'ng, ayollarni chap biqinyga yotqizib, gujanak tarzda dafn qilish odati ma'lum bo'ldi, qabrlardagi inveyatorlar sopol idishlar, jezdan yasalgan oyna, xanjar, pichoq, tesha, bigiz va har xil zeb-ziynatlardan iborat. Bu yerda o'lgan odamlarni xom g'ishtdan qurilgan maxsus tobutlarga solib, kuydirib kumish urf-odati mavjudligi aniqlandi. Sopolli madaniyatining so'nggi fazasiga mansub bo'lgan bu qabriston manbalari ibtidoiy dehqonlarning turmush tarzi, ma'naviy madaniyati, urf-odatlari singari masalalarni tarixan yoritishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Bu yodgorlikka yaqin joydan Bo'ston-7 qabristoni ham o'rganilish arafasida turibdi.

Bo'ston va Mo'loli qishloqlari va ular bilan bog'liq bo'lgan qabristonlardan manbalar so'nggi bronza davrida yashagan ajdodlarimizning turmush tarzi va madaniyatini o'rganishda muxim ilmiy manba xisoblanadi.

Bulardan tashqari, Qiziljartepa, Qizilsuv va Bo'yrachi-1 tepalari ham tekshirildi. Qadimgi bu qishloqlarning maydonlari 8-10 gektardan iborat bo'lib, axolisi sug'orma dexqonchilik va chorvachilik bilan tirikchilik qilganlar. Bu yodgorliklarning barchasi mil.avv. II minginchi yillikning ikkinchi yarmiga mansubdir.

Yuqorida qisqacha bayon etilgan qadimgi dexqon jamoalarining xo'jalik va madaniy soxalarda erishgan yutuqlarga qaraganda, Sopolli - Jarqo'ton madaniyati Qadimgi Sharq sivilizasiyasining ajralmas bir qismi, uning mil. avv, II ming yillikda O'rta Amu xavzasida, Qadimgi Baqtriya yerlarida tashkil topgan yangi markaz

ekanligini ko'rdik. Uning uy-joy qurilish arxitekturasi Sopollitepa va Jarqo'ton maydonlarining kvartallarga bo'linishi original mudofaa sistemasi, qal'a - qo'rg'oni, saroyi, ibodatxonasi bu muzofotda shakllangan madaniyatning yuksakligidan dalolat bergan xolda, Jarqo'ton davrining oxirgi bosqichlarida bu yerda shaxarsozlikning rivojlanishi, uning negizida Jarqo'ton ilk shaxriniig vujudga kelishi, bu manzapa muzofotda shaxarlanish jarayonining boshlanishiga olib keldi. Namozgoh, Oltintepa, Shaxri - Soxta, Sopolli singari protoshaxarlar doimiy rivojlanishda bo'lgaida, ular Jarqo'ton va Shaxri -Soxta singari ilk shaxarlarga aylanishi mumkin edi va muhim markazlar sifatida shaxar davlatlarning tashkil topishi sodir bo'ldi. Ana shu negizda Jarqo'ton misolida ilk shaxarlar vujudga kelib, urbonik sivilizasiya dinamik ravishda kamol topa boshladi.

**Mavzu: Vatanimizda IX-XII asrlarda o'zbek davlatchiligi tarixi**  
**(Nazariy 2 soat)**

**REJA:**

- 1. Vatanimizda IX-XII asrlarda o'zbek davlatchiligi tarixining o'ziga xos xususiyatlari**
- 2. Somoniylar, Qoraxoniylarning o'zbek davlatchiligi tarixida tutgan o'rni.**
- 3. Buyuk Xorazm davlatining o'ziga xos xususiyatlari**

Vatanimizda IX-XII asrlarda o'zbek davlatchiligi tarixi o'ziga xos xususiyatlari, Somoniylar davri davlat boshqariluv va uning o'ziga xos xususiyatlari, Qoraxoniylar davri davlat boshqariluv va uning o'ziga xos xususiyatlari, Buyuk Xorazm davlati davlat boshqariluv va uning o'ziga xos xususiyatlari,

O'zbekiston davlat suverenitetining e'lon qilinishi, O'zbekiston mustaqilligi huquqiy asosining yaratilishi, yangi Konstitusiyani qabul qilinishi. O'zbekistonda Oliy davlat vakillik organi-qonun chiqaruvchi hokimiyatning shakllanishi, Milliy davlat tizimining barpo qilinishi, boshqaruvda yangi usullarning qaror topishi,, mahalliy davlat hokimiyati tizimida tub o'zgarishlar yasalishi. Demokratiyani yanada chuqurlashtirish, O'zbekistonda inson huquqlari va erkinliklari kafolatining yaratilishi. O'zbekiston mustaqilligi yillarida Qoraqolpog'iston davlatchiligining taraqqiyoti

O'rta Osiyo, xususan vatanimiz sarhadlarinig Arab xalifaligiga qaram bo'lib qolishining o'zi siyosiy mustaqillik, o'z yurtida davlatni boshqarish erki yo'qolganligini anglatar edi.

Shu o'rinda bu galgi erkni yo'qotish ajdodlarimiz uchun qimmatga tushdi.

Bu davr davlatchiligimiz tarixida Ismoil Somoniy tomonidan amalga oshirilgan harakatlarni alohida etirof etish lozim, sababi Ismoil Somoniy markazlashgan davlatchilik asoslarinin qaytadan tiklashga muvaffaq bo'ldi. Bu tizim asosini Oliy hukmdor dargohi va Devonlar majmui tashkil etgan. Devonlarning soni 10 ta bo'lgan (Bosh vazir devoni, Moliya ishlari devoni, davlat rasmiy hujjatlaeini ishlab chiqish devoni, soqchilar boshlig'I devoni, xat-xabarlar mutassadisi devoni, saroy ish boshqaruvchisi devoni, davlat mulklari devoni, muhtaasib devoni, vaqflar devoni, qozilik ishlari devoni). Mazkur devonlarning joylarda ham bo'limlari bo'lgan. Ular mahalliy hokimlarga bo'ysungan.

Davlat ishlariga qabul qilishda ma'lum bir talablar silsilasi mavjud edi. Masalan, davlat tilini mukammal bilish zamona huquq me'yorlaridan to'liq xabardorlik, tarix, adabiyot kabi ilmlardan boxabarlik, hisob-kitob ishlaridagi bilimdonlik va hokazo.

Samoniylar davrida davlat boshqaruvi va harbiy xizmatning o'z davri uchun murakkab va salohiyatli tizim ekanligini quyidagi ma'lumotlardan bilish mumkin: xazinadagi umumiy yillik daromad 45 mln. dirhamni tashkil etgan holda shundan 20

mln dirham davlat boshqariluvini va lashkarga sarf etilgan. Mutafakkir Farobiy o'z asarlarida davlatchilikni mag'zini quyidagicha tariflagan: "Davlatning vazifasi insonlarni baxt saodatga eltishdir". Somoniylar davlati o'rniga Qoraxoniylar siyosiy hokimiyati tashkil topdi. XI asr boshlarida Sharqiy Turkiston, Toshkent, Isfijob, Farg'ona, Buxoro, Samarqand, Chag'aniyon, Xuttalon viloyatlari Qoraxoniylar Amudaryoning chap sohilidagi yerlar to G'aznagacha Xuroson, Siyeston viloyatlari G'aznaviylar, Xorazm esa Xorazmshohlar Orol dengizidan Sharq va Shimoldagi yerlar O'g'uzlar Ittifoqi tomonidan boshqarilar edi. Qoraxoniylar faoliyatiga chek qo'yish ishlari Xorazmshoh Sulton Muhammad tomonidan amalga oshirildi.

Qoraxoniylar davri boshqaruv tizimi masalasiga to'xtalib o'tsak Sovet tarixshunosligi mazkur sulolaning mintaqadagi siyosiy hokimiyati va boshqaruv usuli haqida so'z borganda Qoraxoniylar, Somoniylarning o'rnini olish bilan markazlashgan davlat tizimiga zarba berildi, boshqaruvda mulkchilik shakli joriy qilindi, qabiladagi aqidani ilgari surgan. Lekin boshqaruv tizimida Somoniylar vaqtida mavjud bo'lgan asosiy mazmun saqlanib qolgan. Bunda Dargoh hamda Devonliklar bo'lgan. Oily hukmdor bilan viloyatlar, fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirib turuvchi Hojiblar faoliyati alohida o'rin tutgan. Masalan Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qashg'ariylar shunday unvonga munosib ko'rilgan. Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asarida jamiyatning to'rt ustunini quyidagicha belgilab bergan: adolat, davlat, aqlu-zakovat va qanoat. Eng muhimi shuki ana shu to'rt ustun asosidagi jamiyat baxt-saodatini ta'minlashda ilm birinchi o'ringa qo'yilgan: "O'quv qayda bo'lsa ulug'lik bo'lar, bilim qayda bo'lsa buyuklik bo'lar". Mahmud Qashg'ariyning "Devonu lug'ati at-Turk" asarida davlatchilikka tegishli ma'lumotlar juda ko'p. U o'zining dunyo xaritasida markazda Yettisuv, Sharqiy Turkiston hududini joylashtirgan.

G'aznaviylar davri boshqaruv tizimi o'zining muqarrarligi bilan o'zini jalb etadi. U ko'p jihatdan Somoniylar, qoraxoniylar zamonidagi davlat boshqaruv tizimlariga yaqin va o'xshash. Bu tabiiy hol. Chunki ilgari ham ta'kidlab o'tganimizdek, har qanday boshqaruv tizimi (shakli) mavjud ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-madaniy sharoitga bog'liq bo'ladi. Boshqa tomondan esa g'aznaviylar hukmronligi ostida bo'lgan Xuroson, Siyeston, Kobul, G'azna kabi viloyatlar mintaqning ajralmas tarkibiy qismlari bo'lib kelganliklarini nazarda tutsak, boshqaruvchilik taraqqiyotidagi o'xshashliklar, yaqinliklar sababi ma'lum bo'ladi.

Demak, boshqaruv tizimining markazida dargoh va devonlar (vazirliklar) turgan. Avvallari ham ko'rilganidek, dargohga oily hukmdor (g'aznaviy hukmdorlar "Amir" unvoniga ega bo'lganlar) hayoti va faoliyati bilan aloqador xizmatlar, amallar kirgan. Ular orasida "hojiblik" xizmati alohida e'tiborga loyiq. G'aznaviylar davri bo'yicha manbalar biz hojiblikning quyidagi shakllariga duch keldik: ulug' hojib, saroy hojibi, navbatchi hojib, hojib-jamoador.

Devonlar ijroiya idoralari bo'lgan va manbalarda 5 ta devonning nomi tilga olinadi. Viloyat boshlig'ini, shahar boshlig'ini rais deb atashganlar. Xullas o'ziga xos davlatchilik xususiyatlari bo'lgan.

G'aznaviylar, qoraxoniylar, somoniylar misolida ko'rganimizdek Saljuqiylar boshqaruv tizimi ham ikkiga Dargoh va Devonlarga bo'lingan. Nizomul Mulk "Qachonki podshohlik ishi ayollar va go'daklar qo'lga o'tsa bilginki podshohlik o'sha xonadonni tark etgay" degan fikrni bildirgan. Mahalliy boshqaruv tizimida viloyat boshliqlari ham o'z devonlariga ega bo'lganlar. Tuman, shahar miqyosida boshqaruv tizimi ham viloyatlarniki kabi bo'lgan. Faqat harbiy faoliyat bundan mustasno edi.

O'zbek davlatchiligi taraqqiyotida Xorazmda XI-XIII asrlarda kechgan siyosiy jarayon muhim o'rin tutadi. Xorazm vohasida Xorazmshohlar sulolalari hukmronlik qilgan. Uzoq asrlar davomida bu viloyatda bir qator sulolalar xorazmshohlar unvoni ostida faoliyat ko'rsatganliklarini bilamiz. Masalan, IV-X asrlarda afrigiylar xonadoni, 995-1017 yillarda ma'muniylar (Ma'mun I, Abulhasan Ali, Ma'mun II), 1017-1041 yillarda esa oltintoshiylar (Oltuntosh, Horun, Handon) sulolalari xorazmshohlar unvoni bilan boshqaruv kursida o'tirganlar. Ammo Xorazm doirasidan tashqariga chiqib, mamlakat, mintaqa miqyosida ot surib va bu bilan ham cheklanmasdan boshqaruvning saltanat darajasiga erishgan sulola bu anushtegeniylardir (1097-1231).

Anushtegeniylar zamonida davlat boshqaruvi qanday bo'lgan, savoli tug'ilishi tabiiy. Anushtegeniylar davri boshqaruvida ham ilgari ko'rib o'tilgan sulolalar boshqaruvidan farqli tizim bo'lgan. Zero, bir tomondan, sulaolalar o'zgarishi bilan voqelik, ya'ni makon va an'analar o'sha-o'shaligicha qolavergan, ikkinchi tomondan, anushtegeniylar ma'lum muddat saljuqiylar dargohi bilan nihoyatda yaqin munosabatda bo'lganliklari uchun ulardagi boshqaruv tizimi tajribasini o'zlashtirishlari qiyin bo'lmagan. Demak, davlat boshqaruvi ikki tizimdan: dargoh va devonlar majmuidan iborat bo'lgan.

O'zbek davlatchiligi tarixida anushtegeniylar sulolasi davri muhim ahamiyat kasb etadi. Bular ichki va tashqi siyosatda o'z mamlakati xalqini dunyoga olqishlash yo'lida say-harakat qilishib Buyuk Xorazmshohlar nomida tariximizda abadiy qolishgan.

**Mavzu: Amir Temur davrida o'zbek davlatchiligining yuksalishi.**  
**(Nazariy 2 soat)**

**REJA:**

1. Amir Temur va temuriylar davrining o'zbek davlatchiligi tarixida tutgan o'рни.
2. Amir Temur va temuriylar davri davlatchiligining asosiy tamoyillari.
3. "Temur tuzuklari" – manbasida davlat boshqaruvi mazmun, mohiyoti,

Amir Temur va temuriylar davrining o'zbek davlatchiligi tarixida tutgan o'рни. Amir Temur davrida o'zbek davlatchiligining yuksalishi, Amir Temur va temuriylar davri davlatchiligining asosiy tamoyillari. "Temur tuzuklari" – manbasida davlat boshqaruvi mazmun, mohiyoti,

Davlat, davlatchilik mohiyati uning jamiyatda mavjud barcha ichki va tashqi imkoniyatlarini ro'yobga chiqaruvchi tashkilotchiligi bilan belgilanadi. Mo'g'ullar hukumronligi davrida davlatchiligimiz o'z tashkilotchilik qobiliyatini amalda ifoda etish imkoniga ega bo'lmadi. Har qanday qobiliyat faqat erkinlik sharoitidagina o'zligini namoyon qila oladi. Amir Temur ichki va tashqi siyosat imkoniyatlari yo'nalishida davlat faoliyatiga boshchilik qilishi kerak edi. Mamlakat siyosiy birligi va yaxlitligi o'zbek davlatchiligi tarixi-tabiatidagi mutloq haqiqatdir.

Amir Temur va temuriylar zamon davlatchilik siyosati, boshqaruv tizimini ko'rib chiqar ekanmiz, davlat, davlatchilik mohiyatida muayyan bir makon va jamiyatda mavjud turli imkoniyatlarni shu yerlik xalq manfaati yo'lida yuzaga chiqaruvchi tashkilotchilik yotganini eslatib o'tish g'oyatda muhimdir. Zero, davlat asoslari, davlatchilik har bir jamiyat va xalq «boshiga bir marta bitilgan bo'ladi». Shu ma'noda o'zbek davlatchiligi miloddan avvalgi 1-mingyillikning birinchi yarmidan o'z tarixini boshlab to Amir Temur davlatimiz tepasiga kelgunga qadar deyarli 2100 yillik taraqqiyot yo'lini bosib o'tgandi. Bu ulkan davr ichida davlatimiz boshqaruviga turli sulolalar (bugungi tilda aytganda siyosiy partiyalar) kelib ketdi. Ularning faoliyati turli zamonlarda, turli obyektiv-subyektiv shart-sharoitlarda turlicha kechdi. Biz mazkur masalaga urg'u berayotganimizning bir necha sababi bor.

Birinchiidan, biz Amir Temur davlati, Temuriylar davlati kabi keng tarqalgan tushunchalarga qarshimiz. Zero, davlatchilik asoslari yagona bo'ladi. Demak, Amir Temur davlati emas, o'zbek davlatchiligining Amir Temur boshqargan bosqichi deyilsa har taraflama xaqiqatga mos tushadi. Ikkinchiidan, Amir Temur davlati tushunchasi davlatchiligimizning ham ungacha bo'lgan, ham undan keyingi tarakkiyot yo'lini uzib qo'yadi (bu fikr boshqa sulolaviy davlatlarga ham tegishli, albatta). Bu o'z o'rnida, bir tomondan, tarixni soxtalashtirsa, ikkinchi tomondan, davlatchiligimiz tarixidagi bosqichiy jarayonlar, masalan, yana o'sha Amir Temur davri mohiyatini anglashni qiyinlashtiradi. Zero, hatto sof ilmiy nuqtai nazardan olganda ham

mushohada jarayonda kuzatilgandagina to'laqonli, xulosa uchun imkon yaraladi.  
Uchinchidan, biz o'zbek davlatchiligi mohiyati va imkoniyatlari haqida qanchalik so'zlamaylik, agar uning amaliy ifodasining guvohi (bugungi kun nuqtai nazaridan esa ko'ruvchisi) bo'lmas ekanmiz, gap-gapligicha qolaveradi. Shu ma'noda Amir Temur davri davlatchiligimizning mohiyati va imkoniyatlari ko'lamini amalda yuzaga chiqarib berganligi bilan ham g'oyatda muhimdir (albatta, o'z davri sharoitida). Shunday qilib, Amir Temur davriga qadar o'zbek davlatchiligi 2100 yillik taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan ekan, shunga ko'ra biz birinchi xulosani qilishimiz mumkin. Amir Temur davri davlatchilik tizimi muayyan bir o'tmishga, an'analar, tajribalar, saboqlar, qonuniyatlarga asoslangan holda tashkil qilingan. Shu yerda haqli savol tug'iladi: bu o'tmish yo'l qonuniyatlari, tajribalari, ya'ni davlatchilik asoslari nimalarda o'z aksini topgandi va Amir Temur davlatimizga rahbarlik qilgan yillari ularga qanday munosabatda bo'lindi? Savolni shu tariqa qo'yish nihoyatda muhim. Zero, bizning tushunchamizda davlat arbobi, siyosatchi salohiyati (va bundan kelib chiqadigan buyukligi), eng avvalo, uning davlatchilik asoslarini nechog'lik teran anglab olishi va amalda unga rioya eta bilishi bilan belgilanadi. Bu goyatda og'ir vazifadir.

**O'zbek davlatchiligining Amir Temur davriga qadar shakllanib zamonlar sinovidan o'tgan asoslari quyidagilardir:**

1. Davlat o'z vazifasini bajarmog'i uchun, eng avvalo, siyosiy jihatdan mustaqilbo'lishi kerak.

**Davlat va jamiyat siyosiy yaxlitligi buzilmasligi kerak. h**

Davlat va jamiyat muayyan bir qonunlar, tartiblar, mafkura asosida boshqarilmog'i lozim.

Boshqaruvning turli tabaqalari, yo'nalishlari saholarini muvofiklashtirib turuvchi ma'lum bir tizim shakllangan bo'lishi darkor.

Jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar ahvoli (taraqqiyoti) davlat diqqat markazida turmog'i lozim.

Fan va madaniyat ravnaqi to'g'risida doimiy qayg'urish davlat ahamiyatiga molik qat'iy siyosat sifatida qaralmog'i lozim.

Xar bir davr shart-sharoiti, tartiblariga ko'ra davlat jamiyat ichki taraqqiyoti masalalarini tashqi dunyoda mavjud omillardan foydalangan holda ham hal etib borishi darkor.

Davlat tepasida turgan kuchlar o'tmish, zamona va kelajakni teran tafakkur, qat'iy iymon, g'oyatda yuksak ma'naviyatparvarlik va millatparvarlik ila anglamog'i kerak.

Mazkur sakkiz asos qonuniyat sifatida shakllangan edi.

U yoki bu zamonda ulardan foydalaniladimi yo yo'q, bu boshqa masala. Biroq Amir Temurning o'zbek davlatchiligi tarixida tutgan buyuk o'rni shundaki, u o'zining butun faoliyati mobaynida ana shu asoslarni ruyobga chikara oldi. Ya'ni 150 yillik qaramlikdan so'ng davlatimiz siyosiy mustaqilligini tikladi; o'z davrida mavjud shariat, to'ro-tuzuklar asosida jamiyat hayotini boshqarishni yo'lga qo'ydi; markazlashgan davlat tizimini yaratdiki, o'z zamonasi uchun bu dunyo miqyosidagi

taraqqiyparvar voqeya hisoblangandi; iqtisodiy munosabatlar (dehqonchilik, xunarmandchilik, savdo-sotiq rivoji uchun barcha ichki va tashqi sharoitlarni barpo etishga qatg'iq kirishdi; ijtimoiy munosabatlarni (soliq tizimi, mulkchilik, turli ijtimoiy tabaqalar manfaatini nazarga olish va xokazo) muhim deb bildi; xukmronligining dastlabki kunlaridan to umrining oxirigacha fan va madaniyat ravnaqiga alohida diqqat bilan qaradi; o'z davri shart-sharoitiga ko'ra tashqi siyosatda qat'iy va faol hamda maqsadga muvofiq ravishda xarakat qilib, davlatni saltanat mavqeyega olib chiqdi; o'lkani dunyoning eng buyuk siyosiy, iqtisodiy, madaniy markaziga aylantirdi; asosida yakkahukmronlik mazmuni yotgan jamiyat boimaruvida birinchi rahbar qanday bo'lishi kerakligini namoyon etib ketdi.

Shu bilan birga Amir Temur mazkur sakkiz asosni yana bir muhim — to'qqizinchi asos bilan boyitdi. U ham bo'lsa, jamiyat rivojida barcha ijtimoiy tabaqalar faoliyatini nazarda tutish va manfaatlarini ta'minlashdan iboratdir. Amir Temur buyicha bunday tabaqalar 12 ta bo'lib, ularda jamiyatning barcha tarkibiy kislari o'rin olgan. Diqqatga sazovor tomoni shundaki, tuzuklar bayonida Amir Temur tabiiy ravishda din va shariatni birinchi o'rinda ta'kidlagan holda ijtimoiy tabaqalarga bo'lgan munosabatni boshqa yo'nalish va masalalardan ustun qo'yadi. Demak, Amir Temur davrida davlatimizning to'qqiz asosi o'z ijobiy yechimini topgan va xuddi mana shu to'qqiz asos Soxibqiron yuritgan davlatchilik siyosatining to'qqiz tomonini tashkil etadi.

Yuqorida davlatning siyosiy mustaqilligi va mamlakat yaxlitligi borasida Amir Temur olib borgan faoliyat bilan qisqacha tanishib o'tdik. Quyida uning davlat boshqaruvi, davlatchilik va xarbiy siyosat borasidagi harakatlarini yoritamiz.

Chingiziylarning o'lkadagi hukmronligi barcha sohalar taraqqiyotida salbiy asorat qoldirgani fakt. Davlat boshqaruvi sohasi ham bundan mustasno emas. Umuman boshqa, ko'chmanchi shart-sharoitda shakllangan siyosiy dunyoqarash va tarbiya chingiziy namoyandalar uchun mahalliy boshqaruv an'alarini qabul etishga yo'l bermasdi. Shu sababdan ham avvalgi davrlarda kechgan davlatchilik boshqaruvidan ko'p asrlik tajriba va an'alar chingiziylar xukmronligi zamonida amalda o'z davomiyligini topa olmadi. Agar bu davr bir yarim asr kechgani nazarda tutilsa, shu sohadagi ahvol nechog'lik og'irlashib qolgani ma'lum bo'ladi. Amir Temurning o'zbek davlatchiligi oldida qilgan xizmatlaridan biri shundaki, u 150 yillik o'zoq bir davr o'tib, shuning orasida odatlar, an'analarda kattadan-katta o'zgarishlar sodir bo'lganiga qaramay, qadimdan mavjud bo'lib kelgan o'zbek davlatchiligi boshqaruv tizimining (biz hatto ilmining degan bo'lardik) klassik namunalarini qaytadan tiklay bildi. Nihoyatda mushkul bo'lgan bu vazifani u donolik bilan hal eta oldi. Demak, Amir Temur davrida boshqaruv ikkiidora: dargoh va devonlarga (vazirliklarga) bo'lingan.

Dargoh — eng oliy davlat idorasi. Uning boshlig'i ham tabiiy ravishda davlatning oliy xukmdori. Amir Temur davlat tepasiga kelgandan so'ng chingiziylardan bo'lmish Suyurg'atmishni xon, ya'ni oliy hukmdor deb e'lon qilgani ma'lum<sup>1</sup>. Shu bilan birga Suyurg'atmish «soxta xon» mavqeyida bo'lib, amaldagi



hokimiyat Sohibqiron ixtiyorida bo'lganini ham bilamiz. Nima uchun shunday qarama-karshilik yuzaga kelgandi, savoli tugiladi. Chingiziylarning 150 yillik xukmronligi mamlakat hayotida katga ta'sirga ega bo'lganini ta'kidlagan edik. Siyosiy munosabatlar, qarashlar, odatlar jamiyatning eng qaynok, sohalaridan biri sifatida yangilik va o'zgarishlarga boy bo'ladi. Masalan, ulus boshlig'ining biyobondan qarorgoh qurishini olaylik. Mamlakatimizda asrlar davomida davlat boshlig'ining qarorgohi shaharlarda qanchalik tabiiy bo'lib kelgan bo'lsa, chingiziylar davrida, aksincha, xon biyobondagi qarorgohda turishi kerak, qabilidagi aqida siyosiy muhitga qattiq singib ketgandi. Shunga o'xshash o'zgarishlardan bir qanchasi mazkur bir yarim asrlik jarayonda o'z o'rnini topib olgandi. Gap ularning to'g'ri-noto'g'riligida emas. Muhimi Amir Temur davlat tepasiga kelgan paytda ular jamiyat hayotidagi voqyelikni tashkil etardi. Sohibqiron bularni nazarda tutmasdan iloji yo'q edi. **Ikkinchi** tomondan, 1370 yili mamlakatda Amir Temurdanboshqa ham yana bir qancha kudratli amirlar, ularni qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy-siyosiy kuchlar bor edi. Ular ham zimdan yo ochiqchasiga mustaqal siyosat yurgizish, hatto oliy taxtni egallash niyatida bo'lganlar. Bunday sharoitda Amir Temur o'zini rasman xon deb e'lon qilaolmasdi. Chunki bu raqiblarga bahona bo'lib, norozilik va xurujlarga turtki bo'lishi turgan ran edi. Zero, xuddi shu yillar taomiliga kura siyosiy xokimiyat chingiziylar xonadoni ixtiyorida bo'lishi kerak edi. **Uchinchi** tomondan, Suyurg'atmish xon deb ko'tarilganda hali amir Xusayn masalasi hal bo'lmagandi, aniqrog'i hal bo'lish arafasida edi. Amir Xusayn esa o'z vaqtida Qobilshohni (1364), so'ng Odil Sultonni (1365) rasman xon deb e'lon qilgandi<sup>1</sup>. Demak, Amir Temur tomonidan Suyurg'atmishning xon deb e'lon qilinishi Odil Sulton «xonligi»ni, ya'ni amir Xusayn xukmdorligini bekor etish bilan barobar hisoblanardi. Xullas, mazkur masala usha zamon voqyeligidan kelib chiqab Amir Temur hokimiyatini mustaxkamlash yulida amalga oshirilgan. Sohibqiron uchun bu paytda muximi ham aslida shu edi.

**Amir Temurning chingiziylardan bo'lmish Qazonxonning qizi Saroy Mulkxonimga (1337—1408) uylanishi, ya'ni xon avlodiga kuyov (kuragon), qorindosh bo'lishi ham uning siyosiy mavqyeini rasman bo'lsa ham mustaxkamlashga xizmat qilgan. Bundan tashqori Chig'atoyxonamirlaridan Qarochar barlos Amir Temur avlodi ekanligi va u o'z vaqtida Chig'atoyxon ulug' amiri sifatida o'lkani boshqargani (Shomiy yozishicha, guyo «Chingizxon Chig'atoyni Qarocharga topshirgan»<sup>2</sup>) xaqidagi yarim haqiqat, yarim afsona ham taomilga kiritilgan. Yarim haqiqatligi shundaki, Chig'atoyning Qarochar barlos nomli mingboshisi bo'lgan. Ammo ishonchli manbalarda uning xon nomzodi sifatida mamlakatni boshqargani haqida so'z yuk,<sup>3</sup>. Shu ma'noda Yazdiy «Zafarnoma»sida keltirilgan Amir Temur ajdodlariga oid shajara g'irt afsona va to'qimadir, Zero, unga ko'ra guyo Amir Temur urug'i Chingizxon urug'i bilan amakivachcha. Bu hyech bir haqiqatga to'g'ri kelmaydi va uni isbotlovchi biron-bir tarixiy ma'lumot yo'q,. Shunga karamay ba'zi bir xollarda Amir Temur shaxsi va faoliyatini, demak, o'zbek xalqi tarixi va madaniyatini kamsitishga **urinuvchilar** mazkur afsonadan «unumli» foydalanadilar, ya'ni Amir Temurni Chingizxon va mo'g'ullar bilan bog'lab ko'rsatishga urinadilar.**

**Demak, dargoh boshida amalda Amir Temur turgan. Mamlakat va davlat**

ahamiyatidagi masalalar uning hukmi va ko'rsatmasi asosida hal etilgan. Shu bilan birga dargohda vaqti-vaqti bilan xos majlislar o'tkazilib turilgani ma'lum. Bunday majlislarda davlat va mamlakat idorasi, sodir bo'layotgan o'zgarishlarga munosabat, muhimi mansab va vazifalarga tayinlash kabi masalalar ko'rib chiqilgan. Bunday tadbirlar g'oyatda tor doirada o'tkazilib, davlat ahamiyatiga molik masalalarning chetga ayon bo'lishidan nihoyatda saqlanilgan. Chunonchi, maxsus kotib majlis bayonini maxsus daftarga tushirib borgan. Aftidan, keyingi majlisda ana shu bayon asosida ilgari qabul qilingan qarorlar, turli choralar natijalari tekshirib borilgan.

Amir Temurning dargoh faoliyatini boshqarish, odamlardan unumli foydalanish, ularni o'z atrofiga to'plash, katta-kichik tadbirlarni tashkil qilish borasida tutgan yo'lini «Tuzuklar»dagi bayonlardan yaqqol ko'rish mumkin. Chunonchi, Sohibkiron shunday yozgandi: «Saltanat ishlarining to'qqiz ulushi kengash, tadbir va mashvarat, kolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilishini angladim. (Donishmandlar) demishlarkim, o'z o'rnida qo'llangan tadbir bilan ko'plab lashkarning qilichi ojizlik qilgan xar kanday mamlakat darvozasini ochib, favj-favj lashkarni yengib bo'lur. Tajribamda ko'rilgankim, azmi qat'iy, tadbirkor va hushyor, jang ko'rgan, mard, shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir. Chunki tajribali bir kishi minglab odamga ish buyuradi... Yana mening tajribamdan o'tmishkim, garchi ishning qanday yakunlanishi taqdir pardasi ortida yashirin bo'lsa ham, aqli raso va hushyor kishi mulohazakorlik, tadbir va kengashga tayanishi I ozim. Shuning uchun Payg'ambarimiz Muhammad sallolohu alayhi vasallam aytganlaridek, har bir ishni qilishga kirishar ekanman, avval obdon o'ylab, (amirlarim bilan) kengashdim. Maslahatchilar va kengash ahli yig'ilganda oldimizdagi ishlarning yaxshi-yomoni, foydayu ziyon tomonlari, ularni qilish-qilmasliqdan so'z ochib, ulardan fiqr so'rar edim. Ularning so'zlarini eshitgach, ishning xar ikki tomonini mulohaza qilib, foydaziyonlarini ko'ngilga keltirardim. Uning xatarli tomonlariga ko'prok, e'tibor berardim. Qaysi bir ishda ikki xatar mavjud bo'lsa, uni bajarishdan voz kechardim va bir xatarlik ishni ixtiyor etardim... Ishlarimning barini kengash bilan yuritib, uni bitirishda to'g'ri tadbir qo'llar edim. Bir ishga kirishmay turib, undan qutilib chiqish yo'llarini mo'ljalab qo'yar edim. Uni to'g'ri tadbir, qat'iy jazm, chinlik-chidamlik ko'rsatib, ehtiyotkorlik bilan o'zoqni ko'rib, ortini o'ylagan holda oxiriga yetkazardim»<sup>1</sup>.

Dargoh faoliyatini boshqarish, uning vazirliklar, mahalliy hokimiyat idoralari va umuman saltanatda kechgan jarayon bilan bog'lanib turish ishini oliy devon olib borgan. Dargoh, tizimidagi bu devonga devonbegi boshchilik qilgan. Oliy devonning ahamiyati va mavqeyi shu qadar baland bo'lganki, manbalarda ba'zan uni dargoh bilan bir ma'noda ta'riflash hollari ham kuzatiladi<sup>2</sup>. Oliy devonda har kuni to'rt vazir, ya'ni ijroiya idoralaridan bosh vazir, harbiy vazir, mulkchilik va solik, ishlari vaziri, moliya vaziri hozir bo'lib o'ziga xos ravishda hisobot berib turganlar<sup>3</sup>. Aftidan, bunda vazirliklar tegishli ko'rsatmalar olib turgan bo'lishlari kerak. Sarhad va boshqa tobe mamlakatlar boshqaruvi bilan bog'liq yana uch vazirlik ham devonbegiga hisobot berganlar.

Dargohdagi muhim vazifalardan biri bu — arzbegidir. Uning xizmati dargohga arz-dod, shikoyat bilan kelganlar hamda mamlakatda sodir bo'layotgan voqyealarga o'z munosabatini bildiruvchilarni qabul qilishni uyushtirib, tushgan arzlar, shikoyatlar, takliflarni oliy hukmdorga yetkazib turishga mas'ulliqdan iborat edi<sup>4</sup>. Bundan tashqari dargohda adolat amiri lavozimi mavjud bo'lib, u turli o'lka va shaharlarda «sipoh va raiyat orasida urf-odatlariga oid janjalli ishlar haqida» boxabar bo'lib, oliy xukmdorga hisobot va ma'lumot yetkazib turgan. Demak, joylardagi ahvoldan boxabar bo'lib turishning ikki yo'lidan foydalanilgan: biri pastdan yuqoriga, ya'ni arzchilar to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish imkoniga ega bo'lganlar, ikkinchisi maxsus xizmat orqali joylardagi vaziyat davlat tomonidan, aniqrog'i, oliy hukmdor dargohi orqali tekshirilib borilgan. Mana shu ikki yo'l bilan joylarda ro'y berayotgan adolatsizlik, tartibsizlik, davlat va jamiyat manfaatiga zid ishlar xaqida ro'y-rost ma'lumot olingach, so'ng maxsus vakillar — aminlar (ya'ni ishonchli vakillar) joylarga borib voqyeani o'rganib tegishli choralar ko'rganlar. Chunonchi, biron kishiga nisbatan zulm, adolatsizlik qilingan bo'linsa, adolatni tiklab o'sha yer mahalliy xazinasidan ularga to'lov ajratib qaytganlar. Aminlar o'zlari taftish qilgan ishlari, ko'rilgan choralar xaqida keyin yozma hisobot berganlar. Aminlar vazifasiga bundan tashqari tobe yerlar to'lovini yig'ib kelish ham kirgan<sup>1</sup>.

Dargohdagi muhim lavozimlardan yana biri bu tavochidir. Tavochi oliy farmonga ko'ra joylarga borib harbiy yurish uchun lashkar to'plash bilan shug'ullangan. Bu vazifa goyatda muxim ahamiyat kasb etgani uchun Sharafiddin Ali Yazdiy mubolag'a bilan uni oliy xukmdordan keyingi yuqori darajadagi davlat mansabi deb baholaydi. Albatta, bunday ta'rifda ham jon bor. Zero, lashkar to'plashni kuruq, farmon yetkazish deb tushunmaslik kerak. Ma'lumki, tobe o'lkalar, xukmron sulola vakillari, nufuzli amirlarga taqsim qilib berilgan yurtlar oliy ko'rsatma bo'lganda tegishli harbiy kuch bilan xizmatga shay turishlari ko'zda tutilgan. Tavochilar esa xuddi mana shu avval boshdan belgilangan lashkar sonining taxt bo'lishi, tayyorgarlik darajasi, ta'minoti ko'ngildagidek talabga javob berishi, ko'rsatilgan joyga muayyan yo'l bilan o'z vaqtida yetib borishi kabi g'oyatda mas'uliyatli tadbirlarga javobgar bo'lganlar.

Mazkur muallifning guvoxlik berishicha, tavochilar bosh tavochi, piyoda askar tavochisi kabilarga taqsimlangan. Bosh tavochilar tumanot (un minglik), xazorajot (minglik), sadajot (yuzlik) yetakchilaridan, viloyat kattalaridan qo'shinni o'z vaqtida, belgilangan son va sifat, ta'minlanganlikda yetkazib berish to'g'ri sida tilxat olganlar. Shu bilan birga tavochi xarbiy yurish chog'ida qo'shinlarning joylashuvi, berilgan buyruqlarning ijro etilishi (masalan, dushman istexkomlari devori ostidan laxm kavlash) hamda tinchlik paytlarida katta qurilishlarda ish taqsimlash kabilar bilan ham shug'ullangan. Chunonchi, Baylaqon kanalini qazishda masofani har bir harbiy qismga taqsimlab berishga tavochilar bosh bo'lgan<sup>1</sup>.

Dargohda shuningdek bosh hojib, hojiblar, rasmiy tadbirlar boshqaruvchisi va tashkilotchilari, xazinador, xonsolar (dargohda va oliy farmon bilan boshqa yerlarda, masalan, yurishlarda o'tkaziladigan to'y, bazmlar, katta ziyofatlarda dasturxon

tuzatishga bosh-qosh bo'luvchi), jibochi (qurol-aslaha saqlovchi), qo'shchi (podshohona ovlar uyushtirilganda maxsus o'rgatilgan ov qushlarini olib yuruvchi va parvarish qaluvchi) va mana shu xizmatni boshqaruvchi qushbegi, bakovulboshi (saroy oshpazlarining boshlig'i), kotiblar, bitikchilar, tabiblar, sozandalar, g'azalxonlar, farroshlar kabi katta-kichik vazifalar, tablxona (nog'oraxona), dorixona kabi xizmatlar bo'lgani ma'lum.

Ijroiya tizimi, yuqorida aytilganidek, markazda vazirliklar faoliyatida mujassamlashgan. Kezi kelganda shuni ta'kidlash kerakki, chingiziylarning 150 yil xukmronligi davrida mahalliy boshqaruv tizimi an'analari poymol qilingan bir sharoitda Amir Temur biz somoniylar, qoraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar, anushteginiylar zamonida shohidi bo'lganimiz, ijroiya xokimiyatining vazirliklar tizimini qaytadan jonlantira oldi. Amir Temurning o'zbek davlatchiligi oldida qo'shgan katta xizmatlaridan biri ham shunda. Ya'ni u bir necha asrlar davomida shakllanib kelgan davlatchiligimiz ijroiya tizimidagi boshqaruvning klassik shakllarini tiklay oldi. Bu nihoyatda qadrli va tarixiy xizmatdir.

Endi to'g'ridan-to'g'ri vazirliklarga o'tsak.

Birinchisi — mamlakat va raiyyat vaziri. U mamlakatning muhim ishlari, kundalik muomalalar, xalq ahvoli, viloyatlarda olinadigan hosil, soliqaar, ularni taqsimlash, kirim-chiqimlar, obodonchilik ishlari, axoli farovonligi, xazina ahvoli kabi muhim yumushlarga javobgar bo'lgan. Mazkur masalalar yuzasidan oliy xukmdorga tegishli ma'lumot va hisobotlar berib turgan. Agar mazkur vazirlik vazifasini oldingi davr ijroiya tizimi bilan taqqoslasak, u xolda so'z bu yerda bosh vazir haqida ketayotgani ma'lum bo'ladi.

Ikkinchisi — harbiy vazir. U harbiylarning maoshi, alohida xizmatlari uchun ularga tuxfa qilingan yer-suvlar boshqaruvi (ya'ni nazorat va qayd etish ma'nosida), qurol-aslaha ta'minoti, harbiy ko'riklarni tayyorlash, janglarda yarador bo'lib xizmatga yaroqsiz bo'lganlarga nafaqa tayinlash, iste'foga chiqqan harbiylar to'g'risida qayg'urish kabi masalalar bilan mashg'ul bo'lgan.

Uchinchisi — mulkchilik va soliq ishlari vaziri. Bu vazirlik turli sabablarga ko'ra egasiz qolgan mol-mulklarni nazoratga olish, savdogarlardan zakot va boj olish, mamlakat chorvalari, o'tloq-yaylovlarni boshqarish, ularning barchasidan tushadigan daromadlarni saqlash, mulkchilikdagi merosxo'rlik tartiblarini amalga oshirish (masalan, g'oyib bo'lganlar, o'lganlarning mulkini vorisga topshirish) kabi vazifalarni bajargan<sup>1</sup>.

To'rtinchisi — butun saltanat idoralarining kirim-chiqimlari, xazinadan sarf qilinayotgan barcha xarajatlar xisobini olib boruvchi moliya vaziri.

«Temur Tuzuklari»da moliya vaziri mas'uliyatiga tegishli diqqatga sazovar bir tuzuk bor: «Moliya vazirlari moliya ishlarida xiyonat qilib (xazinadan biron mablag'ni) o'zlashtirib olgan bo'lsalar (avval tekshirib ko'rilsin). Agar o'zlashtirib olgan mablag'i o'ziga tegishli ulufa (ya'ni maosh — A. 3.) miqdoriga teng bo'lsa, mazkur mablag' unga — in'om o'rnida berilsin. Agar o'zlashtirib olgan mablag'i maoshidan ikki baravar ortiq bo'lsa, ortig'i oladigan maoshidan ushlab qolinsin. Agar

maoshidan uch baravar ko'p mablag' olingan bo'lsa, hammasi (saltanat xazinasiga) tortiq sifatida olinsin»<sup>2</sup>.

«Temur Tuzuklari»da mazkur to'rt vazirlikdan tashqari yana uch vazir xaqida so'z ketib, ular saltanat tarkibidagi turli o'lka va mamlakatlarga oid moliyaviy muomalalar va keladigan daromadlarni boshqarganlar. Agar saltanat xududi va unga kirgan sarxadlar ko'lami nazarga olinsa, haqiqatan *ham* u yerlar bilan bog'liq moliya-daromad ishlarini tashkil qilish uchun uch vazirlik ta'sis etilishini asosli desa bo'ladi<sup>3</sup>.

Sakkizinchi vazirlik bu adliya vazirligidir (devoni mazolim)<sup>4</sup>. Kezi kelganda shuni alohida qayd etmok kerakki, bu vaqtda adliya, ya'ni sud tizimi uchga bo'lingan edi. Adliya vazirligi to'g'ridan-to'g'ri fuqarolar yo, manba tili bilan aytganda, dunyoviy ishlar bilan

shug'ullangan. Xarbiy sud (lashkar qozisi) esa alohida ravishda faoliyat ko'rsatgan. Shariat tartiblari bilan esa islom qozisi shug'ullangan<sup>1</sup>. Ko'rib turganimizdek, bu sohada ham Amir Temur davrida ilgari an'analar davom etirilgan. Sud tizimidagi taqsimot esa bizlarda bir necha asrlar muqaddam amalga oshib kelganini mazkur davr misolida ham mushohada qilsa bo'ladi. Qonun, o'sha zamon tartiblari oldida javobgarlik barchaga barobar bo'lgan. Masalan, Amir Temurning nabirasi Pir Muhammad ibn Umarshayx o'z qilmishi uchun devoni mazolimda qattiq so'roq qilinib, aybi aniqlangach, shunga yarasha jazo berilgani va bu xaqida shaxsan Amir Temurning o'zi farmon bergani tarixiy manbalarda o'z aksini toptan<sup>2</sup>.

Ilgarigi sulolalar davrida mavjud bo'lgan vaqf ishlari vazirligi xizmati Amir Temur davrida sadrlar sadriga (sadrlar boshligi) yuklatilgan. Garchi vazirlik tizimi ma'nosida tilga olinmasa-da, ammo mazkur xizmat moxiyati saqlanib qolgan<sup>3</sup>. Boshqacha bo'lishi ham mumkin emasdi, chunki vaqf mulkchiligi sahlangandi.

Shunga o'xshash o'tgan zamonlarda ta'kidlangan xabar va pochta vazirligi shaklan tilga olinmasa-da, ammo mazmunan bu vaqtda o'zining eng yuksak ravnaq darajasiga ko'tarilgandi, desak to'g'ri bo'ladi. Zero, ulkan saltanatni maqsadga muvofiq ravishda boshqorib borishda uning turli burchaklarida sodir bo'layotganlardan boxabar bo'lish, markazdan buyruq farmon, ko'rsatmalar jo'natish, markazga turli xujjat, hisobot va hokazolarni yetkazish, tashqi siyosiy-diplomatik munosabatlarni puxta va tezkor ravishda yo'lga qo'yish kabi yumushlarni katta salohiyat va g'ayrat bilan amalga oshirishga to'g'ri kelardi.

O'z o'rnida bu boradagi tadbirlardan savdo-sotiq munosabatlari nechog'lik yutishini tasavvur qilish mumkin. Gapning qisqasi, xabar va pochta xizmati ahamiyatini avval boshdanoq yaxshi tushungan Amir Temur o'zining dastlabki farmondaridan birida uni yo'lga qo'yish haqida ko'rsatma bergan. O'sha zamon guvohlaridan biri Ispaniya elchisi Klavixoning yozishicha, butun saltanat uzra bir kunlik yo'l oralig'idagi xar bir maskanda to'xtash joylari bino etilgan bo'lib, ularda 10 tadan 200 tagacha ot-ulov saqlangan, maxsus xizmatchilar faoliyat ko'rsatgan. Bu yumushlarning bari davlat xazinasidan ta'minlangan. Dargohdan yo dargoh tomon joylardan, xizmat yuzasidan yo'lga chiqqan har bir shaxs yoguruh mazkur joylarda

to'xtab dam olib, otlarni almashtirib yana yo'lda davom etavergan<sup>1</sup>. Xayratga solarlik tomoni shundaki, ulkan saltanatning xar bir burchagidan Samarqand tomon yo'naluvchi yo'lda shu tartib joriy qilingan. Ular xatto aholi turmaydigan yerlarda ham ishlab turgan. Chunonchi, ispaniyalik elchilar Tabrizdan (hozirgi Eronning shimoli-g'arbidan) Samarqandgacha bo'lgan safar chog'ida bunday tartibni o'z ko'zlari bilan ko'rganlar. Tartib g'oyatda qat'iy bo'lgan. Masalan, mazkur xizmatdan foydalanayotganlar mingan ot yulda, to'xtash joylardan yiroqda yaroqsiz bo'lib qolsa, yulda uchragan otliqning, kim bo'lishidan qat'i nazar, amirmi, harbiymi, hatto oliy xukmdorning o'g'limi, otini olib minib ketishga haqqi bo'lgan. Bir safar shunday holatda Amir Temurning katta o'g'lining otidan foydalangan ekanlar<sup>2</sup>. Bu boradagi tartib va ahvol xususida yanada aniqroq ma'lumotni Xofiz Abru qoldirgan. Unga ko'ra, Samarqanddan qaysi bir tomonga yo'lga chiqilmasin, bir oy yo ikki oy yo'l yuriladimi, hych kim xech qachon ko'chada qolmagan. To'xtash joylari bir yula hatto 1000 kishini qabul qilishi mumkin bo'lgan<sup>3</sup>.

**Amir Temur va umuman temuriylar davrida tashqi siyosiy-diplomatik aloqalar izchil ravishda olib borilganini bilamiz. Albatta, bunda tegishli davlat muassasalarining roli bo'lgani tabiiy. Bundan tashqari X—XIII asr boshlarida biz taini aloqalar, yozishmalar bo'yicha ijroiya tashkilotlari ishlab kelganini ko'rdik. Klavixoning Samarqandda elchilar bilan shug'ullanuvchi maxsus amirlar xizmat qilgani, elchilarni kutib olish, kuzatish bilan bog'lik, tadbirlarni uyushtirishga oid guvohliklarini inobatga olib xulosa qilish mumkinki, tashqi aloqalar, elchilar, xalqoro yozishmalar bilan shug'ullanuvchi xizmat bo'lgan. Aftidan, bu xizmat ijroiya tizimida emas, dargoh tarkibida faoliyat ko'rsatgan.**

**Xoh dargoh, xoh ijroiya tizimi bo'lsin, davlat xizmatlari qanday puxta va aniq ishlaganini Klavixoning quyidagi guvoxligidan bilib olish mumkin. Xar birmaslaxatchi, ya'ni yirik amaldor o'z bitikchisi va qayd daftariga ega ekan. Bitikchilar o'z boshliqlari ko'rsatmasiga muvofik turli xujjatlar, masalan, yorliqlar yozib tayyorlarkanlar, albatta, bu haqida qayd daftariga yozib yorliqqa tegishli belgi (rakam) qo'yganlar. Keyin esa yorliq yo'riqchiga topshirilib, u unga muxr bosgan va mazkur masalaga daxldor xizmatlarga yuborgan. Xullas, xujjat yana 3—4 amaldor nazoratidan o'tib ularning muxrlari bosilgandan keyingina oliy xukmdor muhri urilgan<sup>1</sup>. Shundan so'ng bu jujjat qonun kuchini olgan. Kezi kelganda aytish lozimki, Sohibqiron muhrida**

**quyidagicha belgi o'z aksini toptan:**

**Ikki og'iz so'z davlat xizmatchilari xaqida. Doim bo'lganidek, davlat xizmatiga olinadiganlarga katga talablar qo'yilgan: ular o'qimishli, keng bilimli va dunyokarashli, xalol bo'lishlari kerak edi. Bu borada Amir Temur o'z «Tuzuklar»ida shunday yozadi: «Amr qildimki, vazirlar toza nasllik, aql-farosatlik, xalq ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan xushmuomalalik, sabr-chidamlilik va tinchliksevar» bo'lmog'i kerak. Bundaylarga to'rt imtiyoz: ishonch, e'tibor, ixtiyor va iqtidor berilsin. Qaysi vazir g'iybat gaplarni aytsa, uydirma gaplarga quloq solsa, jabr-zulm qilsa, o'ziga yokmagan kishilarni yo'qotish payiga tushsa, nasliyu zoti yomon, hasadchi, kina-kek saklovchi,**

**qora ko'ngilli kishilarga zinhor vazirlik lavozimi berilmasin. Buzuqi, qora ko'ngilli, zoti past odam vazirlik qilsa, davlatu saltanat tez orada qulaydi»<sup>2</sup>.**

**Maxalliy boshqaruv xaqida so'z ketsa, avval shuni qayd etish kerakki, saltanatning odatda xukmron sulola namoyandalari va shu xonadon tayanchi bo'lmish xarbiy-siyosiy kuchlar yordamida idora etilishini ko'p bora ko'rdik. Temuriylar davri ham bundan mustasno emasdi. Tabiiy ravishda Amir Temur saltanatni boshqarishda, eng avvalo, o'z o'g'illari va avlodlariga suyandi. Chunonchi, u saltanatni bir qancha uluslarga taqsimlab, Movarounnaxr yaxlitligini saklagan xolda boshqardi. Xar bir ulusning ham o'ziga yarasha dargohi va vazirlari bo'lgan. Ammo markaziy boshqaruv tizimidagi kabi keng tarmoqli bo'lmay, muayyan hudud doirasida oliy dargoh va ijroiya tizimi oldida javobgarlik xolatida faoliyat ko'rsatgan.**

Alohida ko'rsatgan xizmatlari uchun yirik amaldorlar, harbiylar. din peshvolari hamda bo'ysundirilgan sobiq xukmdorlarga shaxsiy xizmati va sharoitga munosib ravishda biron hudud (viloyat, shahar, tuman) tortiq (suyurgol) qilingan. Masalan, Amir Temur o'z piri sayyid Barakaga Andxudni tortiq qilgani ma'lum<sup>1</sup>. Ana shunday hollarda, «Tuzuklar»da yozilishicha, har bir suyurg'ol qilingan viloyat yo mamlakatga ikkitadan vazir tayinlangan. Birinchisi — yig'iladipsh soliqlarni qayd etib, aholi ahvolidan boxabar bo'lib turish, ikkinchisi esa yig'iladigan daromadlar qay tarzda xarj qilinayotganini hisobga olish, shu yerda mavjud harbiy qismlarga beriladigan maosh taqsimoti bilan shug'ullanish kabilar bilan band bo'lgan<sup>2</sup>. Faraz qilish mumkinki, mazkur vazirlar orqali markaz joylardagi moliyaviy, soliq, ijtimoiy xolat masalalari bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri ma'lumot olib turgan. Aftidan, bu vazirlar yuqorida tilga olingan markaziy ijroiya tizimidagi sarhadlar buyicha uch vazirlik nazorati va hamkorligida faoliyat ko'rsatgan. Suyurg'ol yerlarga maxsus vazirlarni tayinlashning amaliy tomoni bo'lgani shubxasiz. Zero, suyurg'ol egalari o'zlariga tortiq qilingan joylardagi aholidan olinadigan davlat soliklarini to'laligicha yo ma'lum bir ulushini o'zlariga olishlari nazarda tutilgan. Bu borada me'yordan chiqish, aholi noroziligiga sabab bo'luvchi ishlarga qo'l urish umuman saltanat qudratiga putur yetkazishi turgan edi. Shuning uchun ham markaz joylarda o'z vakillariga ega bo'lgani tabiiy.

Shahar, tuman miqyosidagi boshliqlar dorug'a, qala boshlig'i, kutvol deyilganini eslatib o'tish joiz. Endi ko'rilayotgan davrda qonunchilik, jamiyat va davlat boshqaruvidagi qonun va tartiblar haqida to'xtalib o'tsak. Temuriylar, xususan, Amir Temur davri qonunchiligini yoritishda uning «Tuzuklar»i g'oyatda qo'l keladi. «Bu tuzuklardan, — deb yozadi muallif, (kelajakda) saltanat ishlarini boshqarishda qo'llanma sifatida foydalangay»lar<sup>3</sup>. Demak, «Tuzuklar»ni yozishdan maqsad jamiyat va davlat boshqaruvida zarur hisoblangan qonun-qoidalar, ya'ni Tuzuklar majmuini yaratish bo'lgan. Agar undagi ba'zi bir qaytarishlar» shaxsiy mulohazalar va «lirik kechinmalar»ni olib tashlasak, ixtiyorimizda o'sha davrning asosiy qonunlari (qonunchilik) majmui gavdalanishi turgan gap.

Umuman davlatchilikning O'rta asrlarga xos, xususan, o'zbek davlatchiligi tarixida davlat tepasida turgan birinchi shaxsga juda ko'p narsa bog'liq bo'lganini bilamiz. Xar bir jamiyat o'ziga munosib yo o'zi munosib bo'lgan hukmdorga ega

bo'ladi, xikmati ham xuddi o'sha zamonlardan qolgan va o'sha zamon voqyeligini aks ettirgani shubxasiz. Shu ma'noda Amir Temur davri qonunchiligi nafaqat uning shaxsiyati, balki o'sha jamiyat dunyoqarashi, odatlari, talab va imqoniyatlari kabilar bilan bog'liq bo'lgani aniq. Yuqorida biz alohida ta'kidlagan davlatchiligimiz asoslariga Amir Temur tomonidan singdirilgan to'qqizinchi asos — barcha ijtimoiy tabaqalar faoliyati va manfaatlarini nazarda tutish o'sha zamon qonunchiligining bosh bo'g'inini tashkil etgan. Amir Temurning quyidagi so'zlariga e'tibor beraylik: «Davlat ustunlari o'n ikki tabaka va toifadagi kishilar bilan quvvatlanadi». Agar qaytarishlarni istisno etsak, bu tabaqa va toifa quyidagilardir: siyosatchilar, din peshvolari, harbiylar, amaldorlar, ziyolilar, savdogarlar, xunarmandlar, dexqonlar, chorvadorlar<sup>1</sup>. Ko'rinib turganidek, bu yerda barcha ijtimoiy tabakalar mujassamlashgan. Gap «xukmron sinf» yo biron-bir aloxida tabaqa ustida emas, butun jamiyat a'zolari va ular tegishli bo'lgan toifalar ustida ketmoqda. Mazmun e'tibori bilan Amir Temur mazkur 12 tabakaga munosabatidan so'ng quyidagilarni yozadi: «Davlat ishlarini saltanat qonun qoidalariga... to'ro-tuzukka tayanib... amirlar, vazirlar, sipox, raiyyat — xar birini o'z lavozimiga va martabasiga» qarab boshqardim. Garchi bir qaraganda haxiqatan ham Amir Temur boshqargandek tuyulsa-da va bunda xaqiqat bor, ammo shu bilan birga aslida jamiyat va saltanat shariat va to'ro-tuzuklar, ya'ni o'z davri Qonunchiligi asosida boshqarilgan.

Shariat deganda o'sha zamonlarda musulmon jamiyatidagi muayyan bir axloqiynormalar anglanmog'i «to'g'ri yo'l» mazmunini beruvchi shariat (Ash-sharia) asosida Qur'on va sunna yetsa-da, lekin uaslida fikh (huquq va yurisprudensiya) uchun umumiy mafkuraviy, diniy-axloqiy manba bo'lib xizmat qilgan. Demak, xulosa qilish mumkinki, jamiyat hayotining turli sohalarini boshqarishda qadimdan joriy bo'lib kelgan qonunchilik (to'rukchilik) va musulmon qonunchiligi (fikir imqoniyatlarndan ham foydalanilgan).

**Albatta, bu yerda o'rta asrlarga xos va mos yakka xukmronlik boshqaruv tizimida oliy xukmdorning o'rnini esdan chiqarmaslik kerak. Zero, uning har bir farmoyishi amalda qonun kuchini olgan. Shu ma'noda «Tuzuklar»da keltirilgan «Aholini yuo'l-yo'riqqa solish va maosh tayinlash», «Raiyyatdan mol-xiroj olish, mamlakatni tartibga keltirish va yuksaltirish, uning obodonchiligi, xavfsizligini amalga oshirish», «Sipoh saqlab turish», «Vazir tutish» kabi qator Tuzuklar tahlili e'tiborga molikdir<sup>1</sup>. Ularda xar bir alohida ijtimoiy yo'nalishda doim sodir bo'lib turadigan jarayonlar uchun xususan me'yorlar o'z aksini toptan. Masalan, urush paytlarida mingboshining xukmi yuzboshiga, yuzboshi hukmining esa o'nboshiga majburiyligi va bu tartib buzilsa tegishli jazo berilishi yo bo'lmasa oddiy askar, o'nboshi, yuzboshi, mingboshiga beriladigan maoshlardagi chegaralar, farqlarni olasizmi, qo'yingchi, har bir tuzukqa muayyan bir voqyelikdagi faoliyatga adolat mezonidan turib munosabatda bo'lish ko'zga tashlanib turadi. Demak, Amir Temur o'z Tuzuklarini ishlab chiqarib hayotga tatbiq qilarkan, eng avvalo, bir narsani — jamiyatda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni qonuniy asosga qo'yishni mo'ljal qilgan. Bunda oliy hukmqor — davlat rahbari oldida turgan mas'uliyatni ham unutmagan. Uningcha, davlat rahbari bir**



so'zli, o'z ishini o'zi bilib qilishi, o'zi va atrofidagilarga adolatli bo'lishi, xolis, kat'iylik bilan ish yuritishi, fiqolar xilma-xilligidan cho'chimasligi, qiziqdon bo'lmasligi, mulohaza bilan ish yuritishi lozim<sup>2</sup>.

Talablar nafaqat fuqaro yo, ko'rganimizdagidek, xukmdorga nisbatan, balki hokimiyat idoralari oldiga ham qo'yilgani ma'lum. «Agar, — deyiladi «Tuzuklar» da,— (xarob bo'lib yotgan yerlarning) egasi bo'lsa-yu, (lekin) obod qilishga qurbi yetmasa, unga turli asboblardan kerakli narsalar bersinlar, toki o'z yerini obod qilib olsin»<sup>3</sup>. Ko'rinib turganidek, fuqarodan bir narsani talab qilishdan oldin davlat unga tegishli shart-sharoit yaratib bermog'i lozimligi qonunlashtirilgan. Bu borada yanada chuqurlashib borilib quyidagihuquqiy me'yor yuzaga kelgan: «Kimki, biron saxroni obod qilsa, yoki koriz qursa, yo biron bo'fko'kartirsa, yoki biron-bir xarob bo'lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan narsa olmasinlar, ikkinchi yili raiyyat roziligi bilan berganini olsinlar, uchinchi yiliesa soliq solish qonun-qoidasiga muvofik xiroj yig'ilsin»<sup>1</sup>. Fuqarolar xayoti va faoliyatini adolatli, ularning manfaatiga mos tarzda tashkil etishda bu bilan ham cheklanilmaganligini Amir Temurning quyidagi farmonidan bilib olish mumkin: «Xirojni ekindan olingan xosil ga va yerning unumdorligiga» va boshqa shart-sharoitlarga qarab olsinlar. Mazkur misollar o'zbek davlatchiligi va qonunchiligining Amir Temur davridagi mazmunini to'la ravishda namoyon qila oladi, desak xato bo'lmaydi. Qonunchilikda birinchi o'rinda fuqaro manfaati turgan.

«Negaki, — deyiladi «Tuzuklar»da, — raiyyat xonavayron qilinsa, (davlat) xazinasi kambag'allashishiga olib keladi... (bu esa o'z o'rnida) saltanatning kuchsizlanishiga olib boradi»<sup>2</sup>. Bu hamma zamonlar uchun xaq gan. Zero, iqtisodiy qudratta ega bo'lmagan davlat doim zaif bo'ladi. Iqtisodiy qudratni esa xalq (raiyyat) yaratadi. Bunda adolatli qonun roli beqiyosdir. Amir Temur daxosining qirralaridan biri ham uning mazkur abadiy xaqiqatni anglay bilganligi va amalda namoyon qila olganligi bilan o'lchanadi.

Ikki og'iz xarbiy siyosat xaqida. Amir Temurning mazkur masala bobidagi dunyoqarashini uning quyidagi so'zlari orqali bilib olish mumkin: «Davlat ishlarining to'qqiz ulushi kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilishini angladim»<sup>3</sup>. Demak, siyosat va boshqaruvda Amir Temur ko'pchiga, ya'ni zo'rlikka faqat bir ulushgina e'tibor ajratyapti. Uning bayrog'i esa doimo siyosat va tadbir bo'lib kelgan. Shu bilan birga tarix Amir Temurni eng buyuk sarkardalardan deb biladi. Bu xaqiqatan ham shunday. Ammo bizning fikrimizcha, Amir Temurning harbiy san'at borasidagi buyukligi uning eng asosiy fazilati — buyuk davlat arbobligining bir qirrasini tashkil etgan, xolos. Zero, uning xarbiy siyosati bosh maqsad — qudratli davlat va saltanat barpo etish ishiga xizmat qilgan. Masalaning bu tomoniga aloxida urg'u berishimizning sababi bor. Chunki shu choqqacha va ba'zan xozirda ham Amir Temurning faoliyati xaqida so'z ketganda uning xarbiy sarkarda, lashkarboshiligiga ko'prok, e'tibor berilib, unda u qo'lga kiritgan Harbiy yutuqlar xaqida so'z ketgan. Bu bilan uning umri faqat urushlarda o'tganday bo'lib qoladi. Vaxolanki, Shomiy, Yazdiy, Natanziy, Xofiz Abru va boshqa tarixchilar asarlarining

taxlili shuni ko'rsatmoqdaki, Amir Temur xarbiy tadbirlar bilan to'g'ridan-to'g'ri o'rta xisobda yilda bir necha oygina band bo'lgan. Qolgan vaqt davlat va saltanat ishlariga bag'ishlangan. Aslida esa, ta'kidlanganidek, xarbiy siyosat uning bosh maqsadining amaldagi tarkibiy qismi edi, xolos. Shu bilan birga katta iste'dod egasi sifatida mazkur soxada ham Amir Temur boshqalardan ajralib turgan.

Buning isbotini biz «Tuzuklar»ning mazkur masalaga oid boblari bilan tanishish borasida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Amir Temur lashkarida xar bir askar, Xar bir qism faoliyati, ya'ni maoshi, xarbiy aslaxalar bilan ta'minoti, xizmat pillapoyalaridan ko'tarilib borishi, navkar bilan uning begi o'rtasida xizmat muomalasi, urush paytlaridagi xarbiy taktika kabi barcha masala va tadbirlar oldindan o'ylanib, muayyan bir tartibga solingan edi. Bir so'z bilan aytganda, Amir Temur lashkarida qat'iy xizmat va tashkiliy intizom o'rnatilgan, kim nima bilan shug'ullanishi, nimaga javob berishi aniq ko'rsatib qo'yilgan. Xatto ikir-chikir masalalar ham oldindan ko'rsatilib o'tilgan. Masalan, oddiy askarning xarbiy yurishga tayyorgarligidagi talablarni olaylik. «Yurish vaqtida oddiy askarlardan xar o'n sakkiz kishi o'zi bilan birga bir chodir, xar bir askar ikki ot, bir kamon, bir sadoq o'qdon, bir qilich, arra, bigiz, bitta qop, juvolduz, bolta, o'nta igna va charm xalta olsin», deyilgan «Tuzuklar»da. Xuddi shunga o'xshash baxodirlar, o'nboshilar, yuzboshilar, mingboshilar, amirlar uchun zarur xisoblangan qurol-aslaxalar tafsiloti ham berilgan. «Tuzuklar»da amirlar, mingboshilar, yuzboshilar, o'n boshilar va boshqa xarbiylarga maosh belgilash tartibi ham aniq ko'rsatilganini eslasak, shu narsa ma'lum bo'ladi, Amir Temur bo'lajak xarbiy tadbirlarga, eng avvalo, tinchlik harjihatdan ta'minlash, u to'g'risi bilan aytganda, uning lashkardan, lashkarning esa undan ko'ngli to'q bo'lgan xolda janglarga kirishilgan. Amir Temur jang suratini ham oldindan rejalashtirib qo'ygani ma'lum. Chunonchi, u joriy qilgan tartibga ko'ra, agar g'anim lashkari o'n ikki mingdan ortiq lekin qirq mingga yetmasa, lashkarboshilik shaxzodalardan biriga yuklatilgan. Agar g'anim qo'shini qirq mingdan oshiq bo'lsa, u xolda Soxibqironning o'zi lashkarga boshchilik qilgan.

Tarixiy manbalarda Amir Temurning shaxsan o'zi yakkama-yakka olishuvlardan toymaganligi xaqidaham ma'lumotlar bor. Chunonchi, 1379 yili Urganch qamal qilinayotgan bir paytda u Yusuf Sufiyga yuzma-yuz chiqishga o'tlanadi, ammo raqibi olishuvga chiqmaydi. Xuddi shunga o'xshash xol 1383 yili Seyiston yurishida bo'lib o'tgan. Xullas, Amir Temurning mardligi va shaxsiy namunasi lashkar ruxini ko'tarishda katta ahamiyat kasb etgani shubxasiz.

Sharoitga qarab Amir Temur lashkarning saf tortishi, jangga kirish tartibini o'zgartirib turgan. 1391 yili To'xtamishxonga qarshi jangda ilgari xech kimga ma'lum bo'lmagan yangi xarbiy taktikani qo'llagan. Amir Temur tarixchilaridan Shomiyning yozishicha, «Soxibqiron lashkarini saflab yetti qismga shundayin muxarrar etdiki, uning vasfi va bayoniga kishi oqizlik qiladi»<sup>3</sup>. Mazkur guvoxlikdan chiqadigan xulosa shuki, bu g'oyatda murakkab va kamyob xarbiy taktika bo'lgan.

Amir Temur xarbiy yurishlarni nixoyatda puxtalik va ortiqcha shov-shuvsiz tayyorlashga xarakat qilgan. Shuning uchun ham uning qo'shinlari g'anim uchun

kutilmagan vaqt va yerda paydo bo'lib, qo'rqmasdan hamla qilib qolishi xech gap emasdi. Soxibqironning xar bir yirik xarbiy yurishdan oldin kengash o'tkazishi odat tusiga kirgan. Kengashda u barcha yig'ilganlarning fikrini tinglab, mazkur sharoitda eng maqbul yulni tanlashga xarakat qilgan.

Ibn Arabshoxning guvoxlik berishicha, Amir Temur Davrida tashqi razvedka faoliyati nixoyatda yuksak darajada yo'lga qo'yilgan. Mazkur xizmat vakillari chakanafurush, yirik savdogar, polvon, dorboz, xunarmand, munajjim, qalandar, darvish, dengizchi, sayyox, meshkobchi, etikdo'z, tolib niqobi ostida turli mamlakatlarda bo'lib, u yerlardagi shaxarlar, qishloqlar, yo'llar, tog'y toshlar, suvlar, xar bir joyning aholisi, boshliqlari, uluslari, amirlari, fozillari, shariflari, boyu kambag'allari to'g'risida xar tomonlama batafsil ma'lumotlar yig'ib, hatgo suratlari bilan Samarqandga yuborib turganlar. Bu bilan ham cheklanmay, Amir Temur harbiy, siyosiy munosabatlarga kirishayotgan mamlakatlar tarixi, urf-odatlariga oid asarlarni sinchiklab o'rgangan.

Demak, Amir Temur harbiy siyosati, eng avvalo, davlatni mustahkamlash, xavfdan saqlashga yo'naltirilgan bo'lib, bu siyosatni puxta yulga qo'yishda Sohibqiron masalaning idtisodiy, texnikaviy, ilmiy (mamlakatlar, shaharlar, yo'llar, xalqlar, dushman lashkarlari, tabiiy-iqlim sharoitlarini o'rganish va hokazo), tashkiliy tomonlariga katta e'tibor bilan qaragan. Xuddi shu yo'l uni harbiy san'at borasida yuksaklikka olib chiqqan.

Shunday **qilib**, biz Amir Temur davri davlat boshkaruvi, qonunchiligi, harbiy san'at masalalariga oid **mulohazalarni** bildirdik. Mazkur sohalarda olib borilgan xarakatlar bir maqsadga: davlatni **qudratli** va jamiyatni iqtidorli etishga qaratilganini yodda tutish biz uchun g'oyatda muhimdir.

**Mavzu: Mustaqillik yillarida o'zbek davlatchiligining mustahkamlanishi  
va yuksalishi  
(Nazariy 2 soat)**

**REJA:**

- 1. Mustaqil O'zbekiston davlatining tashkil topishi**
- 2. Yangi jamiyaga o'tish davrida siyosiy islohatlar**
- 3. O'zbekistonda huquqiy, demokratik davlat qurilishi, fuqarolik jamiyatining makllanishi**
- 4. O'zbekiston mustaqilligi yillarida Qoraqolpog'iston davlatchiligining taraqqiyoti**

O'zbekiston davlat suverenitetining e'lon qilinishi, O'zbekiston mustaqilligi huquqiy asosining yaratilishi, yangi Konstitusiyani qabul qilinishi. O'zbekistonda Oliy davlat vakillik organi-qonun chiqaruvchi hokimiyatning shakllanishi, Milliy davlat tizimining barpo qilinishi, boshqaruvda yangi usullarning qaror topishi,, mahalliy davlat hokimiyati tizimida tub o'zgarishlar yasalishi. Demokratiyani yanada chuqurlashtirish, O'zbekistonda inson huquqlari va erkinliklari kafolatining yaratilishi. O'zbekiston mustaqilligi yillarida Qoraqolpog'iston davlatchiligining taraqqiyoti

**Mavzu. O'zbekistonda davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi. Huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarining barpo etilishi.**

**REJA.**

- 1. O'zbekistonda davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi.**  
*Oliy Kengash VI sessiyasi, Bayonot, mustakillik asoslari qonuni, mustakillik, 1 sentyabr,*
- 2. Siyosiy islohotlar. Eski davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining barham topishi.**  
*referendum, Prezident, Siyosiy isloxotlar, Parlament, Sud isloxotlari, maxalliy boshkaruv, demokratik tamoyillar,*
- 3. Demokratik fuqarolik jamiyat asoslarining yaratilishi.**  
*fuqarolik jamiyati, uzini-uzi boshkaruv organlari, inson xukuklari, saylov, siyosiy partiyalar, milliy siyosat, ommaviy axborot vositalari.*

## Adabiyotlar.

1. Karimov I.A. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. T., «O'zbekiston», 1992.
2. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. T. «O'zbekiston», 1992.
3. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir. T., «O'zbekiston», 2005 y.
4. Karimov I.A. O'zbek xalqi hyech qachon, hyech kimga qaram bo'lmaydi. T., «O'zbekiston», 2005 y.
5. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-tom. T, «O'zbekiston», 1996.
6. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-tom., T. «O'zbekiston», 1996.
7. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr busag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T. «O'zbekiston», 1997.
8. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. 5 tom. T., «O'zbekiston», 1996.
9. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. 5 tom. T. «O'zbekiston». 1998.
10. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. T., «O'zbekiston», 1998.
11. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon turmush-pirovard maqsadimiz. T., «O'zbekiston», 2000.
12. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi-xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T., «O'zbekiston». 2000.
13. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz.
12. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T., «O'zbekiston», 2003.
- 13. Karimov I.A. Yangi hayotni eskicha qarash va yondashuvlar bilan qurib bo'lmaydi, «Xalq so'zi», 2005 yil, 17-fevral.**
1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi T, «O'zbekiston», 1992.
2. O'zbekiston Respublikasi: mustaqil davlatning paydo bo'lishi. T. «O'zbekiston», 1992.
3. O'zbekiston: 13 yil mustaqil taraqqiyot yo'lida. T., «O'qituvchi». 2004.
4. O'zbekistonning Yangi tarixi. 3-kitob. Mustaqil O'zbekiston tarixi. T., 2000.
5. Levitin L. O'zbekiston tarixiy burilish pallasida. T., «O'zbekiston», 2001.

6. G'ulomov S., Usmonov K. Mustaqillik O'zbekistonga nima berdi. T., «UAJBNT», Markazi, 2001.

### Ma'ruza darsi o'tish texnologiyasi

Mashg'ulot vaqti – 2 soat.	Qatnashishi mumkin bo'lgan talabalar soni 20-50
Mashg'ulot shakli	«birgalikda o'qish» uslubidan foydalangan holda informasion ma'ruza darsi
Ma'ruza rejasi:	<ol style="list-style-type: none"> <li>O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligini qo'lga kiritilishi uchun kurashlar va bosqichlari.</li> <li>O'zbekistondagi siyosiy islohotlar. Milliy davlatchili asoslarining yaratilishi.</li> <li>O'zbekistonda demokratik fuqaroviy jamiyat asoslarining yaratilishi</li> </ol>
Mashg'ulotning maqsadi: O'zbekistonda davlat mustaqilligini qo'lga kiritilishi va demokratik jamiyat yaratish sohasidagi bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirish	
<p>Ta'limiy vazifalar:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>Birgalikda o'qish uchun sharoit yaratish; -Davlat mustaqilligi tushunchasi, Msutaqilligimiz arafasidagi tarixiy shart-sharoit bilan talabalarni tanishtirish. - Talabalarda Mustaqillik uchun harakatlarning boshlanishi, ijtimoiy-siyosiy harakatlar va ularning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlash va chuqurlashtirish.</li> <li>Mustaqillik sharoitida O'zbekistonda milliy davlatchilik asoslari, huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarini yaratish masalalarini hal etilishi to'g'risidagi tushunchalari va bilimlarini mustahkamlash</li> </ol>	<p>Mashg'ulot natijalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>-mustaqillik, istiqloq, erk, ozodlik tushunchalarining va mamlakatimizning mustaqillik yo'lidagi kurashlari, uning sabablari va bu kurashlar yo'lida berilgan qurbonlar to'g'risidagi bilimlarni chuqurlashtiriladi va mustahkamlanadi;</li> <li>- 80-yillarning ikkinchi yarmidagi O'zbekistondagi sharoit va xalqning norozilik kayfiyati, mustaqillikni qo'lga kiritish uchun qo'yilgan ijtimoiy-siyosiy qadamlarning mohiyati va ahamiyati anglanadi;</li> <li>3. Mustaqillik sharoitida mamlakatimizda milliy davlatchilik asoslarini, huquqiy-demokratik davlatni yaratish, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning o'ziga xos jihatlarini xarakterlaydi;</li> </ul>
O'qitishning usullari va texnikasi:	Ma'ruza, muammoli dars, «birgalikda o'qish», diskussiya, blis-so'rov, «koop-koop» va b.
O'qitish vostalari:	Ma'ruza matni, ekspert varaqlari, prezentasiya uchun varaqlar, marker va skotchlar.
Mashg'ulot shakli:	Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash.
O'qitish sharoitlari:	Guruhlarda ishlash uchun moslashtirilgan auditoriya
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat, blis-so'rov, nazorat savollari.

### Ma'ruzaning texnologik xaritasi:

Bosqichlari va vaqti	Faoliyati	
	O'qituvchi	Talabalar
1 bosqich: o'quv mashg'ulotiga kirish (10 min)	<p>1. Mavzu utilayotgan maqsad va natijalar, mashg'ulot rejasi bilan tanishtiradi.</p> <p>2. Vazifalarni bo'lib beradi, ma'ruza matni bilan insert metodi asosida tanishgan holda insert jadvalini to'ldirish. «mazkur mavzu yuzasidan qanday yangi narsalarni o'rgandingiz degan savolga javob berishni taklif etadi., blis so'rov o'tkazadi.</p> <p>3. Talabalarda ma'ruza matni bilan insert usulida tanishish natijasida qanday savollar paydo bo'lgani bilan qiziqib, saollarni namoyish taxtasiga yoziladi va bu savollarga mashg'ulot so'ngida qaytish taklif etiladi.</p>	<p>1.1. Tinglaydilar va yozib boradilar.</p> <p>1. Savollarga javob beradilar.</p> <p>1.3. Savollar beradilar.</p>
2. Asosiy bosqich (60 min)	<p>2.1. talabalarni mini guruhlariga bo'ladi. har bir guruhga ularning mavzuning ma'lum bir savollari bo'yicha «ekspert» ekanliklarini va boshqalarni ana shu savollar bo'yicha o'qitishlari lozimligini ma'lum qiladi. Prezentasiya uchun varaqlar, markerlar va ekspert varaqlari tarqatadi (№1-ilova), ularning mazmunini tushuntiradi, qanday natijalar kutilayotgani va tayyorgarlik jarayonida qanday ma'lumotlardan foydalanish lozimligini tushuntiradi, ish tartibi va reglamenti bilan (№2-ilova), baholash mezonlari va ko'rsatkichlari bilan (№3-ilova) tanishtiradi. Ishning boshlanishini e'lon qiladi.</p> <p>2.2. mavzu savollarini prezentasiyasi va muhokamasini tashkil etadi:</p> <p>4. Maslahatchi sifatida qatnashadi;</p> <p>5. qo'shimcha savollar beradi;</p> <p>6. har bir guruh prezentasiyasini tugatganidan so'ng ularni o'zaro baholashni tashkil etadi;</p> <p>7. diqqatni asosiy masalaga qaratgan holda, mavzuning bayon etilgan savoli bo'yicha yakuniy xulosa chiqaradi.</p> <p>2.3. mavzu bo'yicha bilimlarni o'zlashtirilganini tekshirish maqsadida mashg'ulot boshida namoyish taxtasiga yozib qo'yilgan savollarga javob berishni taklif etadi. (№4-ilova), blis-so'rov</p>	<p>2.1. guruhlarda berilgan vazifa mazmunini muhokama etadilar, kutilayotgan natijani aniqlashtiradilar, savollar beradilar.</p> <p>Guruhlarda ishlaydilar, jamoa bo'lib javoblar tayyorlaydilar, namoyish etish uchun material tayyorlaydilar.</p> <p>2.2. guruh a'zolari (yetakchilar) berilgan topshiriqdagi savollarga javob beradilar, tayyorlangan materiallarni namoyish etadilar, qo'shimcha savollarga javob beradilar, boshqa guruhlarning javoblarini muhokama etadilar, o'zaro baholash natijalarini ma'lum qiladilar.</p> <p>2.3. berilgan savollarga javob qaytaradilar.</p>

	o'tkazadi.	
3-yakunlovchi bosqich	<p>3.1. O'quv faoliyati natijalarini e'lon qiladi, o'zaro baholash natijalarini e'lon qiladi, ilg'or guruhni aniqlaydi, mashg'ulotda faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi.</p> <p>3.2. mustaqil ish uchun (№5-ilova) vazifalar va ularni bajarish muddatini e'lon qiladi.</p>	<p>3.1. Tinglaydilar.</p> <p>3.2. mustaqil ish uchun vazifalarni yozib oladilar.</p>

Tarixda hech bir xalq yoki millat o'z ozodligi va mustaqilligini osonlik bilan qo'lga kiritmagan. Shu jumladan bizning ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz ham bir necha bosqinchilar zulmi ostida yashab, doimo ozodlik uchun kurashib keldi. Bularga To'maris, Shiroq, Spitamen, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro, Timur Malik, Mahmud Tarobiy, Amir Temur singari qaxramonlarimiz boshchiligidagi kurashlar, so'ngi 130 yildan ortiqroq iskanja va istibdod davridagi ozodlik kurashlari guvohidir. Shu bilan birga, istiqloлга erishish va uning ne'matlaridan bahramand bulish bir kunlik va hatto bir necha yillik ish emasligi ham tarixdan ma'lum. Uzoq davr ozodlik kurashlarida million-millionlab ota-bobolarimiz shahid ketdilar.

Biz bugun erishgan istiqlolimiz ana shu qurbonlar, kurashlar evaziga ekanligini ham hech qachon yoddan chiqarmasligimiz lozim.

Yana shuni ta'kidlash joizki, kurashlar olovida necha bor kuyib yongan bu tabarruk zamin, jonajon Vatanimiz- O'zbekiston o'zining og'ir, musibatli o'tgan tarixi bilan emas, balki jahon madaniyatiga o'z munosib hissasini qo'shgan fozilu-fuzalolarni yetishtirib berganligi bilan ham jahonga mashhurdir.

Mustaqil yurtimizning bu buyukligi va zaminimizning muqaddasligi haqida Prezident I.Karimov: «Butun umrini imon va e'tiqod, vatanparvarlik va insonparvarlik, poklik va xalollik, ilm va ma'rifat, adolat va diyonat yo'lida fido etgan zotlarning mo'tabar xoklari makon topgan zamingina muqaddasdir. Agar shunday insonlar bo'lmasa, ular dahosining nafasi sezilib turmasa, har qanday zamin oddiy tuproq bo'lib qolaveradi»,<sup>2</sup> deb bejiz ta'kidlamagan edilar.

Darhaqiqat, ana shunday kurashlar, yurt va xalq buyukligi vatan ozodligiga olib keldi. Qisqa bo'lsada, keng mazmunga boy mustaqil taraqqiyot yo'lini bosib o'tmoqdamiz.

**Birinchi masala** .Oldingi ma'ruzalarda ta'kidlanganidek, ozodlik uchun qo'yilgan dadil qadamlar va sobiq- ittifoq markazida 1991 yil avgustida sodir bo'lgan vaziyat O'zbekistonda davlat mustaqilligining e'lon qilinishiga imkon yaratdi.

XXI asr bo'sag'asida Vatanimiz tarixida buyuk voqeya sodir bo'ldi. Prezident Islom Karimov 1991 yil 31 avgust kuni Respublika Oliy Kengashining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasida O'zbekistonning Davlat mustaqilligini e'lon qildi. Sessiyada «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risida» Oliy Kengash Bayonoti qabul qilindi. «O'zbekiston Respublikasi, - deb ta'kidlanadi Bayonotda, - to'la davlat hokimiyatiga ega, xalqaro munosabatlarda mustaqil davlat, oldindan hech qanday shart qo'ymagan holda barcha sheriklar bilan teng huquqli, o'zaro manfaatli bitimlar hamda shartnomalar tuzish uchun o'zini ochiq deb e'lon qiladi».

Mazkur sessiyada «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini e'lon qilish to'g'risida» qaror qabul qilinib, 1 sentyabr O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni deb belgilandi va 1991 yildan boshlab bu kun bayram va dam olish kuni deb e'lon qilindi. Shuningdek, Oliy Kengashda «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida» Qonun qabul qilindi. 17 moddadan iborat ushbu qonunning birinchi moddasida: «O'zbekiston Respublikasi o'z tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan birga mustaqil, demokratik davlatdir», - deb qonunlashtirilib qo'yildi.

O'zbek xalqining muqaddas, tarixiy orzusi ushaldi. U siyosiy mutelik va asoratdan qutuldi. Dunyo xaritasida yana bir mustaqil, ozod, suveren davlat - O'zbekiston Respublikasi paydo bo'ldi.

O'zbekistonning Davlat mustaqilligi xalqimizning uzoq yillar davomida olib borgan og'ir va mashaqqatli kurashining qonuniy natijasi bo'ldi. O'zbekiston xalqi o'z mustaqilligini quvunch bilan kutib oldi va ma'qulladi.

<sup>2</sup> Каримов И.А. Биз келажакимизни уз кулимиз Билан курамиз.Т., «Узбекистон», 1999.7-жилд, 184-б.



Prezident I.Karimov yurtimiz istiqloli imkoniyatlari haqida tuxtab: «Istiqlol biz uchun taraqqiyotning butunlay yangi, keng ufqlarini ochdi. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan yaratadigan bo'ldik. Hayotimiz va umumiy xonadonimizni milliy manfaat va qadriyatlarimizga, umum e'tirof etilgan demokratik mezonlarga monand kilib qurishdek noyob tarixiy imkoniyatga ega bo'ldik»<sup>1</sup>, - deb ta'kidlagan edi.

«O'zbekiston xalqi mustaqillik tufayli quyidagi imkoniyatlarga ega bo'ldi:

a. o'z taqdirini o'zi belgilash, davlat va jamiyatning siyosiy tizimini mustaqil yaratish, demokratik yo'l asosida saylangan organlar orqali hokimiyatni butun to'laligi bilan boshqarish;

b. ishlab chiqarish va ilmiy-texnik imkoniyatlarga, tabiiy va xom ashyo resurslariga to'la egalik qilish, ulardan mamlakat manfaatlarini yo'lida foydalanish;

c. taraqqiyot yo'lini jahon tajribalari, tarixiy an'analar va xalqning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda mustaqil tanlash;

d. milliy davlatchiligimiz an'analariga asoslangan holda huquqiy demokratik davlat qurish;

e. ochiq fuqarolik jamiyatini shakllantirish;

f. tariximizni xolisona yoritish, milliy va diniy qadriyatlarimizni qayta tiklash, hayotimizni eski hukmron mafkura va mustabid tuzum asoratidan xalos etish;

g. yosh avlodni haqiqiy vatanparvar etib tarbiyalash, ularga zamon talablari darajasida bilim berish va kasb-hunar o'rgatish;

h. ijodning barcha turlarini rivojlantirish, odamlarning iste'dod va qobiliyatlarini to'la namoyon etish;

i. yurtimiz xavfsizligi, fuqarolar tinchligi va millatlararo totuvlikni ta'minlash;

j. xalqaro munosabatlarda mustaqil subyekt sifatida ishtirok etish, barcha nufuzli tashkilotlarga teng huquqlilik asosida a'zo bo'lib kirish, boshqa mamlakatlar bilan o'zaro manfaatli shartnoma va bitimlar tuzish.

Shunday qilib, mustaqillik xalqimizga o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini berdi.

Xalqimizga berilgan huquq va imkoniyatlar erishgan istiqlolimizni mustahkamlashga xizmat qila boshladi. Bu holat O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan e'lon qilingan «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini ma'qullaysizmi»? mavzuida 1991 yil 29 dekabrda o'tkazilgan referendum natijalarida yaqqol ko'rindi. Umumxalq referendumida saylov ro'yxatiga kiritilganlarning 94,1 foizi yoki 9 mln. 898 ming 707 kishi qatnashdi. O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini yoqlab 9 mln. 718 ming 555 kishi yoki referendumda qatnashganlarning 98,2 foizi ovoz berdi.

Demokratik qoidalarga to'la amal qilib o'tkazilgan Prezident saylovining natijalariga ko'ra saylovda ishtirok etgan fuqarolarning 86 foizi Islom Abdug'aniyevich Karimov nomzodini yoqlab ovoz berdilar. Ana shu tariqa dunyo xaritasida yana bitta, katta imkoniyatlarga ega bo'lgan mustaqil davlat – O'zbekiston Respublikasi paydo bo'ldi. Bu tarixiy voqyeani nafaqat xalqimiz, xorijiy

---

<sup>1</sup>Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш-давр талаби. Т., «Ўзбекистон», 1997, 105-б.

mamlakatlardagi do'stlarimiz, vatandoshlarimiz katta xursandchilik va umidlar bilan kutib oldilar. Qisqa fursatda dunyo davlatlari tomonidan mustaqil O'zbekistonning tan olinganligi esa erishgan istiqlolimizning olamshumul ahamiyatidan darak edi.

Ikkinchi masala. Mustaqillikka erishganimizdan keyingi O'zbekistonda yuzaga kelgan murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyatga to'g'ri baho berish, og'ir iqtisodiy tanglik, aholining nochor ijtimoiy ahvoli keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan ayanchli oqibatlarining oldini olish yosh davlatimiz, ayniqsa, Prezidentimiz Islom Karimov zimmasiga juda katta mas'uliyat yukladi.

O'tgan asr 80-yillarining oxiri va 90-yillarning boshlarida sobiq sovet tuzumini qoralab chiqqan «Birlik» xalq harakati va «Erk» demokratik partiyasi erishgan istiqlolimizni mustahkamlash zaruriyati sharoitida konstruktiv sog'lom oppozisiyaning demokratik tamoyillarini oyoq osti qilib, mamlakatda vujudga kelgan qiyinchiliklarni ro'kach etgan holda turli yo'llar bilan hokimiyatni qo'lga olishga harakat qildilar. Ularning soxta shiorlari, chaqiriqlari ayrim xududlarimizda bir qator tartibsizlik, fojiali voqyealarni ham sodir bo'lishiga olib keldi.

Bunday kurashda Prezident I.Karimovning metin irodasi, o'z ishiga va xalqiga ishonchi jamiyatimizni barqarorlik, iqtisodiy taraqqiyot, ma'naviy ravnaq yo'lidan olib borishda hal qiluvchi rol o'ynadi. G'anim kuchlar o'z niyatlariga yetolmadilar.

Endigi navbat mustaqillik bergan imkoniyatlarni voqyelikka aylantirishni, buning uchun esa mamlakatda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy islohotlarni bosqichma-bosqich, izchillik bilan o'tkaza borib, ozod va obod vatanni barpo etishni taqazo etar edi.

Prezident I.Karimov mustaqillikning dastlabki davridanoq mamlakatimizni har jihatdan taraqqiy ettiruvchi yo'lini ishlab chiqdi. Nazariy va amaliy jihatdan puxta ishlab chiqilgan bu dastur yashab turgan fuqarolarning taqdirinigina emas, balki kelajak avlodarning taqdirini ham o'ylab tuzilgan bo'lib, o'sha davrda hukmron bo'lgan yakka hokimlik tizimining illatlarini tezroq bartaraf etish, mamlakatimizni rivojlangan madaniyatli davlatlar darajasiga chiqib olishini ta'minlashni ko'zda tutar edi. Bu haqiqatan ham Prezident nomi bilan jahonga tanilgan taraqqiyotning o'zbek modeli edi.

Taraqqiyotning bu modeli quyidagi besh tamoyilga asoslanadi:

1. Iqtisodiyotni mafkuradan xoli etish, iqtisodning siyosatdan ustunligi, o'ziga xos ichki qonunlarga muvofiq rivojlanishi.
2. Davlat bosh islohotchi, iqtisodiy o'zgarishlarning tashabbuskori.
3. Qonun ustuvorligi, qonun oldida hammaning baravarligi va hammaning qonunga bo'ysunishi.
4. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning barcha bosqichlarida kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, aholining muhtoj tabaqalarini ijtimoiy himoyalashning ustuvorligi.
5. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich va izchil ravishda o'tish, ya'ni islohotlarni inqilobiy sakrashlarsiz amalga oshirish.

Bu yo'l, haqiqatan ham, Prezident nomi bilan jahonga tanilgan taraqqiyotning «o'zbek modeli» edi va u mavjud bo'lgan modellarning birortasini takrorlamagan

holda, o'z mohiyati va mazmuni jihatidan butunlay yangi taraqqiyot yo'nalishi bo'lib, u quyidagilarga:

k. bozor iqtisodiyoti va demokratiya tamoyillariga asoslanadigan jamiyatni barpo etishga;

l. SSSR parchalangandan keyingi O'zbekiston iqtisodiyotining haqiqiy holatiga, mavjud shart-sharoit va imkoniyatlarga;

m. xalqning mentaliteti va tarixiy an'alariga, islohotlarni amalga oshirishning u yoki bu sur'atlariga aholining tayyorlik darajasiga asoslanadi.

Bu tamoyillar asosida mamlakatimizda islohotlar amalga oshirilib borildi. Ular xalqimiz tomonidan to'la quvvatlandi, yangi jamiyat qurish sari tashlangan birinchi qadamlar yo'lida eng to'g'ri yo'l ekanligini ko'rsatdi.

Istiqlolimizning muhim vazifalaridan biri- muqaddas belgilar-davlat ramzlarini qabul qilishdan iborat edi. Shu bois 1991 yil 18 noyabrda O'n ikkinchi chaqiriq O'zR Oliy Kengashining VII sessiyasida Davlatimiz bayrog'i, 1992 yil 2 iyulida O'n ikkinchi chaqiriq O'zR Oliy Kengashining X sessiyasida Davlat gerbi va O'zR Oliy Kengashining 1992 yil 10 dekabrda XI sessiyasida Davlat madhiyasi qabul qilindi.

Mustaqil davlatchiligimizni shakllantirishda, uning huquqiy, siyosiy asoslarini yaratishda 1992 yilning 8 dekabrda O'n ikkinchi chaqiriq O'zR Oliy Kengashining XI sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining qabul qilinishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Konstitusiyamiz muqaddima, 6 bo'lim, 26 bob va 128 moddadan iboratdir.

Hur O'zbekistonimizning tarixida birinchi Konstitusiyaning qabul qilinishi – respublikamizning yangidan tug'ilishi va haqiqiy mustaqilligimizga mustahkam poydevor qo'yilishi edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 16 iyundagi Farmoniga muvofiq 1994 yil 1 iyuldan boshlab mamlakatimizning milliy valyutasi – so'm muomalaga kiritildi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq, mamlakatimizda demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishga yo'naltirilgan yo'l belgilab olindi. Bu yo'nalishning ko'lamini va mohiyatini anglash uchun sobiq Ittifoqdan, esi mustabid tuzumdan bizga qanday siyosiy meros qolganini eslash zarur.

O'zbekiston keyingi 130 yil davomida siyosiy qaramlik, mustamlakachilik zulmini boshidan kechirdi. Xalqimiz o'z taqdirini o'zi belgilash huquqidan mahrum etilgan, o'z taraqqiyot yo'lini o'zi belgilay olmas edi. Milliy davlatimiz inkor etilib, xalqning xohish-irodasiga qarshi o'laroq, sobiq sovet imperiyasining ma'muriy-hududiy qismiga aylantirilgan edi. Xalq o'z yurtboshisini tanlash, saylashdan mahrum etilgan edi, hukumat a'zolari, vazirlik va idoralar boshliqlari, hatto viloyat rahbarlari ham markaz tomonidan tayinlanardi. Bizga ma'muriy buyruqbozlik boshqaruv usuliga qurilgan, o'ta mafkuralashgan, xalqni yuvosh, itoatkor olomon deb biladigan totalitar tuzum meros bo'lib qolgan edi.

Mustaqillik yaratgan imkoniyatlar sharofati bilan mamlakatimizda inson manfaatlari, tinchligi va farovonligiga xizmat qiluvchi erkin, ochiq ijtimoiy-siyosiy

tizim barpo etishni ta'minlovchi keng qamrovli demokratik islohotlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston milliy huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati qurilishida xalqaro tan olingan demokratik tamoyillarga, rivojlangan demokratik davlatlar tajribasiga hamda ko'p ming yillik o'zbek davlatchiligi tarixi va o'ziga xos milliy, ma'naviy, axloqiy qadriyatlarga tayandi.

Vakillik hokimiyatini vujudga keltirishning eng demokratik tizimi - qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati barpo etildi.

Davlat boshqaruvining yangi, zamonaviy, samarali, eng maqbul tizimi- Prezidentlik respublika boshqaruvi amal qilmoqda.

Parlamentchilikda demokratik asoslar yaratildi, demokratik davlatlarga xos parlamentarizm shakllandi.

Respublika parlamenti-Oliy Majlis 13 yil davomida davlatimizning asosiy qomusi bo'lgan Konstitusiyaga muvofiq 500 ga yaqin qonun, 10 kodeks, 2 milliy dastur va mingdan ortiq qarorlar qabul qildi. O'tgan 13 yil davomida Oliy Majlis bir palatali parlament sifatida faoliyat yuritib, katta tajriba to'pladi. Parlament faoliyati uchun eng zarur bo'lgan omil-yuqori malakali siyosatshunoslar, yuristlar, iqtisodchilar korpusi shakllandi. Oliy Majlisning 2001 yil dekabrda bo'lgan yettinchi sessiyasida ikki palatali parlament tuzish zarur, degan xulosaga kelindi. 2002 yil 27 yanvarda ikki palatali parlament tuzish masalasida referendum o'tkazildi. Referendumda ishtirok etgan fuqarolarning 93,65 foizi ikki palatali parlament tuzishni yoqlab ovoz berdilar. 2002 yil aprelda bo'lgan Oliy Majlisning sakkizinchi sessiyasida «Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida» Konstitusiyaviy qonun qabul qildi va ikki palatali parlament tuzishga tayyorgarlik boshlab yuborildi.

O'zbekistonda davlat boshqaruvi tizimi tubdan isloh qilindi. Milliy davlatchilik an'analarini o'zida mujassamlashtirgan kuchli ijroiya hokimiyati-Vazirlar Mahkamasi tuzildi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi va 1993 yil 2 sentyabrda qabul qilingan «Sudlar to'g'risida»gi Qonun asosida sud islohotlari o'tkazildi. Sud tizimi besh yil muddatga saylanadigan Konstitusiyaviy sud, Oliy sud, Oliy xo'jalik sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi va xo'jalik sudi, Toshkent shahar, viloyat, tuman, shahar va tumanlararo jinoyat va fuqarolik sudlari, viloyat xo'jalik sudlaridan iborat.

Bugungi kunda huquqiy demokratik davlat tamoyillarini hayotga joriy etish maqsadida respublikada hokimiyatning uchinchi tarmog'i – sud-huquq tizimini isloh qilish va yanada liberallashtirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Bu borada mutlaqo yangi Konsepsiyaning joriy etilganligi, sudlarning jinoiy, fuqarolik va xo'jalik ishlari bo'yicha ixtisoslashuvi amalga oshganligi, sudlarning mustaqilligi, sud qarorlarini ijro etish bo'yicha yetarli vakolatlarga ega bo'lgan departament faoliyat ko'rsatayotganligi, prokuratura organlarining sud jarayoniga aralashuvini jiddiy

cheklash bo'yicha qonunchilik normalariga zarur o'zgartirishlar kiritilganligi kabi amalga oshirilayotgan ishlar guvohdir.

«O'zbekiston Respublikasi mahalliy hokimiyat organlarini qayta tashkil etish to'g'risida» gi Qonunga muvofiq viloyat, tuman, shaharlarda hokimliklar tashkil etildi. Hokimiyat qoshida ijroiya apparati tuzildi.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq Vatan xavfsizligini mustahkamlash, hududiy butunlikni saqlash davlatimizning diqqat e'tiboridadir. Shu davr mobaynida milliy xavfsizlik konsepsiyasi ishlab chiqildi, 1996 yil 24 aprelda «Milliy xavfsizlik to'g'risida» Qonun qabul qilindi.

Milliy xavfsizlik, avvalo, mamlakatning mudofaa qobiliyatiga bog'liq. Shu boisdan mamlakatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash choralari ko'rildi. 1991 yil sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tuzildi. O'zbekiston Parlamentining 1992 yil 14 yanvarda qabul qilingan «O'zbekiston hududida joylashgan harbiy qismlar va qo'shinlarni o'z tasarrufiga olish to'g'risida»gi qarori asosida O'zbekistonning o'z qurolli kuchlari tashkil etildi. 14 yanvar Vatan himoyachilari kuni deb e'lon qilindi.

O'zbekiston Qurolli Kuchlari quruqlikdagi qo'shinlar, harbiy havo kuchlari, havo hujumidan mudofaa qo'shinlari, maxsus va muhandislik-qurilish qo'shinlari hamda Milliy gvardiyadan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 93-moddasiga muvofiq Prezident mamlakat Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh Qo'mondoni hisobanadi.

O'zbekistonda yuqori malakali ofiser kadrlar tayyorlash tizimi yaratildi. Toshkent umumqo'shin komandirlari, Samarqand avtomobilchi komandir-muhandislar, Chirchiq tankchi komandir-muhandislar, Jizzax aviasiya oliy harbiy bilim yurtlari, Toshkent Axborot texnologiyalari universitetida tashkil etilgan maxsus fakultet Qurolli Kuchlar saflariga turli mutaxassisliklar bo'yicha yuqori malakali komandirlar tayyorlab yetishtirmoqda.

Toshkentda oliy qumondonlar tayyorlovchi Harbiy Akademiya faoliyat ko'rsatmoqda. Harbiy Akademiya zamonaviy harbiy bilimlarni egallagan, sharqiy sarkardalarning, avvalo sohibqiron Amir Temurning harbiy san'atini, jahon harbiy ilmi va jangovar tayyorgarligining ilg'or tajribalarini o'zlashtirgan oliy qumondonlarni tayyorlab chiqarmoqda. O'zbekistonda miqdor jihatdan uncha katta bo'lmagan, lekin zamonaviy qurollar bilan qurollangan professional armiya tuzish uchun harbiy islohotlar o'tkazilmoqda.

Uchinchi masala. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida respublikamizda yangi, demokratik siyosiy tuzumning asoslari yaratildi. Bu tuzum siyosiy tashkilotlarning, mafkura va fikrlarning turli tumanligi asosiga qurilgan bo'lib, davlat va jamiyatni boshqarishda fuqarolarning keng ishtirokini ta'minlamoqda.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlarning farqi shundaki, mamlakatimizda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari ishi rivojiga keng ahamiyat berilmoqda.

«Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida» gi Qonunga binoan shahar, shaharcha, qishloq va ovullarda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari – mahalla qo'mitalari tashkil etildi.

Bugungi kunda to'qqiz ming olti yuz to'qsonta fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari milliy an'analarga muvofiq mamlakat ijtimoiy hayotida juda katta o'rin tutmoqda. Respublikamiz aholisining mamlakat ijtimoiy va siyosiy hayotida ishtiroki ko'lamini yanada kengaytirish avvalo mamlakatimizni modernizasiya qilish borasida uzoqni ko'zlaydigan «Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari», degan tamoyilda o'z ifodasini topmoqda.

Jamiyat hayotida nodavlat jamoat tashkilotlarining o'rni va ahamiyatini keskin ko'tarish, «Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari», degan tamoyilni hayotga joriy etish 2002 yil avgustda bo'lib o'tgan ikkinchi chaqiriq O'zR Oliy Majlisining IX sessiyasida Prezidentimiz tomonidan yetti ustuvor yo'nalishlarning biri qilib belgilandi.

Prezident I. Karimov 2005 yilning 28 yanvarida O'zR Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida qilgan ma'ruzasida «Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari», degan tamoyilni keng hayotga joriy etilishi

«... hokimiyat vakolatlarining ma'lum bir qismini markazdan mahalliy hokimiyat organlariga o'tkazishga qaratilgan mavjud qonun va huquqiy hujjatlarni bir tizimga keltirish va ularga qo'shimcha tarzda yangilarini ishlab chiqish ... o'zini-o'zi boshqarish organlari – mahalla, mahalla qo'mitalari va qishloq fuqarolik yig'inlarining roli hamda vakolatlarini amalda kuchaytirish lozim»<sup>1</sup> ligini yana bir bor ta'kidlab o'tdi.

Mustaqillik yillarida inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari, ularni kafolatlovchi huquqiy mexanizm yaratildi.

O'zR Konstitusiyasining 18-moddasida «O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi, ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar qonun oldida tengdirlar», deb belgilab qo'yilgan. Har kim yashash, erkinlik, daxlsizlik, turar joyga egalik, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Bular davlat tomonidan himoya qilinadi.

Inson huquqlari bo'yicha Oliy Majlisning Vakolatli instituti (Ombudsman) ta'sis etildi. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy markazi, harakatdagi qonunchilik monitoringi instituti xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonda demokratik jamiyatga xos saylov tizimi ham barpo etildi.

Respublikamizda 5 siyosiy partiya (Xalq demokratik partiyasi, «Fidokorlar» milliy demokratik partiyasi, «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi, «Adolat» sosial-

---

<sup>1</sup>Каримов И. Бизнинг бош мақсадимиз-жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишидир. Т., «Ўзбекистон», 2005., 39-б.

demokratik partiyasi, Liberal demokratik partiyasi) «Xalq birligi» harakati, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, kasaba uyushmalari va xotin-qizlar tashkilotlari, 300 respublika va xalqaro noxukumat tashkilotlari, jamg'armalar va fuqarolarning boshqa birlashmalarini o'zida mujassamlashtirgan ijtimoiy-siyosiy tuzum vujudga keldi.

Faoliyat ko'rsatayotgan partiyalar Prezident, parlament va mahalliy hokimiyat saylovlarida o'z dasturlari bilan chiqib, saylovchilarni o'z ortidan ergashtirishga harakat qilmoqdalar.

Birgina so'nggi, 2004 yil oxiri va 2005 yil boshida ikki palatali parlamentga o'tkazilgan saylovlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu saylovlar oshkoralik, ochiqlik va qizg'in kurashlar bilan o'tkazganligini guvohimiz.

Prezident I. Karimov bu saylov yakunlari haqida to'xtab: «... bu saylovlar biz uchun yana bir sinov bo'ldi. Bu sinov bizning hych kimdan kam emasligimizni, yurtimizda demokratik davlat barpo etish, o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurish yo'lida salmoqli qadamlar qo'yayotganimizni yana bir bor ko'rsatdi. Shuning uchun ham bu saylovlar O'zbekistonning yangi tarixida alohida sahifa bo'lib qoladi»<sup>1</sup>, - deb ta'kidladi.

O'zbekiston parlamentining ikki palatasi - qonunchilik palatasi va Senati saylovlarida «Adolat» SDP-74 (14,4%), «Milliy tiklanish» DP-61 nomzod (11,8%), Saylovchilar tashabbus guruhi-56 nomzod (10,8%), O'zbekiston LDP-119 nomzod (23%), «Fidokorlar» MDP-89 nomzod (17,2%), Xalq demokratik partiyasi-118 nomzod (22,8%) lari qizg'in kurash olib bordilar. Bo'lib o'tgan saylovlarda O'zbekiston Liberal- demokratik hamda Xalq demokratik partiyalari parlamentda o'z nomzodlarini ko'p saylangani bilan g'alabaga erishdilar.

Bu saylovlarda respublikamizda ikki palatali parlament shakllandi. Quyi palataga 120 deputat, senatga esa 84 nafar senator saylandi. 16 nafar senator esa O'zR Prezidenti tomonidan tayinlandi. Ikkala palataning vakolat muddati –5 yil etib belgilandi.

Saylovlarni o'tkazish jarayonida saylovchilarimiz o'zlarining siyosiy fuqarolik saviyasi yetukligini, o'z hayoti, o'z kelajagini umume'tirof etilgan demokratik qadriyatlar asosida qurishga qodir ekanliklarini namoyon etdilar.

Mustaqillik yillarida olib borilgan milliy siyosat natijasida millatlararo tinchlik va totuvlik ta'minlandi. Respublikada 17 diniy konfessiya ro'yxatga olinib, faoliyat ko'rsatmoqda. 170 dan ortiq diniy tashkilotlar ishlab turibdi va ularda O'zbekistonda yashovchi 130 millat va elat vakillari o'zlarining diniy ehtiyojlarini qondirmoqdalar. Bu millat va elatlarning tillari, qadr-qimmatini ham o'z o'rniga qo'yilgan.

Mustaqillik yillarida demokratik institutlarning muhim tarmog'i bo'lgan erkin ommaviy axborot vositalari (OAV) vujudga keldi.

---

<sup>1</sup>Каримов И. А. Бизнинг бош мақсадимиз-жамиyatни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишдир. – 6-6.

Bugungi kunda O'zbekistonda 609 ta (1990 yilda-311 ta edi) gazeta, 162 ta (1990 yilda-65 ta edi) jurnal nashr etilmoqda.

Respublikada 3 ta axborot agentligi, 50 dan ortiq teleradiokompaniyalar va studiyalar ishlab turibdi. O'zbekiston televideniya kompaniyasining kundalik ko'rsatuvlari hozirda 51,5 soatni tashkil etsa, respublika radiosi 100 soatlik eshittirish olib bormoqda.

O'zbekistonda demokratik yangilanishlar jarayonini chuqurlashtirish va fuqarolarning erkinliklarini ta'minlashning g'oyat muhim sharti – bu ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish uchun demokratik andozalarni joriy etish bo'yicha aniq va izchil choralar amalga oshirilmoqda. Prezidentimizning Parlamentning ikki palatasi qo'shma yig'ilishida (2005 yil 28 yanvar) so'zlagan nutqida bu amalga oshirilayotgan choralar ustuvor vazifa va yo'nalishlardan biri qilib qo'yilganligi ham mustaqilligimizni mustahkamlashda ommaviy axborot vositalarining roli naqadar kuchli ekanligini ko'rsatmoqda.

Xulosa qilib aytganda, jonajon Vatanimiz – O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yo'lida qisqa bo'lsada, ammo mazmunli, shavkatli yo'lni bosib o'tdi.

Bu yillar mohiyatan yurtimiz tarixida sharaflil va o'ta ma'suliyatli davrni tashkil etadi. Bu yillarda har birimizning hayotimizda, mamlakat taqdirida muhim va keskin o'zgarishlar yuz berdi. Turmush tarzimiz o'zgarib bormoqda. O'zligimizni anglab, yurtimizda va shaxsiy hayotimizda sodir bo'layotgan yangilanish jarayonlarini haqqoniy tahlil etadigan bo'ldik.

«G'oyaga qarshi faqat g'oya», «Jaholatga qarshi faqat ma'rifat», bilan bahsga kirishishga chorlagan milliy istiqlol g'oyasi bizning imkonimiz mezoniga aylanib, qaramlik, boqimandalik kayfiyatidan ozod bo'la boshladik.

Istiqlol yillarida yurtimizda amalga oshirilgan keng ko'lamlil ishlar tufayli kelajak taqdirimiz o'z faoliyatimizga bog'liq ekanligiga ishonch hosil qilmoqdamiz.

Biz mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat qurish, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etishdek maqsad sari qadam tashlamoqdamiz. Tashlayotgan qadamlarimizning qutlug' bo'lishi Prezidentimiz 2005 yil 7 fevralda Oqsaroy qarorgohida Vazirlar Mahkamasining yangi tarkibi bilan o'tkazgan yig'ilishida ta'kidlaganidek: odamlarimizning siyosiy ongi va saviyasining qanchalik yuksalishiga, demokratiya yo'lida qancha ko'p ijobiy o'zgarishlarga erishishimizga, erkinlashtirish jarayonlarining tezlashishiga bog'liqdir.<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup>+аралсин: «Халқ сўзи», 2005 йил, 17 февраль.



## TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Davlatimiz mustaqilligiga erishish imkoniyatini yaratgan omillar nimalardan iborat edi?
2. Mustaqillik xalqimizga qanday imkoniyatlar berdi?
3. Taraqqiyotning «o'zbek modeli» qanday tamoyillarga asoslanadi?
4. Sobiq ittifoqdan, eski mustabid tuzumdan mamlakatimizda demokratik isloxlarni amalga oshirishga tushib bulgan qanday siyosiy meros kolgan edi.?
5. O'zbekistonda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati qurilishida qanday tamoyillar, tajribalar va qadriyatlarga tayaniladi?
6. O'zbekistonda boshkaruvning qanday tizimiga amal qilinmoqda?
7. «Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari», degan tamoyilning mazmun va moxiyatini tushuntirib bering?
8. O'zbekistonda ikki palatali parlamentga o'tish zaruriyati va ularga o'tkazilgan saylovlar haqida o'z fikringizni bildiring?
9. Mamlakatimizda nima sababdan fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga muhim ahamiyat berilmoqda?
10. Respublikamizda qanday partiyalar, harakatlar va jamiyat tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqda?
11. Respublikamizdagi ommaviy axborot vositalari va ularning demokratik o'zgarishlardagi o'rni haqida fikringizni bildiring?
12. Mamlakatimizda Vatan xavfsizligini ta'minlash borasida qanday ishlar amalga oshirildi?
13. «Sudlarning mustaqillikka erishuvi» deganda nimani tushunasiz?
14. Bosh maqsadimiz-huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatiga erishishimizda milliy istiqlol g'oyasi qanday o'rin tutadi?
15. Prezident I.A. Karimovning «Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va islox etishdir» nomli kitobida huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish va unga erishish borasida qanday vazifalar belgilab berildi?



## TEST TOPSHIRIQLARI

- 1.«O'zbek davlatchiligi tarixi» asarining muallifini ko'rsating.  
A) Azamat Ziyov V) B.Ahmedov S) A.Ahmedov D) A.Asqarov.
- 2.O'zbek davlatchiligi to'rtinchi asrdan bundan 2700 yil muqaddam ayni .....  
vohasida qo'yilgan.  
A) Xorazm V) So'g'd S) Surxon D) Farg'ona.
- 3.O'zbek davlatchiligi bosh manbaini ko'rsating.  
A) Xalq V) Ijtimoiy munosabatlar S) Ishlab chiqarish vositalari D) Ijtimoiy  
mulkchilik.
4. «O'zbekiston- kelajagi buyuk davlat. Bu- mustaqil, demokratik, huquqiy  
davlatdir.....» kabi iboralar Islom Karimovning qaysi asarida keltirilgan.  
A) «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» V) «O'zbekiston XXI asr  
bo'sag'asida:...» S) «O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, mafkura» D) «Tarixiy  
xotirasiz kelajak yo'q».
5. O'zbek davlatchiligi kurtaklarini namoyon etgan asosiy yozma manbaani  
ko'rsating.  
A) Avesto V) Behustun bitiklari S) Yunon- Rim asarlari D) Xitoy manbaalari.
6. Amir Temurning taxt uchun kurash boshlagan yillaridan to 1404-yilgacha  
bo'lgan voqeyalari bayoni qaysi asarda nisbatan to'liqroq keltirilgan.  
A) Nizomiddin Shomiy «Zafarnoma» V) «Habib -as-siyar» S) Sharofiddin -al-  
Yazdiy «Zafarnoma» D) Abdurazzoq Samarqandiy «Matlai sa'dayn va majmai  
baxrayn».
7. Amir Temur davri davlat boshqaruvidagi adliya vazirligi to'g'risidagi  
ma'lumot qaysi asarda keltirilgan.  
A)Sharofiddin -al-Yazdiy «Zafarnoma» V) «Habib -as-siyar» S)Nizomiddin  
Shomiy «Zafarnoma» D) Abdurazzoq Samarqandiy «Matlai sa'dayn va majmai  
baxrayn».
8. Davlat boshqaruvidagi ijroiya tizimiga aloqador ma'lumotlar quyidagi qaysi  
asarda aks etgan.  
A)«Temur tuzuklari» V) «Habib -as-siyar» S)Nizomiddin Shomiy  
«Zafarnoma» D) Abdurazzoq Samarqandiy «Matlai sa'dayn va majmai baxrayn».
9. Davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosda qurish  
g'oyasi qaysi asarda keng targ'ib etilgan.  
A) «Temur tuzuklari» V) «Habib -as-siyar» S)Nizomiddin Shomiy  
«Zafarnoma» D) Abdurazzoq Samarqandiy «Matlai sa'dayn va majmai baxrayn».
10. O'zbek davlatchiligining 2700 yillik tarixi mobaynida mavjud bo'lgan  
qonuniyatlari bir tizimga solinib tahlil etilgan asarni ko'rsating.  
A)«O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida:...» V)«O'zbekistonning o'z istiqlol va  
taraqqiyot yo'li» S) «O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, mafkura» D) «Tarixiy  
xotirasiz kelajak yo'q».

11. Islom Karimov qaysi asarida «O'zbek davlatchiligi qaysi asrda paydo bo'lgan? Qanday tarixiy bosqichlarni bosib o'tdi? kabi iboralarni keltirgan.

A)«Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q»V)«O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» S) «O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, mafkura» D)«O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida:...».

12. Saklar va massagetalar konfederasiyasi.....

A) Ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi qabilalarning xarbiylashgan davlati V) Sug'orma dehqonchilikka asoslangan o'troq qabilalar davlati S) Sinfy jamiyatga asoslangan yarim ko'chmanchi qabilalar davlati D) Mulkiy tengsizlikka asoslangan o'troq qabilalar madaniyati.

13. O'rta Osiyo shaxar madaniyati, davlatchilik shakllangan davrni ko'rsating.

A)Mil. avv. 2-minginchi yil 2-yarmi- 1-minginchi yil boshlari V)Mil. avv. 3-minginchi yil 2-yarmi- 2-minginchi yil boshlari S) Mil. avv. 3-minginchi yil 2-yarmi- 2-minginchi yil o'rtalari D)Mil. avv. 1-minginchi yil boshlari va o'rtalari.

14. O'zbekistonda mil. avv. VIII-VII asrlardagi dastlabki davlat birlashmalarini ko'rsating.

A) «Katta Xorazm», Baqtriya V) «Katta Xorazm», So'g'd S)Farg'ona, Baqtriya D) Farg'ona va Shosh.

15. O'zbek davlatchiligining dastlabki shaklini ko'rsating.

A) «Voha» davlatchiligi V) «Shahar-davlat» S)«Shahar» D) «Davlat».

16.O'zbek davlatchiligi tarixining uzluksiz taraqqiyot yo'lini ko'rsating

A)Mil. avv. 2-minginchi yil 2-yarmidan to hozirgi kungacha V)Mil. avv. 1-minginchi yil boshidan to hozirgi kungacha S) Mil. avv. 1-minginchi yil 2-yarmidan to hozirgi kungacha D)Mil. avv. 1-minginchi yil oxiridan to hozirgi kungacha.

17.O'zbek davlatchiligi tarixining muammosini aniq bir maqsadga yo'naltirgan holda tadqiq etish ..... yildan e'tiboran boshlandi.

A) 1999 V) 2001 S)2002 D) 2003.

18. Amir Temur saltanatida davlat qurilishi nimaga asoslangan edi.

A) Mahalliy davlatchilikning qo'shni Sharq mamlakatlari tajribasi bilan boyitilgan asriy an'analariga asoslangan.V) Mahalliy davlatchilikning qo'shni G'arb mamlakatlari tajribasi bilan boyitilgan asriy an'analariga asoslangan.S) Qo'shni Sharq mamlakatlari tajribasi bilan boyitilgan asriy an'analariga asoslangan.D) Mahalliy davlatchilikning asriy an'analariga asoslangan.

19.Amir Temur davlati ma'muriy jihatdan qanday tarkibiy qismlarga bo'lingan.

A) Ulus,viloyat, tuman V) Noiblik, ulus, tuman S) Ulus, noiblik tuman D) Ulus, noiblik,viloyat.

20. Jamiyatning to'rt ustuni-adolat,davlat,aqlu-zakovat,qanoat asosidagi baxt-saodatni ta'minlashda ilmni birinchi o'ringa qo'ygan mutafakkirni ko'rsating.

A) Yusuf Xos Xojib V) Mahmud Qoshg'ariy S) Fazlulloh Ro'zbehon S) Hofiz Tanish Buxoriy.

21. Ahamoniylar tajovuzi arafasida Xorazm davlati hududini ko'rsating.

A) Sirdaryodan O'rta Afg'onistongacha bo'lgan yerlar (Baqtriya va Girkaniya bunga kirmagan) V) Sirdaryodan O'rta Afg'onistongacha bo'lgan yerlar (Baqtriya va Girkaniya bunga kirgan) S) Sirdaryodan O'rta Afg'onistongacha bo'lgan yerlar (So'g'd va qisman Baqtriya bunga kirgan) D) Sirdaryodan Shimoliy Afg'onistongacha bo'lgan yerlar (Shosh va Farg'ona bunga kirmagan).

22. Respublikamizda "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonun qachon qabul qilingan.

A) 1993 yil 2 sentyabr V) 1993 yil 12 sentyabr S) 1993 yil 22 sentyabr D) 1993 yil 12 oktyabr.

23. Ahamoniylar bosqiniga qadar mamlakatimizning ko'p qismini birlashtirib turuvchi siyosiy birlashma quyidagilardan qaysi biri hisoblanadi.

A) Xorazm V) So'g'd S) Baqtriya D) Marg'iyona.

24. Xitoy manbalarida hukmdor, uning ikki yordamchisi (vaziri) va oqsoqollar kengashi bo'lgan deb manbalarda tilga olingan manbaani ko'rsating.

A) Davan V) Qang' S) Tohariston D) Shosh.

25. Mil. avv. 2-1 asrda Baqtriyaning bir qismida qaysi siyosiy birlashma-davlat yuzaga kelgan.

A) Tohariston V) Farg'ona S) Chag'anyon D) Tog'li Badoxshon.

26. O'zbek davlatchiligi tarixida saltanatchilik bosqichini boshlab bergan davlatni ko'rsating.

A) Kushon V) Qang' S) Xorazm D) Davan.

28. Kushoniylar davlati qaysi unvon asosida boshqarilgan.

A) Yabg'u V) Satrap S) Ishxid D) Malikshoh.

29. «Eftaliylar davlatini qonunlar asosida boshqaradilar» degan ibora kimga tegishli.

A) Prokopi V) Chjan Syan S) Pompeytrok D) V.V. Bartol'd.

30. O'zbek davlatchiligi tarixining dolzarb masalasi bu.....

A) Davlatchiligimizning tarixiy ildizlarining avtohtonligidir V) Aholilar o'zaro madaniy aloqalaridir S) Ishlab chiqarish iqtisodiyotiga asoslanganligidir D) Ijtimoiy munosabatlardir.

31. Oqsoqollar kengashi-poshoh-birinchi va ikkinchi yordamchi, hokim ketma-ketligidan iborat boshqaruv tizimi qaysi davlatga xos bo'lgan.

A) Davan V) Qang' S) Tohariston D) Shosh.

32. Taxt otadan o'g'ilga emas, akadan ukaga, kichik amakidan kata jiyanga meros bo'lish an'anasi qaysi davlatchilikka xos bo'lgan.

A) Turk davlatchiligi V) Xorazm davlatchiligi S) So'g'd davlatchiligi D) Farg'ona davlatchiligi.

33. Oliy hukmdor- amir unvoniga ega bo'lib, boshqaruv tizimining asosini dargoh va devonlar tashkil etgan dastlabki markazlashgan davlatni ko'rsating. A) Somoniylar V) G'aznaviylar S) Toxiriylar D) Xorazm.

34. «Davlatning vazifasi insonlarni baxt-saodatga eltishdir» degan ibora qaysi mutafkkirga tegishli. A) Farobiy V) Abu Rayxon Beruniy S) Amir Temur D) Maxmud Qoshg'ariy.

35. Voliy, amid, qutvol, shixna kabi unvonlari bo'lgan, bosh qo'mondoni sipohsalor deb nomlanuvchi davlatni ko'rsating. A) G'aznaviylar V) Qoraxoniylar S) Saljuqiylar D) Xorazm.

36. Salavkiylarning Sharqiy viloyatlariga qaysi hududlarkiraredi? A) Baqtriya, So'g'diyona, Marg'iyona, Parfiya B) Parfiya, Marg'iyona, Misr, Kichik Osiyo C) Misr, Kichik Osiyo, Parfiya Hindiston D) Kichik Osiyo, Hindiston, Parfiya, Baqtriya.

83. «Baqtriya», «Katta Xorazm» davlatchiligiga tamal toshlari qachon qo'yilgan? A) 2900-2700 yil muqaddam; V) 2700-2500 yil muqaddam; S) 2500-2400 yil muqaddam; D) 2300 –2100 yil muqaddam;

84. O'zbek davlatchiligi tadqiqotida qaysi hududda 11 ta dehqonchilik vohasi borligi aniqlangan? A) Baqtriya hududida V) So'g'd hududida S) Farg'ona hududida D) Xorazm hududida.

85. Eng sara 15 mamlakat yaratilganligi borasidagi ma'lumot qaysi tarixiy manbada keltirilgan? A) Avesto V) Behustun qoyatoshi bitiklarida S) Gerodotning «Tarix» asarida D) Ossuriya bitiklarida

86. O'zbekiston shaharsozlik madaniyati tarixida R.X. Sulaymonovning Yerqo'rg'on yodgorligida qo'lga kiritgan eng so'nggi muhim yangiligi qaysi? A) mil. avv. 8-7 aslarga oid eng qadimgi mudofaa devorini topilishi; V) Ark maydoni; S) Qadimgi kulolchilik ustaxonasi; D) Zargarlik ustaxonasi;

87. Qoraqalpog'iston Respublikasi konstitusiyasi qachon qabul qilingan. A) 1993 yil, 9 aprel V) 1992 yil 2 dekabr S) 1993 yil 4 yanvar D) 1993 yil 27 fevral

88. O'zbekiston Respublikasi «Mustaqillik deklarasiyasi» qachon qabul qilindi. A) 1990 yil, 20 iyun V) 1990 yil 24 mart S) 1991 yil 15 fevral D) 1991 yil 18 iyun

89. Vatanimiz sarhadlari miqyosida shaharsozlik madaniyatining asosiy tadqiqotchisini belgilang. A) A. Asqarov V) O'. Islomov S) Ya. G'ulomov D) Yu. F. Buryakov.

90. Vatanimiz miqyosidagi ilk shaharlarni ko'rsating. A) Ko'zaliqir, Yerqo'rg'on V) Afrosiyob, Bolaliktepa S) Ko'ktepa. Afrosiyob D) Xiva, Buxoro.

91. Qashqadaryo vohasi miqyosida ilk shaharsozlik va davlatchilik tarixi tadqiqotchisini aniqlang. A) R.H. Sulaymonov V) M. Isamiddinov. S) A. Asqarov D) A. Muhammadjanov.

92. «O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi» asarining mualliflarini aniqlang. A) A.S. Sagdullayev, O'Mavlonov V) A.S. Sa'dullayev, B. Eshov S) R.H. Sulaymonov, A. Asqarov D) M. Isamiddinov. A. Muhammadjonov

93. O'zbek xalqi davlatchiligi tarixi konsepsiyasi (Loyiha) qachon ishlab chiqilgan. A) 1999 yil V) 2000 yil S) 2001 D) 2002.

94. O'zbek xalqi davlatchiligi tarixi o'rta asrlar bo'yicha asosiy manbalari qaysilar hisoblanadi. A) Turkiy,fors,arab V) Xitoy,yunon-rim,vizzantiya S) Fors, arab, arman D) Turkiy, arab, rus.

95. O'zbekistonning qadimgi aholisi dastlabki toifalari borasida qaysi manba ma'lumot beradi. A) Avesto V) Bexustun bitiklari S) Xitoy manbalari S) Mug' qal'asi yozuv manbalari

96.«Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi» sanasini ko'rsating. A) 2010 yil 12 noyabr V) 2010 yil 14 dekabr S) 2009 yil 12 noyabr D) 2009 yil 14 dekabr

97. "O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisiga saylovlar to'g'risida"gi qonun qachon qabul qilingan. A) 1994 yil 22 sentyabr V) 1994 yil 21 sentyabr S) 1994 yil 23 sentyabr D) 1994 yil 24 sentyabr

98.O'rta asrlar tarixnavisligidagi sulolaviy tarixga bag'ishlangan asarni ko'rsating. A) "Tarixi Bayhaqiy" V) "Buxoro tarixi" S) "Tarixi Tabariy" D) "Jome at-tavorix"

99.O'zbek davlatchiligi tarixi rivojining tarixiy taraqqiyot bosqichlari nuqtai nazaridan tahlil etilgan asarni ko'rsating. A) Azamat Ziyov "O'zbek davlatchiligi tarixi" V) Eshov B. "O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi" S) A.S. Sagdullayev va boshqalar. "O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti» D) A.S. Sagdullayev, O' Mavlonov " O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi".

100. Respublikamiz mustaqilligi yillarida shaharsozlik madaniyati tadqiqotida Afrosiyob yodgorligini tadqiq etgan olimni ko'rsating. A) M.Isamiddinov V)R.H.Sulaymonov S) T.Shirinov D) A.Asqarov.

## GLOSSARIY

**Avtoxton** - mahalliy, tub joy aholisi bo'lgan xalq. Aborigen.

**Antropogenez** - inson jismoniy qiyofasining shakllanishi, mehnat faoliyati shuningdek, jamiyatning kundalik rivojlanish jarayoni.

**Genealogiya** - shajara

**Madaniyat** – inson qo'li va aql- idroki bilan yaratilgan moddiy va madaniy boyliklar

**Mikroetnos** – mahalliy xalq yoki millat ichida ba'zi jihatlari bilan ajralib turadigan mayda etnografik guruhlar.

**Etnogenetik jarayon** – bu jarayonda xalqning ilk ildizlari hosil bo'ladi.

**Etnik jarayon** – etnik birlik (elat) bilan uning tarkibiga kirgan etnik guruhlar o'rtasidagi xo'jalik, iqtisodiy, madaniy aloqalarning uzluksiz rivojlanib borishidir.

**Etnogenez** – xalqlarning kelib chiqish, ilgari mavjud bo'lgan turli etnik komponentlar asosida yangi etnik birlikning tarkib topish jarayoni.

**Etnos (yunoncha)** – elat, xalq. Etnologiyada urug', qabila, elat, xalq, millat.

**Etnogeografiya** – etnologiyaning bir tarmog'i. Dunyo miqyosida alohida mamlakatlar va ularning hududlari aholisining tarkibi va joylanishini o'rganadi.

**Etnosentrizm** – insonning barcha hayotiy hodisalarini o'zi uchun namuna deb bilgan, o'z etnik guruhi qadriyatlar yuzasidan moyilligi, o'z hayot tarzini boshqalardan avzal ko'rishi.

**Avtoxton** - mahalliy, tub joy aholisi bo'lgan xalq. Aborigenlar.

**Antropogenez** - inson jismoniy qiyofasining shakllanishi, mehnat faoliyati, shuningdek jamiyatning kundalik rivojlanish jarayoni.

**Antropologiya** - odamning kelib chiqishi va evolyusiyasi, odamzod irqlarining paydo bo'lishi, odamning tana tuzilishidagi normal farq, o'zgaruvchanlik haqidagi fan.

**Geneologiya** - shajara

**Konglomerat** - birikish, qo'shilish, turli toifa va elatlarning uyushtirilishidan tashkil topgan ijtimoiy siyosiy tuzilma

**Konsolidasiya** - Qon qarindosh bo'lgan xalqlarning yagona bo'lib birlashuvi, mustahkamlayman.

**Mikroetnos** - mahalliy xalq yoki millat ichida ba'zi jihatlari bilan ajralib turadigan mayda etnografik guruhlar.

**Nikoh** - er- xotinlikni shariat yo'li bilan rasmiylashtirish marosimi.

**Tarixiy – etnografik viloyat**- ma'lum hududda joylashgan moddiy va ma'naviy madaniyatda umumiylikka ega bo'lgan xalqlar.

**Tillar klassifikatsiyasi** – jahon tillarini turli belgilariga ko'ra o'rganib, guruhlarga ajratish.



**Xo'jalik madaniy tiplar-** jahon xalqlarining ibtiodiy jamiyat davridagi ijtimoiy-iqtisodiy tarqiyti turlicha tabiiy sharoitga tushib qolishidan vujudga kelgan xo'jalik madaniyatlari.

**Sivilizasiya-** insoniyat jamiyati ilgarilama harakatida erishilgan darajani hamda moddiy va ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirish usulini ifodalaydigan tushuncha.

**Etnik antropologiya va irqshunoslik-** antropologiyaning odamzod irqlarining kelib chiqish tarixi, sabablari va Yer yuziga tarqalishi hamda xalqlarning antropologik tarkibini o'rganuvchi sohasi.

**Etnik birlik-** kishilarning qabila, elat millat va boshqa birliklaridan iborat bo'lgan, tarixan tarkib topgan alohida barqaror ijtimoiy guruhi.

**Etnik guruh-** turmush va madaniyatining ayrim elementlari ( tili, moddiy va ma'naviy madaniyatidagi o'ziga xos xususiyatlari, dini va b) ni saqlagan xalq yoki millatning alohida qismi.

**Etnografik guruh -** ma'lum bir etnosning (elatning yoki millatning ajralmas qismi uning tarkibidagi bo'linmalardan) biri bo'lib, o'zining ba'zi xususiyatlari bilan til lahjasi, xo'jalik faoliyati, turmush tarzining ba'zi tomonlari bilan farq qiladi.

**Etnik jarayon-** etnik birlik (elat) bilan uning tarkibiga kirgan etnik guruhlar o'rtasidagi xo'jalik, iqtisodiy, madaniy aloqalarning uzluksiz rivojlanib borishidir.

**Etnogenetik jarayon-** bu jarayonda xalqning ilk ildizlari hosil bo'ladi.

**Etnik psixologiya-** sosial (ijtimoiy) psixologiya bo'limlaridan biri bo'lib, turli milliy, xalq va etnik guruhga xos tipik psixik xususiyatlarni o'rganadi.

**Etnogeografiya (lot)-** etnologiyaning bir tarmog'i. Dunyo miqyosida alohida mamlakatlar va ularning hududlari aholisining tarkibi va joylashishini o'rganadi.

**Etnolingvistika (yunon)-** tilshunoslikning etnologiya bilan bog'liq bo'limi.

**Etnonim (yunon)-** xalqlarning nomlarini anglatuvchi atama.

**Etnonimika-** qabila, xalq va boshqa etnik bosqichlarni o'rganadigan fan.

**Etnos (yunon)-** elat, xalq. Etnologiyada urug', qabila, elat, xalq, millat.

**Etnosentrizm-** insonning barcha hayotiy hodisalarini o'zi uchun namuna deb bilgan o'z etnik guruhi qadriyatlari yuzasidan moyilligi o'z hayot tarzini boshqlardan afzal ko'rishi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent, "Sharq", 1998.
2. Karimov I.A. O'zbekistonningo'zistiqlolvataraqqiyotyoli,Toshkent, "O'zbekiston", 1992.
3. Karimov I.A. O'zbekiston-kelajagibuyukdavlat. Toshkent,"O'zbekiston", 1992.
4. Karimov I.A. Buyukkelajagimizninghuquqiykafolati. Toshkent, "Sharq ", 1993.
5. O'zbekistonda mustaqil davlatning tug'ilishi.Toshkent,"O'zbekiston", 1992.
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi.- Toshkent, O'zbekiston 2003.
7. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida” gi Qonuni. T.”Sharq” 2001. Oliy ta'lim meyoriy xujjatlari. 3 - 18 betlar.
8. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T. “Sharq” 2001. Oliy ta'lim meyoriy xujjatlari. 18 - 52 betlar.
9. Asqarov A. Mustaqillik yillarida tarix, arxeologiya va etnologiya. “O'zIF” jurnali. № 6, Toshkent, 1996, 71-bet
10. Azamat Ziyov O'zbek davlatchiligi tarixi: (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar). T., 2000.
11. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. T. Sharq, 2001 .
12. Sagdullayev.A. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda . T.1997.
13. Eshov B. O'zbek davlatchilik tarixi. T. 2009 y.
14. Eshov B. O'zbekistondadavlatvamahalliyboshqaruvtarixi.Toshkent, Yangiasravlodi, 2012.
15. Ilhomov Z.Otajonov Sh, Ishquvvatov V, Allayev N. O'rta Osiyo tarixshunosligi. Toshent, 2011
16. Sagdullayev va boshqalar. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. T., 2000.
17. Sagdullayev A.S. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. T., 2004.
18. Sagdullayev A.S., Mavlonov O'. O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi.-T., 2006.
19. O'zbekiston tarixi. T., «Universitet» 1997
20. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining O'zFA tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida”gi 1998 yil 27 iyul qarori.
21. O'zbek xalqi davlatchiligi tarixi konsepsiyasi. Loyiha. «O'zbekiston tarixi», 1999, № 1.
22. O'zbekistondavlatchiligitarixiocherklari. T. 2001.
23. O'zbekistondavlatchiligitarixiocherklari. Mas'ulmuharrirlarD.A.Alimova., E.V.Rtveladze. T., 2001.
24. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 13-jildlik. T., «O'zME», 2000-2006 y.